O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA’LIM VA ILM-FAN VAZIRLIGI
ABU ALI IBN SINO NOMIDAGI BUXORO DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI

L.M.KARIMOVA

YANGI O‘ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLAR IJTIMOIY MOBILLIGINING RIVOJLANISH QONUNIYATLARI HAMDA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

(monografiya)

Buxoro – 2026

YANGI O‘ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLAR IJTIMOIY MOBILLIGINING RIVOJLANISH QONUNIYATLARI HAMDA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**:** monografiya.

Muallif:
Karimova L.M.
Buxoro davlat tibbiyot instituti dotsenti, DSc

Muharrir:
A.Sharipov
Buxoro davlat pedagogika instituti professori, f.f.d. (DSc)

Taqrizchilar:
J.J.Shodiyev
Buxoro davlat universiteti
“Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa”
kafedrasi dotsenti f.f.d. (DSc)

Z.A.Axmedova
Buxoro davlat tibbiyot instituti
Ijtimoiy fanlar kafedrasi mudiri, f.f.n., dotsent

Ushbu monografiyada Yangi O‘zbekiston sharoitida xotin-qizlar ijtimoiy mobilligining nazariy asoslari, rivojlanish qonuniyatlari, shuningdek o‘ziga xos xususiyatlari tahlil etilgan. Ijtimoiy mobillikka ta’sir etuvchi omillar, ta’lim olish hamda kasbiy rivojlanish sharoitlari ochib berilgan.

Monografiya ilmiy izlaguvchilar, o‘qituvchilar, magistrantlar, shuningdek xotin-qizlar masalalari bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar uchun mo‘ljallangan.

Mazkur monografiya Buxoro davlat tibbiyot instituti Ilmiy kengashining 2026-yil …… noyabr oyidagi №4-sonli bayonnomasi bilan chop etishga tavsiya etilgan.

KIRISH

Bugungi kun Yangi O‘zbekiston sharoitida xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni hamda imkoniyatlarini tadqiq etish, ta’lim, mehnat hamda ijtimoiy munosabatlardagi o‘zgarishlarni bevosita uzviy bog‘liqlikda tahlil qilishni taqozo etmoqda. Ijtimoiy taraqqiyotni baholashning muhim jihatlari bu xotin-qizlarning o‘z bilimi va salohiyatini ro‘yobga chiqarishi, kasbiy faoliyatda o‘sishi, shuningdek qarorlar qabul qilishda ishtirok etishidir. Mazkur ma’noda, xotin-qizlarning ijtimoiy mobilligi qay sharoitlarda shakllanishi, qanday omillar orqali rivojlanishi hamda milliy muhitda qanday xususiyatlarni kasb etishini o‘rganish nazariy va amaliy ahamiyatga egadir.

Ta’kidlash joizki, ijtimoiy mobillik shaxs yoki ijtimoiy guruhning jamiyatdagi mavqei hamda ijtimoiy o‘rnining o‘zgarib borishini ifoda etadi. U, birinchidan, mavqening ko‘tarilishi yoki pasayishi bilan bog‘liq bo‘lgan vertikal harakatni, ikkinchidan mavqe darajasi sezilarli tarzda o‘zgarmagan holda kasbiy yoki ijtimoiy muhit o‘rtasidagi gorizontal o‘tishlarni o‘z ichiga qamrab oladi. Bu masalani bevosita tahlil qilishda, eng avvalo, ta’lim darajasi, kasbiy malaka, daromad, iqtisodiy mustaqillik hamda boshqaruvdagi ishtirok o‘rtasidagi munosabatlarga ham e’tibor qaratish talab etiladi. Mazkur yondashuv, o‘z navbatida, shaxsiy intilishlarni ularni bevosita amalga oshirishga imkon beruvchi ijtimoiy sharoitlar bilan bog‘liq holda tadqiq qilishga imkoniyat yaratadi.

Xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni hamda imkoniyatlari masalalarining huquqiy asoslari 2019-yil 2-sentabrda qabul qilingan «Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonunda o‘z aksini topgan. Unda ta’lim olish, mehnat qilish va xizmat pog‘onasiga ko‘tarilish borasida teng imkoniyatlarni ta’minlash kafolatlari belgilab berilgan. 2022-yil 7-martdagi PF-87-son Farmon bilan tasdiqlangan “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Milliy dastur”da esa, xotin-qizlarning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy faolligini oshirish vazifalari ko‘zda tutilgan bo‘lib, mazkur huquqiy yo‘nalishlarning amaliy imkoniyatlarga aylanish shartlarini tadqiq qilish mobillik tahlilining muhim qismini tashkil qiladi.

Yangi O‘zbekistonga xos bo‘lgan xususiyatlarni yoritishda oila, mahalla, ta’lim muassasalari va mehnat bozori o‘rtasidagi aloqalarni alohida tahlil etish talab etiladi. Xotin-qizlarning ijtimoiy tajribasini baholashda bevosita ularning yoshi, ma’lumoti, yashash hududi, oilaviy sharoiti va resurslardan foydalanish imkoniyatlarini ham hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Bu borada, shuningdek, shahar va qishloq muhiti, mahalliy bandlik sharoitlari, axborotdan foydalanish imkoniyatlari, qo‘llab-quvvatlash xizmatlarining mobillikka ta’siri tahlil qilinishi lozim.

Mazkur mavzu doirasidagi rivojlanish qonuniyatlari ta’lim, malaka, iqtisodiy resurslar va institutsional qo‘llab-quvvatlash o‘rtasidagi barqaror bog‘lanishlar asosida tahlil etiladi. Albatta, bu borada xotin-qizlarning shaxsiy tashabbuslari ijtimoiy imkoniyatlar bilan qanday uyg‘unlashib borishi, ma’lumot va kasbiy tayyorgarlikning mavqe o‘zgarishiga ta’siri qanday sharoitlarda kuchayishi kabi masalalarni o‘rganish muhim hisoblanadi. Xususan, huquqiy kafolatlar, ijtimoiy me’yorlar hamda amaliy resurslar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ochib berish mobillik jarayonini izchil tadqiq etishga imkon yaratadi. Bunday bog‘liqliklarni milliy muhitda tadqiq qilish umumiy ijtimoiy jarayonlarning O‘zbekiston sharoitida namoyon bo‘lish xususiyatlarini yoritib berishga xizmat qiladi.

Yuqoridagi vazifalardan kelib chiqqan holda, monografiyaning maqsadi Yangi O‘zbekiston sharoitida xotin-qizlar ijtimoiy mobilligining nazariy asoslari, rivojlanish qonuniyatlari, shuningdek o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilishdan iboratdir. Mazkur maqsad doirasida ijtimoiy mobillik tushunchasining mazmunini aniqlashtirish, ta’lim va kasbiy rivojlanishning ahamiyatini yoritib berish, mobillikni qo‘llab-quvvatlovchi, shuningdek cheklovchi omillarni o‘zaro bog‘liqlikda ko‘rib chiqishga e’tibor qaratiladi. Shu bilan birga, xotin-qizlarning o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish borasidagi imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiluvchi yo‘nalishlarni nazariy jihatdan asoslab berish nazarda tutiladi.

Ushbu monografiya xotin-qizlarning jamiyatda o‘z imkoniyatlarini amalga oshirish sharoitlarini chuqurroq anglashga qaratilgan ilmiy muhokamalar uchun bevosita asos bo‘lib xizmat qiladi.

I-BOB. XOTIN-QIZLAR IJTIMOIY MOBILLIGINI TADQIQ ETISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

1.1. Ijtimoiy mobillik nazariyalarining mazmun-mohiyati

Bugungi kunda jahon mamlakatlarida xotin-qizlar omiliga juda katta e'tibor qaratilmoqda. Gender tengligi va huquqlarni kengaytirishga qaratilgan ko‘plab strategiyalar belgilangan. «Ta'lim va xabardorlik», «Iqtisodiy imkoniyatlar», «Salomatlik va farovonlik», «Siyosat va qonunchilik», «Siyosat va qonunchilik», «Hamjamiyat ishtiroki» kabi kabi xalqaro loyihalar amalga oshirilib kelinmoqda. Xotin-qizlarni zamonaviy dunyoda raqobatlasha oladigan ko‘nikma va bilimlarga ega bo‘lishi, ayniqsa, qishloq va noqulay hududlarda sifatli ta'lim olish imkoniyatlarini ta'minlash, turli stereotiplar va noto‘g‘ri qarashlarga qarshi kurashish, hurmat va tenglik madaniyatini targ‘ib qilish, qizlarni ilm-fan, texnologiya sohalarida o‘zlarini namoyon qilish imkoniyatlarini oshirish lozim.

Zamonaviy dunyoda xotin-qizlarning qaror qabul qilish jarayonlarida, biznes va siyosatdagi rahbarlik lavozimlarida ishtirokini rag‘batlantirish, reproduktiv salomatlik, jumladan, oilani rejalashtirish va onalar salomatligini muhofaza qilish xizmatlaridan foydalanishni ta'minlash, ayollar huquqlarini himoya qiluvchi siyosat va qonunlar, teng imkoniyatlar, kamsitishlarga qarshi qonunlar, zo‘ravonlikdan himoya qilish, ularning siyosatdagi ishtirokini, saylovda qatnashish, rahbarlik lavozimlarini egallashni rag‘batlantirish maqsadga muvofiq. Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG) kabi gender tengligini targ‘ib qiluvchi xalqaro shartnoma va konvensiyalarni, xotin-qizlar ijtimoiy mobillik borasida olib borilayotgan tadqiqotlar qo‘llab-quvvatlash lozim.

Mamlakatimizda jamiyat hayotining turli sohalarida xotin-qizlarning ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi uchun zamonaviy sharoit va imkoniyatlar yaratilganligi, shu bilan birga, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishni tashkil etishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. «Xotin-qizlar bilan ishlash samaradorligini baholash bo‘yicha

yagona ko‘rsatkichlar ishlab chiqish, xotin-qizlar siyosatini baholash milliy indeksini joriy etish kerak»[1].

Jamiyatda xotin-qizlar ijtimoiy faolligini o‘rganish va uning holatlarini yanada yaxshilash imkoniyatlari yuzasidan turli fan namoyondalari tomonidan tadqiqotlar amalga oshirilgan. Sharq mutafakkirlarining asarlarida ijtimoiy mobillik hodisasiga jamoatchilik fikri jamiyatdagi ijtimoiy muhit, oqilona boshqaruv, din ma’rifati va shaxs e’tiqodi omillariga katta ta’sir o‘tkazishi tadqiq etiladi. Xususan, Abu Mansur al-Moturidiy mobillik hodisasini shaxsning ixtiyori bilan bog‘laydi. Al-Moturidiyning asarlaridagi shaxsning ma’naviy-intellektual takomillashuvi, uning jamiyatdagi o‘z ijtimoiy mavqeini ongli ravishda o‘zgartirishi mumkinligi, bu o‘zgarish imkoniyati uning o‘zida ekanligi ham hozirgi zamonaviy falsafada ham muhim ijtimoiy diskussiya sifatida ijtimoiy mobillikning o‘ziga xos kanallaridan biri deb ta’kidlash mumkin. Ijtimoiy mobillikning ijtimoiy muhit o‘zgarishi bilan bog‘liqligini asoslovchi nuqtai nazarni Alisher Navoiyning «Majolis un-nafois», «Mahbub ul-qulub», «Holati Pahlavon Muhammad» asarlarida mufassal bayon etilgan[2] ini kuzatishimiz mumkin.

O‘zbekistonda xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishning falsafiy jihatlari, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va huquqiy masalalari Q. Nazarov, B. Aliyev, H. Boboyev, D. Bobojonova, L. Boyko, K. Djavakova, Sh. Jalilov, R. Jumayev, I. Saifnazarov, S. Jo‘rayev, Z. Islomov, G. Ko‘chqorova, Sh. Mamadaliyev, M. Mirxamidov, F. Musayev, X. Odilqoriyev, A. Saidov, B. To‘ychiyev, A. To‘laganov, S. To‘ychiyeva, A. Shaymanova, M. Sharifxo‘jayev, E. Xalilov, I. Ergashev, M. Qirg‘izboyev, A. Qodirov, Z. Qodirova, O. Husanov[3] lar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarida xotin-qizlar muammolari, ulardagi mobillik bilan bog‘liq bo‘lgan muhim masalalar

---

[1] O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasi. «Xalq so`zi», 9-son. 2025 yil 25 yanvar

[2] Ma’naviyat yulduzlari: (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar). Toshkent: A.Qodiriy, 1999. – B.252.

[3] [3] Aliyev B. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning asarlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2010; Boboyev H., Hasanov S. O‘zbekiston demokratik jamiyat qurish sari. – Toshkent: Adolat, 2001; Bobojonova D. O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar. – Toshkent: Sharq, 1999; Бойко Л.М. Конституционные основы народовластия в Республике Узбекистан. – Тошкент: Адолат, 2001. Jalilov Sh. Davlat hokimiyati mahalliy organlari islohoti: tajriba va muammolari.

fuqarolik jamiyati institutlarining ijtimoiy mobillik bilan bog‘liq faoliyatiga doir muayyan ilmiy ishlar amalga oshirilgan.

Xorijlik olimlarning, xususan, S.Lipset, R.Bendiks, P.Blau, O.Dunkan, B.Barber, J.Goldtorp, R.Erikson, M.Xout, K.Jevellining ishlarida[4] xotin-qizlarning ijtimoiy mobillik tendensiyalarida armiya, din va ta’lim kabi uch omilning ustuvor ekanligi tizimli tahlil etilgan, kasbiy harakatchanlik ko‘rsatkichlarini ishlab chiqdilar va harakatchanlikka ta’sir etuvchi omillarni ajratdilar[5] , ijtimoiy mobillik hodisasiga xotin-qizlarni hokimiyat qonuniyligini ta’minlovchi kuch sifatida yondashgan va tendensiya Lipset modeli asosida isbotlangan, ijtimoiy mobillik tendensiyalari qiyosiy tahlil qilinib, ijtimoiy kelib chiqish, ta’lim va kasbiy tayyorgarlikning bu jarayondagi o‘rni aniqlanib, ijtimoiy harakatlarning jamiyat ijtimoiy tuzilishi o‘zgarishiga ham ta’sir darajasi asoslangan[6].

Mustaqillik yillarida milliy demokratik taraqqiyot xususiyatlari, bozor iqtisodiyoti sharoitida xotin-qizlarni ijtimoiy munosabatlarga kengroq jalb etish hamda ularning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish masalalari Ya. Abdullayeva, D. Alimova, N. Jo‘rayeva, G. Matkarimova, N. M. Muravyova, O. Nishonova, F.Otaxo‘jayev, M. To‘xtaxo‘jayeva, R. Ubaydullayeva, S. Xodjayeva,

[4] Сорокин П.А. Социальная стратификация и мобильность // Сорокин П.А. Человек. Цивилизация. Общество. – Москва: Политиздат, 1992. – С. 295–425.

[5] Lipset S., Bendix R. Social mobility in industrial society. - London: William Heinemann Ltd., 1959; Social mobility in industrial society. - L.A.: University of California Press, 1967.

[6] Erikson R., Goldthorpe J. National variation in social fluidity // CASMIN project working paper. - 1986. - № 9; Hout M. Status, autonomy and training occupational mobility // American journal of sociology. - Vol. 89. - № 6. - Dec. 1984. - Pp. 1379-1409; Goldthorpe J., Jewellyn C. Class rtibbility and kinship. - Oxford: Nuffield college, 1977; Goldthorpe J. Social mobility and class structure in modern Britain. - Oxford: Clarendon Press, 1987.

M. Xolmatova, G. Tansiqboyeva, X. Shayxova, N. Saydaliyeva[7] kabi tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan.

Jamiyatda gender tengligi, ijtimoiy hayotda ayollar va erkak munosabatlarida farqlarning mavjudligi, erkaklar shovinizmining namoyon bo‘layotganligi, tarixiy-madaniy an’analarning ta’siri, shuningdek xotin-qizlarning farzandlari, oilasiga bog‘lanib yashashi singari masalalar V. Alimasov, S. Ahrorova, S. Safayeva, E. Sultonova[8] maxsus izlanishlarida muhokama etilgan.

Ijtimoiy mobillik nima? Bu, eng avvalo, jamiyatda muayyan shaxslar yoki ijtimoiy guruhlarning egallab turgan ijtimoiy mavqeidan yoki ijtimoiy hayotdagi mavjud pozitsiyasidan qoniqmasligi natijasida boshqa ijtimoiy guruh va tabaqalarga ko‘chib o‘tishlarini anglatadi. Bu ijtimoiy o‘zgarishlar yoki ijtimoiy harakatchanlik hisoblanib, ma’lum bir ijtimoiy tabaqa doirasida mashg‘ulotlarning o‘zaro almashuvini bildiradi.

Ijtimoiy mobillik hodisasiga ilmiy yondashuvni Abu Rayhon Beruniy «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» nomli asarida mufassal berilganini ko‘ramiz. Shuningdek, odamlar va xalqlarning turli iqtisodiy, siyosiy va intellektual omillar ta’sirida ijtimoiy maqom, til va kasbiy yo‘nalishlaridagi o‘zgarishlarni Alisher Navoiy, Bobur hamda Ogahiyning asarlarida yoritilgan. Ijtimoiy mobillikning zamonaviy ta’rifi XIX asr oxiri XX asr boshlarida falsafa faniga kirib keldi.

---

[7] Abdullayeva Ya. Qoraqalpog‘iston xotin-qizlari: kecha va bugun. – Toshkent: Ijod dunyosi, 2004; Alimova D. Jenskiy vopros v Sredney Azii. – Tashkent: Fan, 1991; Jo‘rayeva N.D. O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida xotin-qizlarning o‘rni (XX asrning 20-30-yillari). Tarix fan. d-ri ... diss. avtoref. – Toshkent: 2004; Маткаримова Г.А. Гендерные и репродуктивные права женщин в международном и национальном праве. Автореф. дис. ... д-ра юрид. наук. – Ташкент: 2002.; Nishonova O.J. O‘zbek ayollari etnomadaniyati: genezisi, xususiyatlari, muammolari: Falsafa fan. nomzodi. ... diss. avtoref. – Toshkent: 2005; Saydaliyeva N.Z. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-falsafiy muammolari: Falsafa fan. nomzodi. ... diss. avtoref. – Toshkent: 2005; Тохтахаджаева М. Утомлённые прошлым. Реисламизация общества и положение женщин в Узбекистане. – Ташкент: 2001. Ubaydullayeva R.A. O‘zbekiston: bozor munosabatlariga o‘tish sharoitida ayollar va mehnat // O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar. – Toshkent, 1995. – № 9. – B. 24–26; Ходжаева С.А. Правовая культура и проблемы развития социально-правовой активности женщин Республики Узбекистан. Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Ташкент: 2004. Xolmatova M., Muravyova N. Yoshlar oilaviy hayot bo‘sag‘asida. – Toshkent: O‘zbekiston, 2000; Shayxova X.A. O‘zbek ayoli – odob timsoli. – Toshkent: Falsafa va huquq instituti, 2007.

[8] Qarang: Alimasov V. Gender falsafasi. – Toshkent: Falsafa va huquq instituti, 2008; Sultonova E. Ayol – davlatning rivojlanish strategiyasida (global muammo sifatida). – Toshkent: JIDU, 2005; Safayeva S. Ayollar masalasi: umumijtimoiy va milliy jihatlar. – Toshkent: O‘zbekiston, 2003; Ahrorova S.A. O‘zbekistonda ayollar ijtimoiy faolligini oshirish omillari: Falsafa fan. nomz. ... dis. avtoref. – Toshkent, 2005.

Ma’lum bir ijtimoiy ko‘tarilish yoki ijtimoiy pasayish bilan bog‘liq individual belgilar intrageneratsion ijtimoiy mobillik bo‘ladi. Ijtimoiy mobil (o‘zgaruvchan)likda quyidagi miqdoriy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi koeffitsiyentlar hisobga olinadi: jinsi, ma’lumoti, «aqli rasolik koeffitsiyenti», millati, irqi, turar joyi, hamda salomatlik darajasi. Shularni aniqlash jarayonida ijtimoiy mobillik darajalari belgilanib, u yoki bu jamiyat «an’anaviy», «zamonaviy», «industrial», «postindustrial» va hokazolarga bo‘linadi[9].

P.Sorokin e’tirof etganidek, ijtimoiy mobillik – bu «individ yoki ijtimoiy obyekt (qadriyat), ya’ni inson faoliyati tomonidan yaratilgan va o‘zgartirilgan barcha narsalarning bir ijtimoiy pozitsiyadan boshqasiga o‘tishidir»[10]. Shu bilan birga ijtimoiy mobillik harakatchanlik subyektlari ijtimoiy rollarining o‘zgarishini nazarda tutadi.

Tadqiqotchi ijtimoiy mobillikning bir necha turlarini ishlab chiqqan bo‘lib, bular vertikal va gorizontal, yakka tartibdagi va guruhli mobilliklar hisoblanadi. Bu borada u turli xildagi ijtimoiy institutlarning individlar hamda ijtimoiy guruhlarning vertikal harakat qiladigan kanallar sifatidagi ahamiyatini ochib bergan. Shu bilan birga harakatchanlikning mutlaq va nisbiy hajmi, uning uzoqligi kabi tushunchalarni kiritgan. Bu bilan u, ijtimoiy mobillikning miqdoriy ko‘rsatkichlarini joriy etgan[11]. XX asrning ikkinchi yarmida ijtimoiy mobillik muammolarini tizimli o‘rganish asosan ikki yo‘nalishda olib borilgan.

Birinchi yo‘nalish ijtimoiy mobillikning turli konsepsiyalarini ishlab chiqishga qaratilgan. Unda an’anaviy va industrial jamiyatlarda ijtimoiy mobillik fenomenini nazariy jihatdan idrok etishga e’tibor qaratilgan. Bu konsepsiyalar jamiyat ijtimoiy tuzilishini o‘rganishga stratifikatsiya va sinfiy yondashuv nuqtai nazaridan ishlab chiqilgan.

---

[9] Сорокин П.А. Человек. Цивилизация. Общество. – М.: Политиздат, 1992. – С. 184.
[10] Qarang: O‘sha asarda. – S.373.
[11] Qarang: O‘sha asarda. – S. 374-424.

Ikkinchi yo‘nalish, mobillikni o‘lchash masalalariga e’tibor qaratib, unda miqdoriy va sifat metodikalari ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, instrumental vositalari belgilangan.

XX asr 50-60-yillarida jahon falsafasida ijtimoiy mobillik jarayonlarini tadqiq etishning ilg‘or yo‘nalishlari namoyon bo‘lib, ular asosiy e’tiborni ijtimoiy-kasbiy harakatchanlik, uning omillari, industrial jamiyat barqarorligiga ta’sirini tadqiq qilishdan iborat bo‘ldi. Jumladan, AQSH olimlari S.Lipset va R.Bendiksning tadqiqotlarida kasbiy harakatchanlikning ko‘rsatkichlarini quyidagicha ajragan:

a) «farzandlar» avlodining «otalar» avlodiga nisbatan «yollanma jismoniy mehnatdan – nojismoniy mehnatga va u bosqichdan mustaqil – fermerlik mehnati» chizig‘i bo‘ylab harakatlanishi;

b) nufuzli va nufuzsiz kasblarning avloddan avlodga o‘tishidagi evolyutsion o‘zgarishlarini baholash, bunda nufuzli kasblar deganda ko‘proq aqliy mehnat bilan bog‘liq bo‘lgan, nufuzsiz kasblar deganda – jismoniy mehnat bilan bog‘liq bo‘lgan kasblar tushunilishi;

v) o‘sib boruvchi, pasayib boruvchi va gorizontal hamda vertikal harakatchanlikning vaqt va davr kesimidagi jadallik darajasini aniqlash[12] .

S.Lipset ijtimoiy mobillikka individning bir holatdan boshqa holatga o‘tish jarayoni sifatida, «ko‘p hollarda bunday o‘zgarishlar bir emas, ko‘plab pozitsiyalarning o‘zgarishiga olib keladi» deb izohlaydi. «Ijtimoiy iyerarxiyaning boshqa pog‘onasiga ko‘tarilayotgan inson, odatda, o‘z yaqinlaridan uzoqlashadi, do‘stlarini almashtiradi, yangi tashkilotlarga qo‘shiladi, yashash joyini o‘zgartiradi. Ba’zan hatto o‘z e’tiqodini va ismini ham o‘zgartiradi. Ko‘pdan-ko‘p hollarda uning siyosiy qarashlari ham o‘zgaradi. Boshqacha qilib aytganda, o‘z kasbiy mavqeini oshirayotgan inson o‘z ijtimoiy mavqeini ham oshirishga intiladi. Shu bilan birga, ijtimoiy zinalarning pillapoyasida pasayib borayotgan inson fundamentalistik yoki konservativ pozitsiyada turib o‘z ijtimoiy pozitsiyasi va mavqeini saqlab qolishga

---

[12] Qarang: Lipset, S., Bendix R. Social mobility in industrial society. - London: William Heinemann Ltd., 1959. –P. 24-25.

intiladi»[13]. Uning fikricha, pozitsiyalarning o‘zaro muvofiqlik darajasi ijtimoiy mobillikning ilg‘or tavsifi bo‘lib xizmat qilishi mobillikni zamonaviy jamiyat barqarorligining muhim omili sifatida hisoblashga asos bo‘lgan.

Industrial jamiyatda o‘sib boruvchi mobillik pasayib boruvchi mobillikdan ustundir. Fikrimizcha, avlodlar ichidagi va avlodlararo vertikal mobillikning omillari quyidagilar hisoblanadi:

1. Industriallashuv oqibatida ish o‘rinlari tuzilishining o‘zgarishi. Vujudga kelayotgan kasblar ko‘proq tayyorgarlikni talab etadi, ularga yaxshiroq haq to‘lanadi va ular nufuzliroq hisobalanadi;
2. Tug‘ilish darajasining oilada farzandlar sonining tez sur’atlar bilan ko‘payishiga qarab o‘zgarishi, to‘liqsiz oilalarning ustunligi, ajrashish, boquvchini yo‘qotilishi va hokazalar;
3. Turli kasblar mavqeining o‘zgarishi. Iqtisodiyotning yanada o‘sishini ta’minlovchi malakali mehnatning nufuzi ortishi;
4. Avloddan avlodga o‘tuvchi nufuzli pozitsiyalar miqdoriing o‘zgarishi. Zamonaviy industrial jamiyatda insonning mavqei ijtimoiy pozitsiyalarining umumiy tavsifi sifatida meros qilinmay, ijtimoiy raqobatda erishilishi;
5. Hayotiy imkoniyatlarning formal tengligini belgilovchi siyosiy-huquqiy bazaning o‘zgarishi;
6. Individlarning irqqa, ma’lum bir millatga mansubligini asosida ijtimoiy kelib chiqishi, ota-ona yoki oilasining mavqei;
7. Katta yoki kichik shahar, qishloq joylarida yashash holati;
8. Ma’lumotlilik hamda xorijiy tillarni bilish darajasi.

G‘arb mamlakatlarida XX asrning 70-80-yillarida neomarksizm yondashuvi keng tarqaldi. Bu yondashuvga ko‘ra, ijtimoiy mobillik masalasida quyidagilarga e’tibor qaratilgan: mehnat bozoridagi munosabatlar, individlar va ijtimoiy guruhlarning mulkka, ishlab chiqarish vositalariga bo‘lgan munosabati, mehnatning

---

[13] Qarang: Трансформация социальной структуры и стратификации российского общества / Отв. ред. З.Т. Голенкова. – М.: ИС РАН, 1996. – С. 84–86.

avtonomiyasi, malakasi. O‘tgan asrning 80-yillari o‘rtalarida Buyuk Britaniyalik J.Goldtorp hamda shvetsiyalik R.Eriksonlar «Industrial mamlakatlarda ijtimoiy mobillikning qiyosiy tahlili» (CASMIN) loyihasini ishlab chiqdilar[14]. Bunda ular G‘arbiy va Sharqiy Yevropa mamlakatlaridagi harakatchanlik xarakteridagi o‘xshashlik hamda farqlarni tadqiq etganlar. Asosan, mazkur tadqiqot 9 mamlakatda amalga oshirilgan. Tadqiqot natijasida ular quyidagi muhim xulosalarga e’tibor qaratdilar:

1) XX asrning ikkinchi yarmida mutlaq harakatchanlikdagi o‘zgarish amplitudasi taxmin qilinganidek, 15-20 yil emas, balki 9-12 yil bo‘lib, ko‘pchilik tadqiqotchilar tomonidan ma’qullangan o‘zgarish muddati tezligi yuqoriroq darajada ekanligi ayon bo‘ldi;

2) ishchi sinfdan yuqori sinfga o‘tishda «yaqin» harakatchanlik bilan bir qatorda «uzoq» harakatchanlik ham mavjud;

3) oliy va oraliq sinflarning tarkibi taxmin qilinganidan ko‘ra ko‘p o‘zgarishlarga moyil ekanligi aniqlandi.

J.Goldtorp 1972 yilda Oksfordda o‘tkazgan tadqiqot ma’lumotlaridan foydalanib, bandlik tizimida ma’lum o‘zgarishlar ro‘y berganini ko‘rsatdi. Biroq u shu o‘zgarishlar ro‘y bermaganda ijtimoiy qatlamlar tuzilishi barqaror va yetarlicha yopiq bo‘lar edi, degan farazni ilgari surdi. AQSH va Yevropa ilmiy maktablari vakillari avlodlararo harakatchanlikning nafaqat tashqi jihatlari, balki ichki imkoniyatlari omillarini ham tahlil qildilar hamda avlodlardagi tengsizlikning meros bo‘lib o‘tishi muammosini o‘rgandi. Amerikalik olimlar E.Jekson va G.Kroket tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar natijalariga muvofiq AQSHda ikki avlod doirasida ijtimoiy mobillik ortganligi o‘rganildi. Tadqiqotga ko‘ra, 1957 yilda o‘g‘il farzandlar otalarining kasbini egallashi 1945 yilgi ko‘rsatkichdan kamaygan. O‘sib boruvchi harakatchanlik tendensiyasi kuzatilgan, biroq tadqiq etilganlarning 25% iyerarxiya pog‘onalaridan pastga tushgani qayd etilgan.

---

[14] Qarang: Erikson R., Goldthorpe J. National variation in social fluidity // CASMIN project working paper. - 1986. - № 9.-R.22.; Erikson R., Goldthorpe J. The Constant Flux. - Oxford: Clarendon Press, 1992. – P. 1-27.

Mualliflarning fikricha, yuqoriga qaratilgan harakatchanlik tuzilmaviy omillarga emas, ko‘proq ixtiyoriy harakatlanishlarga bog‘liq. Bu tendensiyalar keyinchalik AQSH, Yevropa va sobiq Ittifoq olimlarining tadqiqotlari bilan tasdiqlandi[15]. 80-yillarning ikkinchi yarmida tadqiqotchi olim T.Kolosha Vengriya davlatida o‘tkazgan tadqiqotlarda ko‘rsatganidek, «farzandlarning qanday mavqe guruhiga kirishi, bir-biridan mustaqil ravishda, ota-onalarning madaniy, ijtimoiy va moddiy mavqei bilan belgilanadi, bunda ota-onaning madaniy mavqei eng kuchli ta’sir ko‘rsatadi»[16].

Tadqiqotchi olimlar D.Gu hamda E. Moren Fransiyada jamiyatning eng yaxshi va loyiq vakillari tomonidan hokimiyatni boshqarish, ya’ni meritokratiya hamda ijtimoiy irsiyat masalalarini tadqiq qilib, XX asr ikkinchi yarmida jamiyat tarkibida alohida ijtimoiy kogortalarning kelib chiqishi, ularning ta’lim darajasi va ijtimoiy mavqeini tadqiq etib, ta’lim darajasi bir xil bo‘lgan, lekin kelib chiqishi har xil bo‘lgan shaxslarning ijtimoiy yutuqlari o‘rtasidagi tengsizlik ijtimoiy tizimdagi tengsizlik sifatida keng tarqalgan degan xulosaga keldilar. Tadqiqotchi olimlarning yakuniy xulosasi shundan iborat bo‘ldiki, insonning ijtimoiy kelib chiqishi ijtimoiy karyerani boshlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi, qolaversa, uning davomiyligini tizimlashda mazkur omilning ahamiyati kattadir[17] .

U.Syuell va R.Xauzer tomonidan ma’lumotlar tahlilining yo‘nalishli tahlil, regressiv va korellyatsion tahlil kabi usullarini harakatchanlikni tadqiq etish maqsadlariga moslashtirgan holda kasbiy harakatchanlikni tahlil qilish modeli taklif etilgan[18]. O‘tgan asrning 80-yillarida mazkur borada tadqiqotlar davom ettirildi. Bunday tadqiqot yo‘nalishlarida D.Treymer, R.Xodj, N.Tuma va boshqa olimlarning ishlari asosiy o‘rin egallaydi[19].

---

[15] Qarang: Аберкромби Н., Хиллс С., Тернер Б. Социологический словарь. – М.: Экономика, 2000. – С. 297.

[16] Qarang: Динамика социальной дифференциации / Ред.-сост. Е.П. Васильева. – М.: ИНИОН, 1990. – С. 153.

[17] Qarang: Goux D., Maurin Ye. Meritocracy and Social Heredity in France: Some Aspects and Trends // European Sociological Review. - Vol. 13. - №2. - September 1997. – P. 159-178.

[18] Qarang: Sewel W., Houser R. Education. Occupation and earning. - N.Y., 1975. – R. 55.

[19] Qarang: Treimar D. Occupational prestige in comparative perspective. - N.Y., 1977; Hodge R.W. Educational and Occupational mobility // The American journal of sociology. - 1963. - Jtifie. - №3. - Vol. 65. – Pp. 629-644.

Ijtimoiy tuzilish va stratifikatsiya, ijtimoiy mobillik va uning omillarini o‘rganish borasida bugungi zamonaviy G‘arb jamiyatida turli maktablar shakllangan. Bular ichida eng ahamiyatli yo‘nalishlardan biri bu Yevropa tadqiqot an’anasi va AQSH ga xos bo‘lgan ko‘p o‘lchamli stratifikatsiya yondashuvidir.

Sobiq Ittifoq davrida ishchi kuchining harakati va korxonalarda kadrlar oquvchanligiga bag‘ishlangan tadqiqotlar muhim o‘rin tutdi. 80-yillarda H.Aitov, M.Rutkevich, V.Staroverov, F.Filippov, O.Shkaratan[20]ning ishlarida sobiq Ittifoq jamiyatining sinfiy tuzilishini qayta tiklash muammolari tadqiq etilgan. Bunda ijtimoiy tuzilishning o‘zgarishi ma’lum bir sinfdagi mehnatkashlarning, ijtimoiy guruhlar va qatlamlarning boshqasiga o‘tishi bilan izohlangan. Bunday guruhdagi hodisalarga, eng avvalo, qishloqdan shaharga, shuningdek, aksincha shahardan qishloqga harakatlanish, xotin-qizlar ijtimoiy holatining ota-onalar holatiga nisbatan ancha o‘zgarishi va hokazolar kiritilgan.

Olimlarning ishlarida ijtimoiy harakatlanishlarni o‘rganishda yakka tartibdagi harakatchanlik tushunchasi, ya’ni «ijtimoiy tuzilishning bir «katagidan» boshqasiga o‘tishi», degan tushuncha qo‘llanishi mumkin.

Mehnat faoliyati bilan bog‘liq karyerani tahlil qilish, metodologiyani ishlab chiqish, shuningdek faoliyatni o‘zgartirish mexanizmlarini tadqiq etish borasida V.Verxovin, T.Zaslavskaya, V.Kalmik, R.Rivkina, V.Podmarkov[21]ning mehnat harakatchanligiga bag‘ishlangan ishlari muhim o‘rin tutdi. T.Zaslavskayaning fikricha, mehnat harakatchanigi deganda xalq xo‘jaligining alohida bo‘g‘inlarining ma’lum bir mutaxassisliklar va malakaga bo‘lgan ehtiyojlarini hamda ish o‘rni bilan

---

[20] Qarang: Аитов Н.А. Социальные проблемы текучести кадров // Социальные проблемы труда и производства / Под ред. Г.В. Осипова, Я. Щепанского. – М.: Мысль, 1969. – С. 226–250; Бляхман Л.З., Здравомыслов А.Г. Отношение к труду и текучесть кадров. – Новосибирск: Наука, 1969; Социальные проблемы производства / Под ред. В.Г. Подмаркова. – М.: Мысль, 1979. – С. 107; Шкаратан О.И. Движение рабочей силы на промышленных предприятиях. – М.: Экономика, 1965. – С. 96.

[21] Qarang: Верховин В.И. Социальная регуляция трудового поведения в производственной организации. – М.: Изд-во МГУ, 1991; Заславская Т.И. Трудовая мобильность как предмет экономико-социологического исследования // Методологические проблемы социологического исследования мобильности трудовых ресурсов / Под ред. Т.И. Заславской, Р.В. Рыбкиной. – Новосибирск, 1974. – С. 7–45; Калмык В.А. К программе исследования трудовой карьеры // Там же. – С. 208–248; Подмарков В.Г. Человек в трудовом коллективе. – М.: Экономика, 1982. – С. 82; Рывкина Р.В. К изучению социально-психологических аспектов трудовой мобильности // Методологические проблемы социологического исследования мобильности трудовых ресурсов / Под ред. Т.И. Заславской, Р.В. Рывкиной. – Новосибирск, 1974. – С. 79–107.

bevosita yoki bilvosita bog‘liq yakka tartibdagi ehtiyojlarni qondirish maqsadida ishchilarni qayta taqsimlash jarayonlarining yig‘indisi tushunilgan[22].

Ushbu davrga mansub tadqiqotlarda mehnat harakatchanligining obyektiv xarakteri alohida ta’kidlangan. Bunda iqtisodiy qonuniyatlar kengaytirilgan qayta tiklanish, ishlab chiqarishning darajasi, mehnat unumdorligining o‘sib borishi, mehnat taqsimoti hamda o‘zgarishi kabi qonuniyatlarning shakli sifatida tadqiq etilgan. Mehnat harakatchanligi bilan bog‘liq muammolarini bevosita tadqiq qilgan mualliflar, eng avvalo, uni ishchi kuchi harakatining o‘ziga xos shakli sifatida ko‘rib, ish yoki kasbni o‘zgartirishga bog‘liq hodisa sifatida ta’riflaganlar.

Bugungi kunda olimlar tomonidan mehnat harakatchanligini tizimlashtirish va tasniflash usullari ishlab chiqilgan. Tasniflash uchun ayrim mualliflar mehnat harakatchanligi manbalarini asos qilib olgan bo‘lsalar, boshqalari esa harakat sohalarini tanlagan. Ayni paytda, tadqiqotchilar tomonidan mehnat harakatchanligini tartibga solish usullarini takomillashtirish zarur ekani, bu muhim nazariy va amaliy vazifa ekani hamda mehnat harakatchanligiga xos bo‘lgan betartib jarayonlarni kamaytirishiga xizmat qilishi nazarda tutilgan.

Mehnat harakatchanligini tasniflash muammosiga vengriyalik Yu.Venige, Ye.Yoja va L.Dyetvai tadqiqotchilar ham murojaat qildi. Ular harakatchanlikning uchta asosiy turini ajratdi: demografik (jins-yosh dinamikasi), ijtimoiy (bir ijtimoiy guruhdan boshqasiga o‘tish), iqtisodiy (ish kuchining harakati). Har bir tur shakllarga bo‘linishi mumkin. Masalan, iqtisodiy harakatchanlikning asosiy shakllari tarmoq, kasbiy va hududiy harakatchanlikdir.

S.Kugelning fikricha mehnat harakatchanligiga ilmiy kadrlar harakatchanligi ham kiradi. U «olimlarning: a) kasbini (mutaxassisligi, ixtisoslashuvi), b) malakasi, v) lavozimi, g) ish joyi va hokazolarni o‘zgartirishida namoyon bo‘ladi.

---

[22] Qarang: Заславская Т.И. Трудовая мобильность как предмет экономико-социологического исследования // Методологические проблемы социологического исследования мобильности трудовых ресурсов / Под ред. Т.И. Заславской, Р.В. Рывкиной. – Новосибирск, 1974. – С. 3.

Harakatchanlikning subyekti alohida olim yoki butun ilmiy jamoa (ilmiy guruh, laboratoriya, institut va h.) bo‘lishi ham mumkin»[23].

Ijtimoiy mobillik tushunchasi va uning omillarini tahlil qilishda tadqiqotchi olimlar V.Boyko va N.Vasilyevning tadqiqotlari asosiy o‘rin egallaydi. Olimlar ijtimoiy mobillikni falsafiy tushuncha sifatida ko‘rib chiqqanlar. Buneda uni ijtimoiy guruhlarning jamiyat tuzilishida harakatchanligi sifatida tadqiq etganlar[24]. Tadqiqotchilar bu masalada ijtimoiy-kasbiy harakatchanlikning 2 ta asosiy omillarini, ya’ni obyektiv va subyektiv omillarini ajratganlar. Obyektiv omillarga tabiiy-iqlim, tarixiy taraqqiyot davomida shakllangan tafovutlar, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi, ta’lim, yoshni kiritganlar. Subyektiv omillarga qadriyatlar, munosabatlar, ehtiyojlar kiritilgan.

Tadqiqotchi olimlar P.Udalov va Ye.Grajdannikov tomonidan ijtimoiy jarayonlarni tahlil etish bo‘yicha tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bunda ular «ijtimoiy mobillik» va «statusli birikuv» tushunchalariga alohida e’tibor qaratganlar.

XX asrning 70-yillarida xotin-qizlar avlod ichidagi va avlodlararo ijtimoiy mobilligi bo‘yicha keng miqyosli tadqiqotlar o‘tkazildi. Ushbu tadqiqotlarning natijalari A.Kirx, A.Matulenis, E.Saar, M.Titma, V.Shubkin va boshqalarning ishlarida umumlashtirilgan[25].

«Hamma narsa yashaydi, hamma narsa o‘zgaradi» falsafiy konsepsiyasiga ko‘ra, ijtimoiy harakatchanlikni anglash ham to‘xtamas va ortga qaytmas jarayon hisoblanadi. P.Sorokinning «klassik» nazariyasi, albatta, o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Ijtimoiy harakatchanlik tushunchasi XX asrning birinchi yarmida P.Sorokin tomonidan ijtimoiy tabaqalanish tushunchasi bilan bir vaqtda ilmiy muomalaga

---

[23] Qarang: Кугель С.А. Профессиональная мобильность в науке. – М.: Мысль, 1983. – С. 36.

[24] Qarang: Бойко В.И., Васильев Н.В. Социально-профессиональная мобильность эвенов и эвенков Якутии. – Новосибирск: Наука, 1981. – С. 19–21.

[25] Qarang: Жизненные пути одного поколения / Отв. ред. М.Х. Титма. – М.: Наука, 1992. – С. 34; Кирх А.Б. Опыт измерения межгенерационной мобильности молодёжи // Социологические исследования. – 1984. – № 4. – С. 108–110; Матуленис А.А. Включение молодёжи в социальную структуру. – Вильнюс: Минтае, 1983. – С. 63; Титма М.Х., Саар Э.А. Молодое поколение. – М.: Мысль, 1986. – С. 95; Трудящаяся молодёжь: образование, профессия, мобильность / Отв. ред. В.Н. Шубкин. – М.: Наука, 1984. – С. 76; Чередниченко Г.А., Шубкин В.Н. Молодёжь вступает в жизнь. – М.: Мысль, 1985. – С. 36.

kiritildi. U ijtimoiy harakatchanlikni ijtimoiy makon ichidagi shaxslarning harakati sifatida belgilaydi[26].

Ijtimoiy makon xususida fikr bildirganda, tadqiqotchi uni «yerda yashovchi insonlardan tashkil topgan ma'lum bir koinot» sifatida ta'riflaydi. Inson zoti bo‘lmagan yoki faqat bittagina odam bo‘lgan joyda ijtimoiy makon mavjud bo‘la olmaydi[27]. Shu tariqa, ijtimoiy makon «jamiyat» tushunchasiga muvofiq keladi. Bugungi zamonaviy dunyoda «jamiyat» atamasi shubha ostiga qo‘yiladi Buning sababi shundaki, u modern davrida yaratilgandir. An'anaviy talqinda Postmodern paradigmada ishlatilishi to‘g‘ri emas. Tadqiqotchi olim A.Turen «jamiyatsiz sotsiallik» g‘oyasini ilgari surgan. Uning fikricha, jamiyat g‘oyasini keltirib chiqargan sharoitlar endi mavjud emas. Shu sababli, atamaning o‘zi ham mavjud bo‘lmasligi lozim. Bunday holatda jamiyatshunoslikning o‘zi yangi mavzu va obyektni izlab topishi kerak. Ta'kidlash joizki, tadqiqotchining o‘zi obyektning subyektga murojaat qilish institutsional shakllarini va uning ehtiyojlarini hurmat qilishni guruh manfaatlarining tajovuzkor shakllarida ko‘radi. Xususan, ijtimoiy, siyosiy, madaniy va avtonom hayotning barcha shakllarini buza oladigan bozor iqtisodiyoti sharoitida tinchlik va ijod zonasini yaratishga imkon beradigan vaziyatlarni o‘rganishda ko‘radi[28]. Ba'zi bir radikal olimlar «jamiyat» atamasining «fazoviy» talqiniga o‘tishni afzal ko‘rmoqdalar. M.Kastelsa asarlarida jamiyatni tarmoq maydoni sifatida talqin qilish holatlari uchraydi. Uning fikricha, jamiyatda sodir bo‘layotgan barcha muhim jarayonlar tobora tarmoqlar prinsipi asosida tashkil etilmoqda. Bunda Internet maydoni katta rol o‘ynaydi[29]. Shunday qilib, jamiyat emas, balki makon orqali harakatchanlikni aniqlashga yondashuv ushbu asar muallifini yaxshi g‘oya deb biladi.

---

26 Сорокин П. А. [пер. с англ. М. В. Соколовой] Социальная мобильность: монография. Москва: Academia, 2005. 588 с.

27 Сорокин П. А. [пер. с англ. М. В. Соколовой] Социальная мобильность: монография. Москва: Academia, 2005. 588 с.

28 Турен А. Социология без общества // Социологические исследования. 2004. № 7. С. 6–11.

29 Кастельс М. Становление общества сетевых структур: антология. Москва: Academia, 1999. С. 492–505.

Ijtimoiy makon heterojendir. Uning barcha elementlari bir-biriga nisbatan taqsimlanadi. Shunday qilib, ularning ba'zilari taxminan bir xil darajada, boshqalari esa balandroq yoki pastroq. P.Sorokin ma'lum bir odamlar populyatsiyasini iyerarxik bo'ysunadigan sinflarga ajratish jarayonini ijtimoiy tabaqalanish deb ataydi va har qanday guruh u yoki bu darajada tabaqalanganligini isbotlaydi. Sorokin, o'z navbatida, ijtimoiy tabaqalanishning bir necha shakllarini tan oladi. Biroq, ularni uchta asosiy shaklga tushiradi. Bular iqtisodiy, siyosiy va professional shakllardir. Uningcha, ijtimoiy tabaqalanishning boshqa ko'p shakllari oxir-oqibat ulardan biriga kiritilishi mumkin[30]. Albatta, bunday pasayish bugungi zamonaviy jamiyatga deyarli mos emas. Ta'kidlash joizki, postmodern jamiyatning murakkabligi hamda dinamikasi tabaqalanish uchun bir nechta asoslarni taqdim etadi. Endilikda ularni yuqoridagi uchta narsadan biri sifatida aniqlab olish mumkin bo'lmaydi. Postmodern asarlarida jamiyatning tabaqalanishiga zamonaviy qarash masalalari o'z aksini topgan.

Bularda ijtimoiy makon insonlarni ramziy va jismoniy jihatdan birlashtiradigan, shuningdek ajratadigan munosabatlar yig'indisi sifatida nazarda tutiladi. Ramziy bo'linishga ko'ra, etnik, diniy, kasbiy va boshqa turdagi jamoalar vakillari hayoti turli mintaqalarda, tumanlarda, mahallalarda, binolarda va hokazolarda to'planganida jismoniy bo'linishga sabab bo'ladi. Natijada ijtimoiy makonda amaliyotning maxsus sohalari - maydonlar shakllanib boradi[31]. Shu tariqa, Sorokin tabaqalanish turlari deb atagan narsani tadqiqotchi P.Burdiyer o'z asarlarida maydonlar deb ta'riflaydi. Uningcha, har bitta maydon ichida yuqori lavozimlarni egallash uchun kurash boradi va buning natijasida katta miqdordagi kapitalga ega bo'lganlar g'olib bo'ladi. Moddiy resurs, ya'ni iqtisodiy kapitaldan tashqari, muvaffaqiyatga erishish borasida eng asosiy hisoblangan ta'lim, ya'ni madaniy kapital zarur bo'ladi. Shu bilan birga ijtimoiy kapital kerak bo'ladi.

---

30 Сорокин П. А. [пер. с англ. М. В. Соколовой] Социальная мобильность: монография. Москва: Academia, 2005. 588 с.

31 Иванов Д. В. Социология: теория и история: учеб. пособие. Санкт-Петербург, 2006. 160 с.

Buyuk Britaniyalik olim J.Urri o‘zining tadqiqotlarida ijtimoiy kapitalning muhim ekanligini e’tirof etadi. Shu bilan birga, uningcha, kapitalning yana bir turi bu tarmoqdir. Tadqiqotchi buni geografik makonda bo‘lishi shart emas deb ta’kidlaydi. U munosabatlar natijasida foyda ko‘radigan insonlar bilan ijtimoiy munosabatlarni yaratish hamda qo‘llab-quvvatlash qobiliyati sifatida ta’riflaydi.

Sovet tuzumining fuqarolari uchun aynan shunday atamalar ijtimoiy mavqe xususida gap ketganda, hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Bungungi kunda sovetlar mamlakati o‘ttiz yildan ortiq vaqtdan beri mavjud emas. Biroq shu tuzumda yashaganlarning aksariyatida o‘sha davrda shakllangan ijtimoiy-madaniy xulq-atvor shakllari ustunlik qiladi, qolaversa, hali hanuzgacha amalda qo‘llanilib kelinmoqda.

Sovetlar tuzumi davrida ijtimoiy tabaqalanishni odamlar ongida sovet jamiyatiga a’zolikni shakllantirish orqali yengishga harakat qilingan. Zamonaviy dunyoda esa, sinfsizlik g‘oyasi ularning mansubligini u yoki bu ijtimoiy qatlamga mansubligi bo‘yicha anglashga aylandi. Albatta, mazkur o‘zgarishlar iste’mol jamiyatining rivojlanishiga imkon berdi. Iste’mol jamiyatining madaniyati, o‘z navbatida, barcha ijtimoiy jarayonlarga, shu jumladan tabaqalanish va harakatchanlik jarayonlariga ham o‘z ta’sirini sezilarli darajada namoyon etdi.

Tadqiqotchi olim G.Markuze iste’mol jamiyatining rivojlanishi jarayonida «bir o‘lchovli odam»ning shakllanishi namoyon bo‘lishini qayd etadi[32]. U bu yoki boshqa narsalarga ega bo‘lish, xuddi shunday narsalarga ega bo‘lgan odamlar qatlamiga, hatto undan ham yaxshi sifatga ega bo‘lishi bu iste’mol jamiyati ta’siri ostida bo‘ladi, degan fikrni ilgari surdi. Uningcha, soxta ehtiyojlarni majburlash hamma uchun bir xil oqibatlarga olib keladi. Ijtimoiy ishlab chiqarish ularni mamnuniyat bilan qondirishga tayyor ekanligini ta’kidlaydi. Shu tariqa, qaysidir bir ma’noda, ijtimoiy ongdagi sinflar o‘rtasidagi bo‘linishlar o‘chirib yuboriladi. Arzon smartfon egasi o‘z pozitsiyasini qimmatroq gadjetlarga ega bo‘lganlarga qaraganda ancha past deb hisoblash uchun hech qanday sabab yo‘q. Uning fikriga ko‘ra,

---

[32] Маркузе Г. Эрос и цивилизация: монография [пер. с англ., послесл. А. Юдина]. Москва: ООО «Издательство АСТ», 2002. 526 с.

narsaga ega bo‘lish haqiqati uni allaqachon yuqori qatlam vakillari bilan tenglashtiradi.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, iqtisodiy tabaqalanish nuqtai nazaridan iPhone yoki Samsungning so‘nggi modeliga ega bo‘lganlarni hamda arzon smartfonlarga ega bo‘lganlarni aniqlashning hech qanday obyektiv asoslari mavjud emas. Shu tariqa, iste’mol jamiyati faqatgina tenglik illyuziyasini belgilaydi. Shu bilan birga psevdomobillik deb ta’riflanishi mumkin bo‘lgan narsalarga sezilarli tarzda o‘z hissasini qo‘shadi[33].

Tadqiqotchi olim Sorokin ijtimoiy makon natijasida harakatchanlikni aniqlash bilan birga unga keng ma’noda ta’rif beradi. Bu «bir ijtimoiy pozitsiyadan ikkinchisiga faoliyat natijasida o‘tgan yoki o‘zgartirilgan shaxs, ijtimoiy obyekt yoki qiymatning har qanday o‘tishini ifodalaydi». Olim ijtimoiy makonning ikki o‘lchovi asosida, ikki turni aniqladi. Bular vertikal (yuqoriga va pastga) hamda gorizontal harakatchanlikdir. Shu bilan birga ikki tur - individual va guruh hisoblanadi[34].

Vertikal turga psevdomobillik tushunchasi tegishli bo‘lib, mazkur asarning muallifi nuqtai nazariga ko‘ra, bir ijtimoiy pozitsiyadan ikkinchisiga qisman yoki to‘la o‘tish hisoblanadi. Psevdomobillik yuqori sinfning tashqi atributlarini yetarli obyektiv shartlarsiz nusxalashda namoyon bo‘ladi.

Muallif bergan atamaga ko‘ra, fragmentar harakatchanlik yoki psevdomobillik fenomenining mavjudligi bir qancha sabablarga ko‘ra, ta’riflanishi mumkin.

Birinchidan, muammo shundan iboratki, jamiyatda teng imkoniyatlarga qaratilgan shiorlar orqali faol ravishda efirga uzatiladigan ijtimoiy ko‘tarilishlarni amalga oshirishga qaratilgan munosabatlar bilan juda ko‘p shaxslar murakkab vaziyatlarga duch kelishadi. Taniqli fransuz sotsiologi J.Bodrillard o‘z tadqiqotlarida zamonaviy jamiyatda vertikal yo‘nalishdagi haqiqiy harakatlarni tavsiflagan holda

---

[33] Черныш М. Ф. Социальные институты и мобильность в трансформирующемся обществе: монография. Москва: Гардарики, 2005. 253 с.

[34] Сорокин П. А. [пер. с англ. М. В. Соколовой] Социальная мобильность: монография. Москва: Academia, 2005. 588 с.

shunday yozadi: «Ba’zi oddiy istisnolardan tashqari, ijtimoiy trayektoriya juda qisqa namoyon bo‘ladi, ijtimoiy inertlik o‘ta sezilarli tarzda, har doim regressiya uchun imkoniyat yaratadi»[35].

Ikkinchidan, mazkur maqomning tashqi ramziyligini uning ichki tarkibidan ustun qo‘yish hodisasi mavjud bo‘lib, u zamonaviy jamiyatda «narsalarga sig‘inish» sifatida tadlqin etiladi[36]. O‘zining mag‘lubiyatini ijtimoiy yuksalish jarayonida ko‘rgan shaxs, eng avvalo, boshqa shaxsning muvaffaqiyatini tashqi tomondan namoyish etadigan ba’zi narsalar bilan taqqoslashga urinadi. Bu borada J.Bodriyar shunday yozadi: «mavzular, ularning sintaksisi va ritorikasi muayyan ijtimoiy maqsadlar va ijtimoiy mantiqqa ishora qiladi. Shuning uchun ular o‘zlarining foydalanuvchilari va texnik amaliyotlari haqida emas, balki ijtimoiy da’volar haqida gapirishadi...»[37].

Shu tariqa, o‘zaro bog‘liq bo‘lgan uch hodisa psevdomobillik, ya’ni parchalanuvchi harakatchanlik hodisasini quyidagicha tushuntiradi: ularning birinchisi, ijtimoiy yuksalishga nisbatan mavjud bo‘lgan umidlar, ikkinchisi, maqomning tashqi ramziyligining uning ichki mazmunidan bevosita ustunligi, uchinchisi, zamonaviy iste’mol jamiyatida «narsalarga sig‘inish»ning mavjud ekanligi.

Ta’kidlash joizki, zamonaviy jamiyatning yuqorida tilga olingan xususiyatlaridan tashqari, harakatchanlikning tuzilishiga, o‘z navbatida, uning murakkablashuvi sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotchi olim J. Urri 2011 yilda Shvetsariyaning Jeneva shahrida bo‘lib o‘tgan Yevropa sotsiologik assotsiatsiyasining X konferensiyasi yalpi sessiyasidagi ma’ruzasida bu masalada uchta yangi burilishni taklif qiladi. Bular murakkablik, harakatchanlik va resurslarni

---

[35] Бурдье П. Формы капитала // Экономическая социология. 2002. № 5. С. 60–74.

[36] Черныш М. Ф. Социальные институты и мобильность в трансформирующемся обществе: монография. Москва: Гардарики, 2005. 253 с.

[37] Бодрийяр Ж. К критике политической экономии знака: монография [пер. с франц. Д. Ю. Кралечкина]. Москва: Академический Проект, 2007. 335 с.

aylantirishdir. Tadqiqotchi rus olimi S.A.Kravchenko burilish zarurligini keltirib chiqaradigan quyidagi 3 ta tendensiyalarni belgilaydi[38]:

1. «Global tartibsizlik» hamda murakkablikka o‘tish jarayoni».
2. «Ma’lum bir jamiyatlardan tashqarida mavjud bo‘lgan global tarmoqlarning shakllanish jarayoni».
3. «Makon va vaqt kabi fundamental tushunchalarni o‘zgartira oladigan texnologik, tashkiliy, kommunikativ innovatsiyalar».

Ta’kidlash joizki, mutlaqo boshqa bir sharoitda ishlab chiqilgan P.Sorokinning ijtimoiy harakatchanlik nazariyasi, o‘z navbatida, J.Sorokinning harakatchanlik paradigmasidan bevosita farq qiladi. Tadqiqotchi olim Urri fikricha, mobil burilish yondashuvi dolzarb bo‘lib qolmoqda.

J.Urri harakatchanlikning o‘zgarishini barcha ijtimoiy shakllanishlar doimiy harakatda bo‘lishidan kelib chiqadigan fikrlashning yangi turi sifatida belgilaydi[39]. Ushbu burilish doirasida olim diqqatni harakatchanlikni o‘rganishga yo‘naltirishni taklif qiladi. Mobillik, nuqtai nazardan olim, - makon va vaqtdagi ijtimoiy munosabatlar bilan bog‘liq holda haqiqiy va potensial harakatlar[40]. Olim o‘zaro bog‘liq harakatchanlikning besh turini aniqlaydi:

1. Odamlarning tana harakatlari.
2. Obyektlarning jismoniy harakatlari.
3. Turli xil bosma yoki vizual saqlash vositalari orqali amalga oshiriladigan xayoliy sayohatlar.
4. Virtual harakatlar (ko‘pincha Real vaqtda).
5. Aloqa sayohatlari (aloqa vositalaridan foydalangan holda)[41].

---

[38] Кравченко С. А. Становление сложного общества: к обоснованию гуманистической теории сложности: монография. Москва: МГИМО-Университет. 2012. 306 с.
[39] Кравченко С. А. Становление сложного общества: к обоснованию гуманистической теории сложности: монография. Москва: МГИМО-Университет. 2012. 306 с.
[40] Урри Дж. Мобильности //Мониторинг общественного мнения: экономические и социальные перемены. 2012. №. 5 (111). С. 197-252.
[41] Урри Дж. Мобильности //Мониторинг общественного мнения: экономические и социальные перемены. 2012. №. 5 (111). С. 197-252.

P.Sorokin umuman olganda, harakatchanlikni ijtimoiy tuzilmani o‘zgartirish vositasi deb bilsa, J.Urri harakatchanlikni keng qamrovli tizim deb biladi va uni o‘z konsepsiyasining boshida qo‘yadi. Ikkinchidan, P.Sorokin harakatchanlikni haqiqat deb biladi va «A» pozitsiyasi va «B» pozitsiyasi o‘rtasidagi farqlarni tahlil qiladi. J.Urri, aksincha, harakatchanlikni protsessual tarzda ko‘rib chiqadi va harakat jarayonlarining jamiyatga ta’sirini qayd etadi. Uchinchidan, P.Sorokin vertikal harakatchanlikni o‘rganishga ko‘proq jalb qilingan. Bu o‘rinda J.Urri Sorokin nazariyasida o‘z aksini topgan gorizontal harakatchanlik deb ataladigan narsani to‘liq o‘rganib chiqqan.

Davlatlar tomonidan deyarli to‘liq nazorat qilinmaydigan odamlar, pullar, ma’lumotlar, bilimlar, xatarlar oqimlar deb ta’riflanib, ular ko‘rinishidagi harakatchanlik mavjud. Shu bilan birga, hozirgi kundagi zamonaviy «mobil» dunyoda insonning harakatlanish qobiliyati («harakatlanish huquqi») juda muhim hisoblanadi. Mazkur imkoniyatlarning mavjud emasligi insonning imkoniyatlarini ma’lum darajada cheklab qo‘yadi. Shu tariqa, ko‘chirish va aloqa vositalaridan foydalanish ijtimoiy tabaqalanish uchun yangi asos sifatida xizmat qiladi[42].

Kirish konsepsiyasi yuqorida tavsiflangan tarmoq kapitali tushunchasiga asoslanadi.

Tadqiqotchi P.Sorokin vertikal harakatlarni ko‘p tadqiq qilinganligini e’tirof etgan holda, J.Urri xulosa chiqarib, bu ikkala atamaning birgalikda vertikal va gorizontal yo‘nalishlarda ijtimoiy harakatlar sodir etadigan vositalarni tavsiflaydi. Xulosa shuki, jamiyat strukturasida sodir bo‘lgan hamda davom etayotgan barcha o‘zgarishlar harakatchanlikning yangi bir turlarining paydo bo‘lishi va harakatchanlik tizimlarining shakllanishiga olib keladi. Natijani haqiqiy baholash, harakatchanlik jarayonlarini baholab borish, paydo bo‘lgan yangi tengsizliklar P.Sorokinning ijtimoiy harakatchanlikka bergan ta’rifiga mos keladi.

---

[42] Кравченко С. А. Становление сложного общества: к обоснованию гуманистической теории сложности: монография. Москва: МГИМО-Университет. 2012. 306 с.

Xulosa sifatida ta’kidlash joizki, bugungi kunda xotin-qizlar ijtimoiy mobillik muammolarini tahlil qilish ko‘p hollarda hududiy ma’lumotlarga tayanadi. Ularning ijtimoiy-kasbiy harakatchanligini, mehnat bozoridagi holatini, islohotlar davrida xotin-qizlarning ijtimoiy mavqeining o‘zgarib borishini tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

1.2. Ijtimoiy mobillik nazariyasiga yondashuvlarning tarixiy tahlili

O‘rta asr Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy mobillikka oid ijtimoiy qarashlariga G‘arb olimlarining ijtimoiy qarashlaridan tubdan farq qiladi. Bu o‘rinda qadimgi Sharq kishisi uchun ijtimoiy mobillik bu, eng avvalo, o‘zlikni anglash, ma’naviy komillikka erishish yo‘lida moddiy manafaatdorlikdan voz kechishdan iboratdir. Bunda tashqi dunyodan olish emas, ma’naviy komillikka intilish harakatlariga e’tibor qaratiladi[43].

Sharq kishisi uchun individualizmga berilish doim «halokat», jamoaning bir bo‘lagi bo‘lish esa, «sokinlik» va «bexavotirlik» omili bo‘lib kelgan. Jamoada o‘zaro xamjihatlikni ta’minlash ehtiyoji, o‘z navbatida, Sharqda qadimdan davlatchilik tizimlarini tarkib topishiga olib keldi. Shu bilan birga, Sharqda geosiyosiy jarayonlar, ob-havo, suv muammolarining keskinlashib borishi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining faqatgina sug‘orish vositasi asosida yetishtirilishi, suv resurslarini saqlash, ulardan maqsadli foydalanish masalalari ma’lum bir markazlashgan idora tizimlarini tarkib topishi hamda boshqarish zaruratini kelib chiqishiga asosiy omil bo‘lgan. Bular, o‘z navbatida, eramizdan oldingi III ming yillik o‘rtalaridan boshlab, Misr, Hindiston, Mesopotamiya, Xitoy va Mavarounnahrda davlatchilikning mustahkam an’analari paydo bo‘lishiga olib kelgan[44].

---

[43] Qarang: Bekmurodov M.B. Zamonaviy boshqaruv falsafasi. – Tashkent: Yoshlar NU. 2020. – B.9.

[44] Qarang: Арипов М.К. Социальная утопия как течение общественно-философской мысли в Средней Азии. – Ташкент: 1989. – С.55.

Sharq ijtimoiy hayotida ijtimoiy mobillikning amalga oshirilishi o‘ziga xos kechgan. Bu o‘ziga xoslik quyidagi jihatlarni qamrab olgan:

– O‘troq hayot sharoitini ustuvor bilish tendensiyasi;

– Shaxs va ijtimoiy guruhlar mavqeini gorizontal takomillashtirish, bunda vertikallik inobatga olinmaydi;

– Mobillik jarayonining alohida ijtimoiy qatlamlar mavqeiga ega toifa vakillari, ya’ni darveshlar, qalandarlar, sayidlar, eshonlar va zohidlar tomonidan amalga oshirilishini qo‘llash;

– Mobillikning islom dini qoidalari asosida haj va umraning amalga oshirilishi, lavozim va status doirasida rivojlanishi hamda egallab turgan maqomi va mavqeini yuksaltirish omillarini e’tiborga oladi.

Ijtimoiy mobillik diniy e’tiqod omiliga ko‘p jihatlari bilan bog‘liqdir. Odamlarni ma’naviy birlashtirish, ularning ijtimoiy hamjihatligini ta’minlash muammosi ko‘pxudolik, fitishizm muhitida samaradorligini topish ma’qul edi. Ana shunday muhitda yakkaxudolik asosida diniy ta’limot – Zardushtiylik yuzaga keldi. Bu ta’limotga amal qilish natijasida «Ezgu fikr», «Ezgu so‘z», «Ezgu amal»ga rioya qilish asosida yashash tartiboti Sharq xalqlari ma’naviyatidan o‘rin oldi. Ushbu ta’limotning asoschisi Spitamalik Purishasp o‘g‘li Zardusht bo‘lib, u ta’limotini jamiyatda yashovchi har qanday sinf vakillari orasida qo‘rqmasdan tarqatib, maqsadi va maslagi to‘g‘riligini isbotlay olgan. Beruniyning guvohlik berishicha, Zardusht makedoniyalik Aleksandrning O‘rta Osiyoga kelishidan 258 yil oldin dunyoga kelgan[45].

Zardushtiylikning muqaddas kitobi hisoblangan Avesto O‘rta Osiyo xalqlarining islomgacha bo‘lgan davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, diniy qarashlari, olam xususidagi tasavvurlari, urf-odatlari, ma’naviy madaniyatini tadqiq etishda muhim va yagona manba hisoblanadi[46].

---

[45] Qarang: Beruniy. Tanlangan asarlar. 1-jild. – Toshkent: Fan, 1968. – B.207.
[46] Qarang: Asqar Mahkam. Avesto. – Toshkent: Sharq, 2001. – B.72.

Zardushtiylik ta’limotidan ko‘rinib turibdiki, Sharqda qadimdan oila muqaddas hisoblangan. Uni mustahkamlab, darz ketishining oldi olingan. Bunda aholining ko‘payishiga juda katta ahamiyat qaratilgan. Qasddan erga chiqmaydigan qiz qopga solinib 50 darra urilgan. Qasddan uylanmagan yigitga ham 50 darra urilgan va beliga temir kamar bog‘lab yurish buyurilgan. Uch kunlik muddatda oiladan chetga chiqishga faqatgina mahallaning kayvonasi orqali ruxsat olingan. Hukmdor yoki hudud hokimi buyrug‘i bilan bir oy va undan ko‘p vaqtga oiladan uzoqlashish rasmiylashtirilgan. Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini hisoblanganligi uchun oila masalasi hamma vaqt zardushtiylikning diqqat markazida bo‘lgan[47].

Shunday qilib, oila va nikoh doirasida ijtimoiy mobillik juda qattiq tartibga solingan. Mazkur g‘oya dastlab falsafiy, siyosiy va boshqa fanlarda ijtimoiy qarashlarning vujudga kelishida, keyinchalik esa, ijtimoiy mobillik nazariyasi uchun ilmiy asos sifatida xizmat qilgan, deb hisoblaymiz.

Xitoyda eramizdan avvalgi VI asr atrofida yashagan Kung Futse Qadimgi Xitoy qo‘lyozmalarini o‘rgangan, ulardan olijanob shaxsni kamol toptirishda zarur deb hisoblangan g‘oyalarni tavsiflagan. Keyinchalik bu g‘oyalarni jamiyatning barcha qatlamlar, ya’ni hukumdorlardan tortib oddiy odamlargacha maslahat so‘rab kelganlar orasida targ‘ib qilgan. U 2400 yil ilgari asoslab ketgan tamoyillar hozir ham mukammal hisoblanadi[48].

Konfutsiy ta’limotida jamiyatdagi shaxslararo munosabatlarning qonunlarini ko‘rish mumkin. Unda jamiyatdagi mavjud tabaqalar va undagi shaxs mavqeini belgilashi uchun, birinchidan, jamiyatdagi mavjud qoidalar asosida, ikkinchidan, o‘zida insoniy fazilatlarini shakllantirish va mukammallashtirish orqali ilm-fanni egallash hamda shaxsiy mehnati orqali erishishi mumkin. Albatta, bu g‘oyalarda ham ijtimoiy mobillik nazariyasidagi maktab va mehnat pillapoyasi orqali vertikal mobillikning tarkibiy elimentlarini kuzatish mumkin.

Ta’kidlash joizki, Mavarounnahrda jamoatchilik fikri tarixini tadqiq qilishda Abu Mansur al-Moturidiyning o‘rni beqiyosdir. Islomda sunniylik asosidagi katta

---

[47] Qarang: Hasanov S. Avesto - huquq manbai. – Toshkent: Muloqot, 1999. – B.41.
[48] Qarang: История социологических учений, Древний Восток. – М: АН СССР, 1950. – С. 225.

yo‘nalishni tashkil qiluvchi Moturidiya maktabi asoschisi Abu Mansur al-Moturidiyning «Kitab at Tavhid», «Kitab al maqomat» va «Kitab raddul avomil lil adla va lil kabiy»[49] asarlariga faqat dinshunoslik nuqtai nazaridan emas, shu bilan birga jamiyat, jamoa, ijtimoiy jarayonlar va shaxs xususidagi ta’limot sifatida yondashish lozim. Ularni Mavarounnahr xalqlarining turmush tarzi, mentalitetiga mos keladigan g‘oyaviy, yakdil e’tiqodga undovchi yaxlit ilmiy falsafiy konsepsiya sifatida baho berish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Al-Moturidiy qarashlarini oqilona me’yor, inson sha’ni, shaxsning jamiyatda egallagan mavqei to‘g‘risidagi dastlabki falsafiy ta’rif, deb baholash mumkin. Al-Moturidiyning asarlaridagi shaxs e’tiqod orqali jamiyatdagi o‘z ijtimoiy mavqeini o‘zgartirishi mumkinligi ham hozirgi zamonaviy falsafada ijtimoiy mobillik nuqtai nazaridan asos sifatida olish mumkin.

Al-Moturidiy inson o‘z ijtimoiy maqomini o‘zgartirishda ijtimoiy mobillik kanallarini ixtiyoriy tarzda tanlash imkoniyati jamiyatga qarshi yo‘naltirilmasligi, shuningdek inson davlat oldida mas’ul bo‘lgani singari, davlat ham shaxs oldida mas’ul bo‘lishini bevosita nazariy jihatdan asoslaydi.

Fikrimizcha, Al-Moturidiyning ijtimoiy qarashlarida jamoatchilik fikrini o‘rganish va e’tiqod masalasida ijtimoiy mobillikning dinning ijtimoiy mobillik kanali sifatida ko‘rinishlari mavjud. Jamiyatdagi e’tiqodli kishilar o‘z e’tiqodlarini mustahkamlab, uni ilmiy boyitib, rivojlantirib turishlarini keng targ‘ib qilgan. Chunki, aynan e’tiqod masalasi ko‘p jihatdan shaxsning jamiyatdagi o‘rnini belgilab bergan. Islom olamida bir necha mazhab, yo‘nalish, aqidalar hamda oqimlarning mavjudligi va shaxsning qaysi diniy mavqega ega ekanligi uning jamiyat vakillari tomonidan tan olinishi muhim hisoblangan.

Al Moturudiy «Moturud aqidasi»ga asos solishi va Hanafiya mazhabidagi barcha musulmonlarning bu aqidaga ergashishi oqibatida jamiyatdagi

[49] Qarang: Ma’naviyat yulduzlari: (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar). – Toshkent: A.Qodiriy, 1999. – B.77.

musulmonlarning ijtimoiy mavqeining o‘zgarishi ham ijtimoiy mobillik ko‘rinishlarini bildiradi.

Movarounnahrda tabiat va jamiyatni ijtimoiy anglash va o‘rganish Sharqda «Muallimi soniy» (ikkinchi muallim) va G‘arbda Sharq Aristoteli nomi bilan mashhur bo‘lgan mutafakkir Abu Nasr Farobiy asarlarida kengaytirildi. U Abu Mansur al-Moturidiy tomonidan ilmiy-teologik jihatdan asoslangan inson erki nazariyasini yanada rivojlantirdi.

Forobiyning fikricha, inson o‘z tabiatiga ko‘ra ijtimoiydir va faqat o‘zaro bog‘liqlikda jamoa bo‘lib yashay oladi. Chunki har qanday inson o‘zining oddiy kundalik ehtiyojlarini qondirish uchun u boshqalarning yordamiga zarurat sezadi, boshqalar ham xuddi shu kabi o‘zaro munosabatlar o‘rnatishlariga to‘g‘ri keladi.

Hayotiy ehtiyoj insonda jamoatchilik hissini paydo qiladi va o‘zaro muloqotni keltirib chiqaradi. Forobiy «Fozil odamlar shahri» nomli asarida shunday yozadi: «Har bir inson tabiatiga ko‘ra o‘z ehtiyojlarini qondirish va kamol topishi uchun juda ko‘p narsalarga ehtiyoji bor. Vaholanki, ehtiyojida hamma narsalar bilan u o‘zini o‘zi ta’minlay olmaydi va buning uchun unga insonlar jamiyati kerak bo‘ladi, jamiyatdagi odamlarning har biri unga zarur narsalarni yetkazib beradi»[50] .

E’tiborli tomoni shundaki, Farobiyning fikriga ko‘ra jamoa bo‘lib yashaganda odam nafaqat o‘zining moddiy ehtiyojlarini qondiradi, balki «Mukammallikning yuqori nuqtasiga» yetishadi, ya’ni boshqacha qilib aytganda, birga yashash, mehnat qilish jarayonida inson ruhiy quvvat oladi, mukammallashadi va o‘z moddiy va ma’naviy qadriyatlarini shakllantirish uslublarini takomillashtiradi[51].

Farobiy o‘z asarlarida «Mukammallikning yuqori nuqtasiga» deb aynan jamiyat vakillarining jamiyatdagi mavjud pastki tabaqadan yuqori tabaqaga ko‘tarilish uchun jamoaviy harakatni nazarda tutgan. Aynan shunday harakatlar zamonaviy falsafada jamoaviy ijtimoiy mobillik sifatida namoyon bo‘ladi.

---

[50] Qarang: Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – B.233.
[51] Qarang: Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – B.233.

Farobiyning ijtimoiy-siyosiy masalalar bo‘yicha qarashlarini ko‘rib chiqib, shunday xulosaga kelamiz, ya’ni Farobiy qarashlari va undan oldingi mutafakkirlar, ayniqsa, yunon olimlari va ularning zamondoshlari qarashlari o‘rtasida o‘xshashlik hamda farqlar bor. Bu qarashlar undan keyingi bir qator mutafakkirlarning ijtimoiy qarashlariga o‘z ta’sirini o‘tkazgan.

Jamiyatni o‘rganuvchi fanlar nazariyasini rivojlantirishga Abu Rayhon Beruniyning hissasi katta. Mutafakkirning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» deb nomlangan qomusiy asari keng ma’noda besh ming yillik tarixni o‘z ichiga olgan mumtoz etnoijtimoiy asar hisoblanadi. Ushbu asarda buyuk mutafakkir asarning yozilishi bilan bevosita bog‘liq holda olib borilgan jamiyatga doir tadqiqotlari, shuningdek tadqiqotda qo‘llagan usullari haqida shunday fikr bildiradi:

«Mazkur asarni yozish asnosida o‘zimga ishonch hosil qildim-ki, aqliy narsalardan dalil keltirish, kuzatilgan narsalarga qiyos qilish yo‘li bilan haqiqiy ma’lumotlarga ega bo‘lish mumkin emas. Bunga faqat «Kitob ahllari» va turli din arboblariga, shu (e’tiqodlarga) amal qiluvchi har xil maslak va ishonch egalariga ergashish, ularning tushunchalarini hamisha asos tutish bilan belgilanadi. So‘ngra ularning isbot uchun keltirgan so‘z va e’tiqodlarini bir-biriga solishtirish bilan bilinadi»[52].

Mutafakkir o‘z qarashlarida jamiyatni ijtimoiy taraqqiyotga olib boruvchi kuch ziddiyat va qarama-qarshiliklar emasligini ifoda etdi. Uningcha, taraqqiyotga olib boruvchi asosiy kuch bu turli ijtimoiy darajadagi murosa, ya’ni konsensusdir. «Qarama-qarshiligi ravshan ayon bo‘lgan narsaga qanday ishonib bo‘ladi»[53] , – deb Beruniy ziddiyatlarsiz jarayonlarda o‘zgarish ehtiyoji baland bo‘lishiga ishora qiladi. Demak, Abu Rayhon Beruniyning ushbu fikrini bevosita ijtimoiy mobillik jarayonlarida ham kuzatish mumkin. Jamiyatda shaxs o‘z ijtimoiy maqomini o‘zgartirish maqsadida boshqa bir ijtimoiy guruhga ko‘chib o‘tishi jarayonida bir

[52] Qarang: Беруний. Избранные произведения, 1-том. – Ташкент: Фан, 1957. – С.11.
[53] Qarang: O‘sha asar. – B.44.

qancha qarama-qarshiliklarga uchraydi. Ijtimoiy mobillik nazariyasida esa jamiyat stratifikatsiyasining past tabaqadan yuqori tabaqaga ko‘chib o‘tishidagi qarama-qarshiliklarning qanchalik kamayishi yoki ko‘payishi jamiyatning rivojlanishini yoki tanazzulga uchrashishini X asrda Beruniy o‘z asarlarida nazariy jihatdan asoslagan.

Mutafakkir zamonaviy falsafada muhim soha bo‘lgan stratifikatsiya, ya’ni ijtimoiy tabaqalashuv xususida ham o‘z qarashlarini bayon etgan. Jumladan, «Tillarning turlicha bo‘lishiga sabab odamlarning guruhlarga ajralib ketishi, bir-biridan uzoq turishi, ularning har birida turli xohishlarni ifodalash uchun zarur bo‘lgan so‘zlarga ehtiyoj tug‘ilishidir. Zamonlar o‘tishi bilan bunday iboralar ko‘payib, yodda saqlanishi va takrorlanishi natijasida tarkib topib, tartibga tushgan»[54].

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u Bilig» («Saodatga yo‘llovchi bilim») asari XI asrda yaratilgan bo‘lib, ijtimoiy qarashlarga boy bo‘lgan, turkiy xalqlar uchun katta ahamiyatga ega bo‘lgan asar hisoblanadi. Mazkur asar odob axloq, ta’lim va tarbiya, shuningdek ma’naviy kamolotning yo‘l-yo‘riqlari, usullari, chora-tadbirlarini o‘zida bevosita mujassam etgan qomusiy asardir.

Yusuf Xos Hojib jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarning harakatga kelishida ziyolilarning o‘rni katta ekanligini ta’kidlab, ziyolilar jamiyatning yuqori tabaqasida bo‘lishini tarafdori bo‘lgan. Pastki tabaqadan yuqori tabaqaga yoki bir ijtimoiy guruhdan boshqasiga ko‘chib o‘tishda ilm egallash yuksak madaniyatga erishish orqali bo‘lishini nazariy jihatdan asoslagan. Albatta, bunday holat ijtimoiy mobillikka xosdir. Mutafakkir bunday ijtimoiy mobillik agentlari sifatida ziyoli qatlamlarni e’tirof etgani ahamitga molik.

Alisher Navoiy «Nasoyim ul-muhabbat» asarida quyidagi ijtimoiy maqomlar haqida so‘z yuritgan: «Uvays va uvaysiylik» Alisher Navoiy, Shayx Uvays Qaraniydan shunday so‘zlarni keltiradi «Zohir yuzidan kimniki piri ma’lum bo‘lmasa va mashoyihlardan birining ruhi uni tarbiyat qilgan bo‘lsa, uni uvays

[54] Qarang: Крачковский И.Ю. Избранные сочинения. – Том IV. – М.–Л., 1965. – С. 13.

derlar»[55]. «Zohidlik» Alisher Navoiy, Muhammad Vose'dan esa «Bu dunyoda zohid bo'l va hech kishidan ta'ma qilma. O'shanda barcha xalq senga muhtoj bo'lgay. Shunday bo'lgach, sen badavlat va podshoh bo'lgaysen. Dunyoda bu maqomga erishgan zot oxiratda ham podshohdir»[56]. «Mujovir» (nabiy va valiylar qabri yonida yashovchi) Alisher Navoiy, Abulxayr Habashiydan esa «Oltmish yil Makka va Madinada mujovir bo'ldim. Ko'p mashaqqatlar chekdim, ammo birovdan nimadir tilamak hayol qilgandim. G'oyibdan nido keldikim, bizning oldimizda sajda qiladigan yuzingni boshqalar oldida xor qilishdan uyalmaysanmi?!»[57] , degan fikrni bildirgan. Navoiyning ijtimoiy qarashlarida, shaxs jamiyatda egallab turgan yuqori maqomidan o'z xohishiga ko'ra voz kechishi, ya'ni ijtimoiy mobillikdagi vertikal harakatchanlikni pastga qarab harakatlanish holatidir. Zamonaviy jaraayonlarda vertikal ijtimoiy mobillikda pastga harakatlanish albatta ijtimoiy jarayonlardagi ma'lum kuchlar yoki ijtimoiy mobillik kanallari ahamiyatining pasayishi yoki jamiyatning transformatsiyaga uchragan vaqtida kuzatish mumkin. Ammo Navoiyning Husayn Boyqaro bilan suhbatlarida Navoiy saroy mulozimligidan voz kechib, Xoja Abdulloh Ansoriyning maqbarasi ostonasini supuruvchilik qilishga Husayn Boyqarodan ruxsat olishi va u Xoja Abdulloh Ansoriyning maqbarasida ikki yil «Mujovir»lik qilgani yuqorida bildirilgan fikrlarni tasdiqlaydi[58] . Mazkur ijtimoiy tasniflashdan maqsad – ularni bevosita ijtimoiy foydalilik darajani yuksaltirish ekanligi asarning asosiy mazmunini namoyon etadi. Qolaversa, jamiyatdagi tasniflarning qanday ekanligi xususida ma'lumotga ega bo'lish, tushunish ularning mazmunini aniq ravshan ochib berishga imkoniyat beradi. Alisher Navoiy bu haqda shunday fikr bildiradi: «Shu asosda hamsuhbat va do'st-yoronlarni bu hollardan ogoh va xabardor qilmoq vojibki, toki ularda har toifaning xislati xususida bilimlar va har tabaqaning holati haqida tushunchalari bo'lg'ay»[59] .

---

[55] Qarang: Navoiy A. Nasoyim ul – muhabbat. – Toshkent: O'zbekiston, 2018. – B.11.
[56] Qarang: O'sha asar. – B.15.
[57] Qarang: Navoiy A. Nasoyim ul – muhabbat. – Toshkent: O'zbekiston, 2018. – B.60.
[58] Qarang: G'iyosiddin Xondamir. Makorim ul – axloq. – Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashr, 2015. – B.82-84.
[59] Qarang: Navoiy A. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashr, 1983. – B.3.

Boburning shoh asari – «Boburnoma»dan olingan ma’lumotlar asosida Boburiylar davlati jamiyatining ijtimoiy stratifikatsiyadagi mobillik bo‘yicha ijtimoiy tarkibni vertikal va gorizantal yo‘nalishda tabaqa, qatlam, guruh va darajalarga bo‘lish mumkin. Bunda ijtimoiy jarayonlardagi ijtimoiy mobillik kanallarining ba’zilari yopiq holatda, ba’zilari esa ochiq holatda bo‘lgan. Boburiylar davlatidagi ijtimoiy guruh, tabaqa va darajalarni vertikal holatiga ko‘ra quyidagicha tavsiflash mumkin:

1. Yopiq ijtimoiy mobillik kanali sifatida oliy hukmron sulola vakillari tabaqasi – liy hukmdor va uning qarindosh-urug‘lari. Bu mobillik kanali faqat Boburiylar sulolasining to‘g‘ri chiziq bo‘yicha o‘zigagina tegishli bo‘gan;
2. Yarim yopiq ijtimoiy mobillik kanali sifatida hokimlar, beklar, katta ma’murlar tabaqasi – bek – atka, ixtiyor beklar, sohib ixtiyor beklar, orug‘a, qutvol, shixna va boshqalar. Bu mobillik kanali faqat sulolaga aloqador bo‘lgan qarindoshlar va sadoqatli davlat xizmatchilariga tegishli bo‘lgan;
3. Yarim ochiq ijtimoiy mobillik kanali sifatida sayidlar, ruhoniylar tabaqasi – ulamolar, muftiy, shayx ul-islom, qozi, mudarrislar, mullalar va talabalar. Bu mobillik kanali diniy bilimlar, islomiy diniy rutbalar, aziz avliyolarning sulolalari va xalfalariga tegishli bo‘lgan;
4. Ochiq ijtimoiy mobillik kanallari sifatida yirik mulkdorlar tabaqasi - iqto’, suyurg‘ol sohiblariga tegishli bo‘lgan;
5. O‘rta tabaqalar – savdo – tijorat ahli, hunarmandlar, do‘kondorlar;
6. Eng quyi tabaqa – oddiy dehqonlar, bog‘bonlar, xizmatchilar, qullar, asirlar;
7. Zimmiylar tabaqasi – u yoki bu sabablarga ko‘ra boburiylar davlatida yashovchi yahudiy, nasroniy (xristian), zardo‘shtlar va boshqa din vakillari bo‘lgan. Aynan mana shu tabaqadagi odamlarga islom dinini qabul qilish orqali ularga o‘z ijtimoiy mavqelarini ham o‘zgartirish imkoniyati berilgan[60]. Hozirgi ijtimoiy mobillik nazariyasida aynan din ijtimoiy mobillik kanali deb hisoblanadi.

[60] Qarang: Bobur Z.M. Boburnoma. – Toshkent: O’qituvchi NMIU, 2018. – B.514.

Bobur va Boburiylar davlati, jamiyatining ijtimoiy stratifikatsiya bo‘yicha ijtimoiy tarkibini gorizontal holatiga, ya’ni nasl-nasab bo‘yicha quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Hukmron sulola – oliy hukmdor, aslzodalar tabaqasi.
2. Payg‘ambar avlod-ajdodlari – sayidlar, xo‘jalar.
3. Aziz-avliyolar, turli tasavvuf tariqatlari, jamoalari vakillari;
4. Olimlar, muhaddislar, faqihlar, qozilar, muhandis va boshqalar;
5. Shayx ul-islom, muftiylar, umuman, ruhoniylar.
6. G‘oziylar, shahidlar va ularning avlodlari.
7. Zimmiylarning o‘z ichki nasl-nasab darajalari.
8. Afg‘onlarning muqaddas aslzoda va qoralari.
9. Oddiy, qora xalq-mardikor, chorkar, qullar, asirlar.

Gorizontal stratifikatsiya bo‘yicha ma’lum bir tabaqa ichidagi shaxs ham bir ijtimoiy guruh ichida o‘z mavqeini ko‘tarish imkoniyati bo‘lgan[61]. Fikrimizcha, Boburiylar sulolasi nafaqat boy madaniy meros, balki xozirgi zamonaviy jamiyatimizga xos keladigan ijtimoiy jarayonlarni xam tashkillashtirgan. Jamiyatni ma’lum tabaqalarga bo‘lish orqali boshqarish usulini ham Bobur o‘z asarlarida nazariy asoslagan. E’tiborli tomoni shundaki, Bobur Hindistonda yarim yopiq, yarim ochiq va ochiq bo‘lgan tabaqalarga ko‘tarilish uchun jamiyat vakillariga imkoniyat berilgan. Uning jamiyat haqidagi ushbu qarashlari hozir ham ijtimoiy mobillik nazariyasida muhim o‘rin tutadi. Xulosa qilib aytganda, falsafa bu donishmandlik xususidagi fan. Shundan kelib chiqqan holda, o‘rta asr Sharq mutafakkirlarining jamiyatni tadqiq qilishga doir tadqiqotlari, xulosaviy mushohadalar bilan bevosita boyitilgan asarlari ularning ma’naviy kamolotga erishgan yillarida yaratilgandir. Jumladan, Amir Temurning «Temur tuzuklari», Mirzo Ulug‘bekning «To‘rt ulus tarixi», Alisher Navoiyning «Majolis un-nafois», «Nasoyim ul-muhabbat» va «Mahbub ul-qulub» asarlari va hokazolar.

---

[61] Qarang: Bobur Z.M. Boburnoma. – Toshkent: Fan, 2019. – B.437.

Sharq mutafakkirlarining asarlarida ijtimoiy mobillikka doir masalalarini o‘rganish natijasida quyidalarni bayon qilish mumkin:

– Sharqda o‘troqlik va jamoaviylikni asrash tamoyiliga rioya etilishi, ya’ni ko‘chmanchilik hayot tarzidan o‘troqlikka o‘tish ham ijtimoiy mobillikdagi ijtimoiy jarayon hisoblanadi;

– ijtimoiy mobillikning davriyligiga rioya etilishi;

– ijtimoiy mobillikning siyosiy maqsadlarda namoyon bo‘lish tamoyili;

– ijtimoiy mobillikning e’tiqodiy xususiyatlarining namoyon bo‘lishi. Ya’ni e’tiqodni o‘zgartirish orqali o‘z ijtimoiy maqomini belgilash tendensiyasi namoyon bo‘lishi yuqorida bildirilgan fikrlarni tasdiqlaydi.

Sharq mutafakkirlarining fozil jamiyat va adolatli davlat barpo etishga doir bunyodkor va ezgu g‘oyalari G‘arb ijtimoiy-siyosiy va falsafiy fikr rivojiga ham kuchli ta’sir qildi. G‘arbning ilg‘or olimlari Sharq mutafakkirlari merosini o‘rganish, ularning asarlarini Yevropa tillariga tarjima qilish asnosida jamiyatni rivojlantirish orqali falsafaga doir bilimlar va qarashlarni ko‘p jihatdan boyitdi.

1.3. Xotin-qizlarning ijtimoiy mobilligini takomillashtirishning konseptual tahlili

Bugungi zamonaviy dunyoda jamiyatda yashayotgan insonlar doimiy harakatda, shuningdek jamiyat rivojdanishda davom etadi. Mazkur holat jamiyat ijtimoiy strukturasining doimiy o‘zgaruvchan ekanligini namoyon etadi.

Tarixiy taraqqiyotdan XIX-XX asrlarda yuz bergan urushlar va inqiloblar natijasida ba’zi bir davlatlarning iqtisodiyoti rivojlanib ketganligi, ba’zilari esa, inqiroz holatiga tushganligi bizga ma’lum. Xuddi shunday o‘zgarishlar O‘zbekiston sharoitida ham yuz berganligining guvohimiz. Xususan, bunga mustaqillikka erishilgandan keyin katta mulk egalari bo‘lgan mulkdorlarning, tadbirkorlar va ishbilarmonlar elitasining jamiyat hayotiga kirib kelishi katta ahamiyat kasb etdi.

Mustaqillikning qo‘lga kiritilishi, yangi suveren demokratik jamiyat qurilishi natijasida jamiyatni modernizatsiyalash jarayonida ijtimoiy mobillik muammolarini tadqiq qilish dolzarb ahamiyat kasb etdi. Ta’kidlash joizki, mustaqillik

O‘zbekistonda, ijtimoiy mobillik (harakatchanlik) konsepsiyasining jadal amal qilishi uchun qulay imkoniyatni yaratdi. Mamlakat mustaqilligi uchun olib borilgan siyosiy kurashlar, harakatlar nihoyasiga yetib, endilikda insoniyat yuqori intellektual taraqqiyot bosqichiga chiqib oldi. Ijtimoiy taraqqiyotning mazkur bosqichi yangi jamiyatning o‘ziga xos qonuniyatlari asosida qurilishini ayni xaqiqat qilib namoyon etdi. Buyuk mutafakkir Beruniy ta’kidlaganidek, «Aslini olganda ilm-fan insonlarning hayotiy ehtiyojlarini qondirish zaruratidan kelib chiqadi. Xalq haqqoniy tarixini bilib, o‘zligini anglay boshladi»[62]. Shunday qilib, jamiyatning boshqa demografik qatlamlariga nisbatan xotin-qizlarga o‘sib boruvchi faolliy, ijtimoiy mobillik xos bo‘ladi. Mazkur jihatlarning barchasi xotin-qizlarni eng faol (jadal) guruh sifatida ta’riflash imkoniyatini beradi. Aynan ushbu ijtimoiy-demografik guruh ijtimoiy mobillikni tartibga solish mexanizmlarini o‘rganishning dolzarbligini bevosita izohlaydi. «Xotin-qizlar ijtimoiy mobilligi» tushunchasi mazmun-mohiyati nimadan iborat? Bu, eng avvalo, keng ma’nodagi ijtimoiy mobillik bo‘lib, xotin-qizlarning ijtimoiy dinamikasining ijtimoiy harakatlanishini nazarda tutadi. Bunda xotin-qizlar alohida guruhlarining turli omillar ta’siri ostidagi ijtimoiy harakatlanishi ham ko‘zda tutiladi. Jamiyat tuzilishi, o‘z navbatida, juda ko‘p ijtimoiy pozitsiyalarni o‘z ichiga oladi. Bu ijtimoiy harakatlanish jarayonlarining xilma-xil ekanligini izohlaydi. Ta’kidlash joizki, xotin-qizlar ijtimoiy mobilligi bir necha turlarga bo‘linadi. Bunda harakatlar yo‘nalishi, ular ro‘y beradigan jamiyat hayotining sohalari, ishtirokchilar soni va boshqa mezonlar ta’sir qiladi. Xotin-qizlar ijtimoiy mobilligi 2 turga bo‘linadi:

1) oliy qatlamlar, sinflar, stratalarga o‘tish (o‘sib boruvchi mobillik);
2) past qatlamlar, sinflar, stratalarga o‘tish (pasayib boruvchi mobillik).

Ijtimoiy voqelikda vertikal harakatlanish asos sifatida keng tarqalmagan. U ko‘p jihatdan ideal shakl bo‘lib, ushbu jarayonlarni tadqiq etish muhim jarayon hisoblanadi. Daromad darajasiga ko‘ra, individlar, oilalar, ijtimoiy guruhlarning ijtimoiy-iqtisodiy pozitsiyalarini tabaqalashtirish murakkab jarayon hisoblanmaydi.

---

[62] Qarang: Булгаков П.К. Жизнь и труды Беруни.-Т.: Фан, 1972. – С.134.

Qolaversa, aholini ta’lim jihatidan tabaqalashtirish ham mushkul ish emas. Biroq, bu ikki o‘lchamni bitta tizimga solishga urinish bo‘ladigan bo‘lsa, yuqori daromad hamma vaqt ham yuqori ta’lim darajasining sababi emas ekanligini namoyon etadi. Juda ko‘p holatlarda teskari, ya’ni sarmoyalarning ta’lim hajmi va sifatiga ta’siri ayon bo‘ladi.

Xotin-qizlarning ijtimoiylashuv bosqichlari va jarayonlari, ularning ijtimoiy stratifikatsiya jarayonlarida ijtimoiy mobillikka oid masalalarni hal etish, ayollar va ijtimoiy guruhlar ijtimoiy mobilligi, shuningdek ijtimoiy harakatlarning tashkiliy bosqichlarini strukturaviy tartibga solish, shuningdek mazkur borada sharoitlar yaratishga imkon beradigan kompleks ijtimoiy tizimni yanada takomillashtirish borasida ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Ijtimoiy mobillik (lotincha mobilis - harakatchan, o‘zgaruvchan) va ijtimoiy o‘zgarishlar deb ataladigan ko‘rinishlari ifodalaydi. Faylasuf, Rossiyadan siyosiy qochoq sifatida Amerikaga borib, «Demokratiyaga qo‘shgan hissasi uchun» ikki marotaba Nobel mukofotini qo‘lga kiritgan, rus-amerika olimi deb tanilgan Pitirim Alekseyevich Sorokin 1927 yilda ijtimoiy tadqiqotlar doirasida ijtimoiy mobillik tushunchasini fanga kiritgan.

Ijtimoiy mobillik nima uchun ishlatiladi? Bu, eng avvalo, guruhlarning va bir butun jamiyatlarning «ochiq» yoki «yopiq»ligini tavsiflash uchun ishlatiladi. Ijtimoiy mobillikning, o‘z navbatida, intergeneratsion (avlodlar orasidagi) va integeneratsion (avlod ichidagi) ijtimoiy mobillik turlari mavjud. Ayni bir ijtimoiy holatning otadan o‘g‘ilga (juda kam hollarda onadan qizga) o‘tishi bu generatsion ijtimoiy mobillik hisoblanadi.

O‘tgan asrning 50-yillarda amalga oshirilgan ijtimoiy tadqiqotlarda ijtimoiy mobillikning jamiyatga funksional jihatdan zarurligi, eng avvalo, iste’dodli va ma’naviyatli insonlarga past ijtimoiy qatlamlarni tark etib, elita qatlamlarga qo‘shilish imkonini yaratuvchi mexanizm sifatida ko‘rib chiqilgan. Tadqiqotchi olimlar rivojlangan industrial iqtisodiyotlardagi tizimli o‘zgarishlar, xususan, menejerlar, mutaxassislar va boshqaruvchilarning ortib borishi bilan yuqori qatlamlarda ko‘proq «bo‘shliq» hosil qilinishini ta’kidlagan holda, ishchi sinfiga mansub insonlarning o‘sib boruvchi ijtimoiy mobilligi uchun imkoniyatlarni kengaytirishini ifoda etadilar.

G‘arbda ijtimoiy mobillik jarayonlarining omillari va xarakteristikalarini tadqiq etish bilan bir qatorda ijtimoiy mobillik jarayonlarni tahlil va talqin qilishning statistik vositalarini ishlab chiqishga urinishlar amalga oshirildi. Bunda miqdoriy usullar bilan birga ijtimoiy mobillik jarayonidagi motivlar va qadriyatlarni sifat jihatdan o‘rganish usullari ishlab chiqildi hamda qo‘llanishiga xizmat qildi. Biroq, bunday tushunchalar jamiyatni ilmiy asosda sinflarga, guruhlarga, qatlamlarga bo‘lgandagina ilmiy ma’no kasb etishi mumkin. Shu tariqa tadqiqotchilar ijtimoiy mobillik bilan bevosita bog‘liq muammolarni jamiyatni stratifikatsion bo‘lish yondashuvi asosida emas, sinfiy yondashuv nuqtai nazaridan ko‘rib chiqishga muvaffaq bo‘lganlar.

Olimlarning fikricha, ijtimoiy mobillik mazmunida quyidagilarni tushunish maqsadga muvofiqdir:

1) xalqning uch turdagi harakatlanishi: tabiiy harakatlanish, hududiy harakatchanlikni bildirgan migratsion harakatlanish, ta’lim va mehnat bilan bog‘liq harakatchanlikni o‘zida mujassam etgan keng ma’nodagi ijtimoiy mobillik, shu bilan birga tor ma’nodagi ijtimoiy mobillik;

2) harakatlar jadalligi bilan bog‘liq bo‘lgan aholining harakatchanligi. Bunday holatga qarama-qarshi bo‘lgan aholining harakatsizligi atamasi;

3) aholining bir toifadan boshqa toifaga o‘tishi;

4) harakatlanishga tayyorgarlik hisoblangan potensial harakatchanlik.

Ta’kidlash joizki, katta tarmoq kapitaliga ega bo‘lgan shaxslar, ijtimoiy guruhlar ijtimoiy aloqalarni tuzish, shuningdek ulardan turli xil foyda olish jarayonida muhim afzalliklarga ega bo‘ladi. Shu tariqa, kapitalning ma’lum bir shakli mavjudligi yoki mavjud emasligi yangi tengsizlik tizimini keltirib chiqarishga sabab bo‘ladi.

Ijtimoiy tabaqalanish masalasi muqarrarligicha qolib ketmoqda. Sobiq sovet tuzumi tajribasi shuni ko‘rsatdiki, sinfsiz jamiyat g‘oyalari faqatgina qog‘ozda mavjud bo‘lishi mumkin. Ularni amalda qo‘llashga qaratilgan har qanday urinishlar samarasiz bo‘ladi. Ammo, mazkur masalada o‘ziga xos yondashuv ham mavjud. Bu ham bo‘lsa, insonning jamiyatdagi obyektiv pozitsiyasi va uning o‘z pozitsiyasini shaxsiy idrok eta olishi o‘rtasidagi farqdir. Jumladan, kollektivizmning kuchli mafkuraviy asosi shundan iborat ediki, insonlar ongida tenglik tamoyillarini shakllantirishga xizmat qildi. Aksariyat sovet fuqarolari o‘zlarini boshqalardan yaxshi yoki yomon deb hisoblamaydigan vositalar mavjud edi.

Ta’kidlash joizki, mavjud madaniy qarama-qarshiliklar g‘arbga «sovet odami», «sovet ittifoqi fuqarosi» va shu kabi tushunchalarni shakllantirib bordi. Shuningdek, tadqiqotchi J.Urrining ta’kidlashicha, mobil burilishning bir qismi hisoblangan harakatchanlik ilgari Sorokin tomonidan ajratilgan ikkita yo‘nalishga vertikal va gorizontal yo‘nalishlarga bo‘lingan bo‘lib, unga muvofiq jamiyatni iyerarxiyalashni nazarda tutilgan. Endi esa, an’anaviy ijtimoiy tabaqalanish kontekstidan tashqarida mavjud bo‘lgan tarmoqning harakatchanligi namoyon bo‘ldi. Bundan oldin harakatchanlik u yoki bu darajada tuzilgan bo‘lsa, endilikda unda tuzilmagan narsalar paydo bo‘ldi.

Tadqiqotchi olim P.Sorokinning «ijtimoiy harakatchanlik kanali», eng avvalo, jamiyatda ijtimoiy harakatni ta’minlay oladigan ijtimoiy institutlarni nazarda tutadi. Bulardan eng asosiysi sifatida tadqiqotchi armiya, maktab, cherkov, siyosiy, iqtisodiy va professional tashkilotlarni kiritadi. Tadqiqotchi olim J.Urri harakatchanlik tizimini ijtimoiy munosabatlar hamda moddiy infratuzilma yig‘indisi sifatida belgilaydi. Bu, o‘z navbatida, ma’lum bir harakat turini insonlar va obyektlarning keng doirasiga imkon beradigan, sharoitlarni yaratadi.

Tadqiqotchi o‘zining «harakatchanlik» nazariyasida turli xil mobillik tizimlarini bevosita ajratib tahlil qiladi hamda batafsil tavsiflab beradi: piyoda harakatlanish, temir yo‘l transporti, avtomobilsozlik, aviatsiya harakatchanligi, virtual harakatchanlik shular jumlasidandir.

Bugungi zamonaviy jamiyatda sodir bo‘layotgan har qanday ijtimoiy harakatchanlik jarayonlarini to‘liq tushunib olish uchun P.Sorokinning ijtimoiy harakatchanlik kanallarini aniqlash maqsadga muvofiqdir.

Ta’kidlash joizki, ijtimoiy harakatchanlik muammolarini yanada to‘liqroq tadqiq qilish juda ko‘p ijtimoiy-falsafiy toifalarni, jumladan, «adolat», «halollik», «tenglik» kabilarni chuqurroq tushunishni talab etadi. Bularning barchasi ular bilan bog‘liq o‘tkir ijtimoiy muammolarni hal qilishda ahamiyati kattadir.

Xitoyda Konfutsiy axloqiy qarashlariga ko‘ra, inson jamiyatda o‘rnatilgan tartibga qat’iy rioya qilishi, jamiyat taqdiri uchun mas’ullik hissini namoyon etishi lozim. Kosmologiya g‘oyasida esa, siyosat va kosmik ritm o‘rtasida murosa o‘rnatilishiga asoslanadi. Qadimgi Xitoy jamiyati siyosatida «inson o‘ziga nima qildi?» deb emas, «inson davlat uchun nima qildi?» degan savolga javob izlanar edi. Inson jamiyatda faqat o‘z qobiliyatiga tayangan holda, undan foydalanish muddatini kutib yashashga mahkum etilgan edi. Shuning uchun ham qadimgi Xitoyda davlat butun jarayonlarni boshqaruvchi kuch sifatida maydonga chiqib, jamiyatdagi har bir shaxsning ijtimoiy mavqeini belgilab boruvchi asosiy omil vazifasini o‘tagan.

Ta’kidlash joizki, Hazrat Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub» asarida jamiyat xususidagi mukammal asar bo‘lib, unda o‘z davridagi deyarli barcha ijtimoiy guruh hamda tabaqalarga tavsiflar o‘z aksini topgan. Shuningdek, mazkur asarda qaysi bir guruh, tabaqa yaxshi yoki yomon, ularning qay biri insoniylikka, xalqqa, mamlakatga foydali yoki zararli ekanligi ifoda etilgan. Alisher Navoiy jamiyat miqdor va sifat jihatidan ijtimoiy bo‘linganligi e’tirof etadi. U bu jarayonni ijobiy hodisa sifatida baholaydi. Mazkur tasniflanish doirasining kengligi mamlakat farovonlik darajasining ifodasini namoyon etishi haqida e’tiborga loyiq ijtimoiy qarashni asoslab bergan. Mutafakkir jamiyatda mavjud yuzdan ortiq ijtimoiy tabaqa

xususiyatlarini bevosita aniqladi hamda ularning mamlakat ijtimoiy hayotidagi roli va faoliyat imkoniyatlarini to‘liq ifoda etdi.

Ma’lumki, tarixiy taraqqiyotda nafaqat ma’lum bir shaxsning ijtimoiy hayotdagi pozitsiyasi o‘zgaradi, shu bilan birga butun bir ijtimoiy guruh pozitsiyasining o‘zgarishi ham kuzatiladi. Jumladan, katta yer egalari o‘rniga moliyaviy burjuaziyaning kelishi yoki tor doiradagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan kichik ishlab chiqaruvchilar, ya’ni hunarmandlar o‘rniga injenerlarning, xususan, bugungi kunda dolzarb bo‘lgan dasturchilarning (programmistlar), robototexnika orqali boshqariladigan ishlab chiqarishlarning, operatorlarning, boshqacha qilib aytganda, rivojlangan innovatsion ilmiy texnikaning kirib kelishini misol qilish mumkin.

Bugungi Yangi O‘zbekiston sharoitida mamlakatimiz olimlari ijtimoiy-kasbiy va iqtisodiy harakatchanlikni, shuningdek, uning subyektiv jihatini tahlil qilish borasida keng qamrovli tadqiqotlarni amalga oshirmoqdalar. Bu borada zamonaviy O‘zbekiston jamiyatining turli qatlam va guruhlari ijtimoiy mobilligi tendensiyalarini tahlil qilish, namoyon bo‘layotgan ijtimoiy mobillikning turli ko‘rinishlarini empirik o‘lchash metodikalarini ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy ishlar e’lon qilinmoqda.

Ta’kidlash joizki, respublikamiz aholisi hayotida eng jadal ijtimoiy mobilliklar ro‘y beryapti. Tadqiqotlar asosida aytish mumkinki, bu qisman 14 yoshdan, to‘liq 16 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan davrda ro‘y beradi. Bugungi kunda xotin-qizlarni ijtimoiy mobillik darajasi yuksak bo‘lgan ijtimoiy-demografik guruhga aylantirishga xizmat qiladigan omillar quyidagilardan iboratdir:

1. Ta’lim jarayonidan mehnat faoliyatiga o‘tish, shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy-kasbiy tuzilishiga integratsiya bo‘lib borishi, ya’ni mustaqil iqtisodiy maqomga ega bo‘lishidir. Tadqiqotchi olimlarning aksariyati mehnat faoliyatiga o‘tish vaqtini xotin-qizlar yoshining eng past chegarasi, deb hisoblaydilar. «Xotin-qizlar deganda, - deb ta’kidlaydi M.Rutkevich, – odatda a’zolari o‘z jismoniy va ma’naviy kamolotida, bolalar va o‘smirlardan farqli o‘laroq, jamiyat hayotida, avvalo ishlab chiqarishda faol, mustaqil ishtirok etishga tayyor bo‘lgan ijtimoiy-

demografik guruh tushuniladi». Shunga doir fikrni tadqiqotchi F.Filippov ham ilgari suradi. Uningcha, xotin-qizlarning ijtimoiy tabiati ko‘p jihatdan mehnat faoliyati bilan belgilanadi.

2. Aslini olganda, 30 yoshga to‘lishga qadar inson shaxsiy yutuqlari asosida o‘zining kelajakdagi xizmat karyerasi uchun zamin yaratadi. Bunda u o‘sib boruvchi vertikal harakatchanlikni bevosita amalga oshiradi.

3. O‘z mehnat faoliyatini boshlashda turli qatlamlardan chiqqan insonlar ota-onalari erishgan yutuqlarini taqqoslaydilar. Mazkur ijtimoiy kelib chiqish kelajakdagi kasbiy va boshqa muvaffaqiyatlarga ta’sir darajasini, shuningdek avlodlararo ijtimoiy mobillikning boshqa bir jihatlarini aniqlash imkoniyatini beradi.

4. Xotin-qizlar 30 yoshgacha bo‘lgan muddatda oila quradilar hamda o‘z farzandlarini dunyoga keltiradilar.

Siyosiy va kasb jihatdan tabaqalashtirish ham aynan bir natijani bera olmaydi. Individlar va ijtimoiy guruhlarning bir ijtimoiy holatdan ikkinchisiga o‘tishi gorizontal harakatchanlikni tashkil etadi. Biroq, shu bilan birga shuni e’tiborga olish kerakki, obyektiv jihatdan teng bo‘lgan ijtimoiy holatlar boshqa bir omillar ta’siri ostida subyektiv jihatdan foydaliroq yoki foydasiz bo‘lb qolishi mumkin. Shuning uchun ham bir diniy konfessiyadan ikkinchisiga, ma’lum bir davlat fuqaroligidan boshqasiga o‘tish, bir nikohdan boshqa bir nikohga o‘tish, bir kasbdan boshqasiga o‘tish kabi ijtimoiy harakatlarning barchasi sof gorizontal harakatlar hisoblanmaydi. Sababi shundaki, ular ko‘p hollarda iqtisodiy, siyosiy, shaxslararo mavqening o‘zgarishiga ham olib keladi.

Yosh insonning mavqeini o‘zgartirishga xizmat qiladigan moliyaviy harakatlar iqtisodiy harakatchanlikning mohiyatini bevosita tashkil etadi. Bugungi zamonaviy sharoitda, shaxsning iqtisodiy mavqei birinchidan, uning daromadi, ikkinchidan, u mehnat qilayotgan korxonaning mulkchilik shakli, mulkka bo‘lgan munosabati kabi muhim ko‘rsatkichlar bilan izohlanadi. Bu xulosa turli xildagi ijtimoiy tadqiqotlar natijalari bilan ham o‘z tasdig‘ini topmoqda.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, xotin-qizlarning o‘sib boruvchi ijtimoiy mobilligi omillari quyidagilardan iboratdir:

1) siyosiy va iqtisodiy barqarorlik, jamiyatdagi harakatchanlik doirasining kengligi;

2) ota-ona ta’lim darajasining yuqoriligi, moddiy farovonlik darajasi;

3) shaharlik bo‘lish;

4) tijorat yoki xususiy tadbirkorlik sohasida band bo‘lish;

5) ma’lum bir shaxsiy fazilatlarga ega bo‘lish

Pasayib boruvchi mobillikning omillari sifatida quyidagilarni ko‘rsatib o‘tish mumkin:

1) jamiyat ijtimoiy tuzilishining keskin o‘zgarishi, siyosiy va iqtisodiy tanazzullar;

2) ma’lum kasb borasida mutaxassislar tayyorlash hajmining mehnat bozori ehtiyojlariga mos kelmasligi;

3) ota-onada oliy ma’lumotning mavjud emasligi, moddiy ta’minlanganlik o‘rtacha darajasidan ham pastligi;

4) qishloq joylarida istiqomat qilish, byudjet tashkilotlarida band bo‘lish;

5) yosh xodimlarning boshlang‘ich mehnat haqining past darajasi;

6) juda sust, tashabbus ko‘rsata olmaslik, intiluvchan bo‘lmaslik va hokazo.

Siyosiy harakatchanlik, o‘z navbatida, shaxslar yoki ijtimoiy guruhlardagi o‘zgarishlarni izohlaydi. Siyosiy mavqe esa, u yoki bu shaxsda namoyon bo‘lib, uning o‘zi bevosita hal qiladigan hokimiyat vakolatlari bilan izohlanadi. Bunda faqat davlat boshqaruvi tizimidagi mansabdor shaxslar siyosiy mavqega ega hisoblanmaydilar. Siyosiy partiya yetakchilari, harbiy va huquqni muhofaza qiluvchi organlar rahbarlari, yirik korporatsiyalar, OAV rahbarlari yuqori siyosiy mavqega ega shaxslar hisoblanadilar.

Hokimiyat vakolatlarining ortib borishi bilan xizmat pillapoyalaridan yuqoriga qarab harakat qilishning ajralmas jihati bu kasbiy harakatchanlikning ko‘rsatkichlarini izohlaydi. Shuning uchun, siyosiy stratifikatsiya hamda siyosiy harakatchanlik modellari juda katta noaniqliklar bilan izohlanadi.

Shaxslar yoki ijtimoiy guruhlarning kasbiy holatlarining o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi harakatlar bevosita kasbiy harakatchanlikda namoyon bo‘ladi. Ta’kidlash

joizki, xotin-qizlar kasbiy harakatchanligining turlaridan biribu ularning ish joyini o‘zgartirishidir. Mazkur harakatchanlik lavozim yoki ixtisoslikni o‘zgartiradi yoki bu alomatlarni saqlab qolish bilan kechadi. Kasbiy harakatchanlikning eng ahamiyatli ko‘rsatkichlaridan biri bu xizmat karyerasi hisoblanadi. Buning ma’nosi shundaki, xodim ijro etuvchilikdan rahbarlik ishiga o‘tadi. Kasbiy harakatchanlikka nimalar o‘z ta’sirini o‘tkazadi? Birinchi navbatda, individ malakasining ortib borishi, kasbiy mahoratining yuksalishi, shu asosida yuqoriroq razryadga, unvonga, ilmiy darajaga va hokazolarga ega bo‘lishlik bilan izohlanadi.

Bugungi zamonaviy jamiyatda shaxsga xos bo‘lgan eng muhim jihatlardan yana biri bu ta’lim darajasining mavjudligidir. Uning o‘zgarayotganligi bu ta’lim harakatchanligidir. O‘zbekistonda shaxsning ta’limga oid mavqei uning ma’lumotga ega bo‘lganlik darajasi (umumiy o‘rta, o‘rta maxsus kasb-hunar, oliy ta’lim va oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim darajasi) mavjudligi bilan izohlanadi. Ta’kidlash joizki, ta’lim va kasbiy harakatchanlikka ta’sir qiluvchi qo‘shimcha omillar ham mavjud. Shulardan biri kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslari hisoblanadi. Xotin-qizlar ta’lim harakatchanligining yo‘nalishlaridan biri bu bir o‘quv muassasidan boshqasiga o‘tishidir. Jumladan, o‘quv maskanining nufuzidan kelib chiqqan holda boshqasiga o‘tish kabi harakatlar insonning ta’limga oid mavqeini yuksaltirishi yoki aksincha, pasaytirishi mumkin.

Avlodlararo harakatchanlik nima? Bu, eng avvalo, jamiyat hayotining turli sohalarida xotin-qizlar ijtimoiy mavqeining ota-onalari mavqeiga nisbatan o‘zgarishidir. Avlodlararo harakatchanlik, birinchi navbatda, ijtimoiy o‘zgarishlarning muhim omili hisoblanadi. Shuningdek, individlarning ijtimoiy faolligining namoyish etilishidir. Ota-onalar ijtimoiy mavqeiga nisbatan farzandlar ijtimoiy mavqeining o‘zgarishi – jamiyatning jadal rivojlanib borayotganligining ko‘rsatkichidir .

Ishtirokchilar miqdoridan kelib chiqqan holda, ijtimoiy mobillik quyidagi turlarga bo‘linadi:

1) yakka tartibdagi harakatchanlik (alohida individlarning harakatlari);
2) jamoaviy harakatchanlik (ijtimoiy guruhlar, sinflar holatining o‘zgarishi)

Ta’kidlash joizki, shaxslar va guruhlar harakatchanligiga turli omillar o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

Birinchidan, tabaqalanish tizimi bo‘lib, u avvaldan belgilangan va erishilgan mavqega qaratilayotgan ahamiyatdir. Fuqarolik jamiyati institutlari ma’lum bir mavqega katta e’tibor qaratish jarayonida jamoaviy yoki guruhli harakatchanlik tendensiyalari paydo bo‘ladi. Biroq, erishilgan mavqega haddan ziyod e’tibor qaratadigan jamiyatlarda yakka tartibdagi harakatchanlik tendensiyasi ancha ustunlik qiladi.

Ikkinchidan, shaxsning irqi, millati, yoshi va hokazolar asosida ijtimoiy kelib chiqishi yakka tartibdagi harakatchanlikka bevosita o‘z ta’sirini o‘tkazadigan omil sifatida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ba’zi bir ijtimoiy qatlamlar a’zolari oldin egallagan mavqei ularning muvaffaqiyatiga to‘sqinlik qilmasligi uchun jamoaviy harakatchanlikka intiladilar. Jumladan, turli harakatlar, milliy va irqiy kamsitishlarning oldini olish uchun kurashuvchilar, xotin-qizlar huquqlarini kengaytirish uchun kurashuvchilar va hokazolar misol bo‘la oladi. Bunday harakatlarning ahamiyati shundaki, ular jamoaviy sa’y-harakatlar natijasida oldindan belgilangan mavqeni o‘zgartirish mumkinligidan dalolat beradi.

Uchinchidan, ijtimoiy beqarorliklar, jumladan inqilob, urush, harbiy isyon, davlat to‘ntarishlari, mitinglar, namoyishlar ijtimoiy guruhlar holatining o‘zgarishiga bevosita ta’sir ko‘rsata oladi.

Har qanday ijtimoiy harakatlarga davlatning bevosita ta’sir darajasidan kelib chiqqan holda, ijtimoiy mobillik betartib hamda uyushgan turlarga bo‘linadi. Uyushgan harakatchanlik, o‘z navbatida, ikki usul orqali amalga oshiriladi. Jumladan,

a) insonlar roziligi asosida;
b) insonlarning roziligisiz.

Ta’kidlash joizki, «xotin-qizlar ijtimoiy mobillik» tor ma’nodagi tushunchasi ikki ma’noda qo‘llaniladi. Birinchisi, u subyektning, eng avvalo, yoshlarning o‘z ijtimoiy mavqeini o‘zgartiradigan ijtimoiy harakati ma’nosida; ikkinchisi, mazkur


tushuncha xotin-qizlar ijtimoiy dinamikasi jarayonining bosqichlaridan birini anglatadi. Bunda harakat qilish qobiliyati ko‘zda tutiladi.

Yuqoridagilardan xulosa shuki, xotin-qizlar o‘z ijtimoiy harakatini amalga oshirishi uchun o‘zi bevosita harakat qila olishi, shuningdek davlat va jamiyatning xotin-qizlar ijtimoiy harakatiga, faolligiga yetarli darajada sharoit yaratishiga bog‘liq bo‘ladi. Shu bilan birga, ijtimoiy harakatlar uchun ota-onaning farzandi uchun kiritgan sarmoyasiga hamda farzandlarning shu kiritilgan sarmoyani qay darajada o‘zlashtirish qobiliyatiga bog‘liq bo‘ladi.

Xotin-qizlar ijtimoiy mobillik dinamikasi jarayoni uchta asosiy bosqichni o‘z ichiga oladi:

1) Ijtimoiy harakatchanlikka qobiliyatni rivojlantirish, tayyorlikni izohlaydigan bosqichi. Ushbu bosqich harakatchanlikka intilish, harakatchanlik uchun imkoniyatlar va harakatchanlik qobiliyatini rivojlantirishga ta’sir qiluvchi omillar mavjudligini nazarda tutadi.

1.1-rasm




1.3.1-rasm. Xotin-qizlar ijtimoiy mobillik dinamikasi jarayoni.

Harakatchanlikka intilishning uchta asosiy tarkibiy qismi: – kognitiv jihat (obyektni anglash); affektiv jihat (obyektga emotsional baho berish); axloqiy jihatdan (harakat qilishga tayyorlik) iborat.

2) Ijtimoiy harakatning o‘zi;

3) Yangi ijtimoiy guruhda ijtimoiylashuv bosqichi.

1.2-rasm



1.3.2-rasm. Harakatchanlikka intilishning uchta asosiy tarkibiy qismi.

Ko‘rsatilgan ushbu dinamik holat shuni anglatadiki, jamiyat tug‘ilgan bolalarni jamiyatning sifatiga ijobiy ta’sir etuvchi qobiliyatlarini ertaroq aniqlab ularni rivojlatirish yoki uning aksi jamiyatning sifatiga salbiy ta’sir etuvchi qobiliyatlarini ertaroq aniqlab ularni bartarf etish jarayonining jadalligiga bog‘liq bo‘ladi. Bundan tashqari jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy voqe’likdan kelib chiqib, xotin-qizlarning ijtimoiy harakatlanishi va jamiyatning doimiy modernizatsiyalashuvini hisobga olgan holda yangi vujudga kelayotgan ijtimoiy guruhlarga moslashishlariga ham bog‘liq bo‘ladi. Demak, xotin-qizlarning xavfsizligi va jamiyat barqarorligi ko‘p jihatdan umumdavlat darajada xotin-qizlar ijtimoiy mobillikni boshqarish, tartibga solish va mavjud mexanizmlarni doim takomillashtirib borishiga bog‘liq bo‘ladi.

Turli omillar ijtimoiy mobillik jarayonining xarakteriga, yo‘nalishiga, jadalligiga bevosita o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Albatta, bunga «harakatchanlik yuzasidan qaror qabul qilishga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatuvchi har qanday hodisa hamda jarayonlar (ijtimoiy, iqtisodiy, demografik, tabiiy, ijtimoiy-demografik va boshqalar)» nazarda tutiladi.

O‘zbekiston sharoitida mahalliy, milliy, ijtimoiy-iqtisodiy va Xotin-qizlar intellektini hisobga olgan holda xotin-qizlar ijtimoiy mobillikning omillari sifatida quyidagilarni ko‘rsatib o‘tish mumkin:

1. Harakatchanlikka qobillik va yakunlangan ijtimoiy harakatlarga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar. Ular obyektiv va subyektiv omillarga bo‘linadi.

Mamlakatdagi demografik vaziyatning xarakteri, jumladan tug‘ilish, o‘lim darajasi, aholi zichligi, shuningdek turli tabaqalardagi tug‘ilishlar darajasi xotin-qizlar

ijtimoiy mobilligining obyektiv omillariga kiradi. Bular yuqori qatlamlarda past darajada, past qatlamlarda yuqori darajada bo‘lib, yuqorida ma’lum darajada «bo‘shliq» hosil qiladi va pastdan tepaga harakatlanishga sharoit yaratadi[63]. Ijtimoiy mobillikning ko‘lamiga harakatchanlik diapazoni, ya’ni jamiyatdagi turli ijtimoiy maqomlar darajasi ta’sir ko‘rsatadi: maqomlar qancha ko‘p bo‘lsa, harakatlanish uchun imkoniyatlar shu qadar ko‘p bo‘ladi.

Ta’kidlash joizki, davlatning ijtimoiy siyosatida hokimiyat subyektlarining faoliyatida insonlar ijtimoiy mavqei, ijtimoiy mobilligi, ijtimoiy kayfiyatiga ta’sir qiluvchi eng muhim yo‘nalishlari aks etadi.

Jamiyatning ijtimoiy tuzilishi hamda ijtimoiy munosabatlar ijtimoiy siyosat sifatida bevosita tartibga solinadi. Shu o‘rinda uni amalga oshirish jarayonida ijtimoiy ziddiyatlar, ijtimoiy keskinlik, ba’zida ijtimoiy nizolar kelib chiqadi. Xulosa qilganda, ijtimoiy siyosatga jamiyatning barqarorligi, rivojlanish jadalligi ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasining «Yoshlarga oid davlat siyosati», o‘z navbatida, hokimiyat subyektlari faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan bo‘lib, uning asosiy vazifalarini ro‘yobga chiqarish quyidagi holatlarga o‘z ta’sirini o‘tkazadi:

- jamiyatdagi demografik vaziyatni bevosita barqarorlashtirish;
- yosh oilalarning ijtimoiy va maishiy sharoitlarini yaxshilash, hamda daromadlarini oshirish;
- ishbilarmonligi, bandligi, tadbirkorligini yuksaltirish;
- ularning barkamol avlod sifatida kamolga yetishi, uning natijasida, xotin-qizlarning vertikal o‘sib boruvchi ijtimoiy mobilligini tezlashtirishga olib keladi.

Xotin-qizlar ijtimoiy mobilligining obyektiv omillari bu:

- oilaning ijtimoiy mavqei, moddiy jihatdan ta’minlanganlik darajasi;
- ota-onalarning ta’lim darajasi;
- oilada bolalar soni;
- xotin-qizlarning oila qurish yoshi;

---

[63] Qarang: Радаев В.В., Шкаратан О.И. Социальная стратификация. - М.: Наука. 1995. – С. 153.

- ta’lim darajasi.

Xotin-qizlar ijtimoiy mobilligiga ta’sir ko‘rsatuvchi subyektiv omillarga quyidagilar kiradi:

- ijtimoiy-psixologik: bunga faoliyat subyektlarining harakatchanlik darajasi, motivlari, qadriyatlari, maqsad va intilishlari kiradi;
- harakatchanlikning imkoniyatlari, vositalari va usullari to‘g‘risidagi axborot. Bunda mehnat bozoridagi ish o‘rinlarining mavjudligi va tuzilishi, oliy ta’lim muassasalariga kirish imtihonlari, ijtimoiy mobillik bilan bog‘liq sarf-harajatlar va hokazolar to‘g‘risidagi bilimlar kiradi;
- oliy nerv faoliyatining xususiyatlari, xulq-atvor, salomatlik, tashqi tuzilish, jismoniy va aqliy qobiliyatlar bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan ruhiy-jismoniy omillar. Bunday omillar ham ushbu jarayonni tezlashtirishi yoki bevosita sekinlashtirishi mumkin.

2. Xotin-qizlarning turmush sharoitlari – xotin-qizlar hayotiy muhitining o‘z-o‘zidan passiv bo‘lgan, lekin harakatchanlikni amalga oshirayotgan, uning omillariga aylanadigan, harakatchanlikning tezligi, xarakteri va natijasiga ta’sir ko‘rsatadigan jihatlari.

Jamiyat taraqqiyoti u yoki bu davridagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlar va uning ijtimoiy tuzilishi, o‘zgarishlar xotin-qizlar hayotining makro sharoitlariga kiradi. Ta’kidlash joizki, industriya va urbanizatsiya jarayonlari turli rivojlangan mamlakatlarda 1950-60-yillarda jamiyatning ijtimoiy-kasbiy tuzilishining o‘zgarishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatgan.

Yangi O‘zbekiston jamiyati sharoitida ijtimoiy tuzilishning o‘zgarayotganligi, birinchi navbatda, iqtisodiyotdagi tub islohotlar va tizimli o‘zgarishlar jamiyatning tanazzulini yoki o‘sishini belgilaydi. Ikkinchi navbatda, mehnat va bandlik tizimidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq chuqur o‘zgarishlar. Bular, o‘z navbatida, ijtimoiy tabaqalashuvning kuchayishi, mehnat motivatsiyasining o‘zgarishi, turli toifadagi ishchilar mehnatiga haq to‘lash o‘rtasidagi keskin tafovutlardan iborat. Uchinchi navbatda, aholi asosiy qismining turmush darajasi ko‘tarilayotganligidir. Modernizatsiya yo‘liga o‘tgan O‘zbekiston jamiyatining itimoiy sohada amalga

oshirayotgan islohotlarining muhim ko‘rsatkichlari, bu yangi iqtisodiy va siyosiy voqelikka mos keladigan qadriyatlar hamda umummilliy me’yorlar tizimining qayta shakllanayotgani hamda individlar va guruhlarning asosiy hayotiy ehtiyojlarni qondirish uchun moddiy va ma’anaviy resurslardan foydalanuvchilarga kengroq yo‘l ochilayotganidadir.

Xotin-qizlarning ijtimoiy mobilligini takomillashtirishning nazariy asoslariga doir quyidagicha xulosa qilish mumkin.

Falsafa fanida ijtimoiy mobillikni o‘rganishning asosiy yo‘nalishlari ish kuchi harakati va korxonalardagi kadrlar almashinuvini o‘rganish; mehnat joyiningo‘zgarish mexanizmlarini tadqiq etish, shuningdek xizmat karyerasini tahlil qilish metodologiyasini ishlab chiqish; jamiyatning ijtimoiy tuzilishini o‘rganishga tabaqalashuv va sinfiy yondashuv doirasida ijtimoiy mobillik turli konsepsiyalarini ishlab chiqish; xotin-qizlarning avlod ichidagi va avlodlararo ijtimoiy mobilligini va uning omillarini tadqiq etish; xotin-qizlarning mehnat bozoridagi holati, islohotlar davrida xotin-qizlar ijtisodiy mavqeining o‘zgarishini hamda xotin-qizlarning qadriyatlarini o‘rganish; harakatchanlikni o‘lchashning miqdoriy va sifat metodikalari, instrumental vositalarini ishlab chiqishdan iborat bo‘ladi.

Keng ma’nodagi ijtimoiy mobillik ma’nosida xotin-qizlarning ijtimoiy dinamikasi tushuniladi. Boshqacha aytganda, bu xotin-qizlar, ularning alohida guruhlarining har xil omillar ta’siri natijasida ijtimoiy harakatlanishini bildiradi. Xotin-qizlar ijtimoiy dinamikasini tasniflashning mezonlari – ijtimoiy harakatlarning yo‘nalishi, ular ro‘y beradigan sohalar, ijtimoiy harakatlarda ishtirok etuvchi individlar miqdori, davlatning harakatchanlikka ta’sir darajasi va boshqalar. Xotin-qizlar ijtimoiy mobilligi, subyektning, eng avvalo, yosh avlodning o‘z ijtimoiy mavqeini o‘zgartira oladigan ijtimoiy harakat sodir etayotganligini ta’riflaydi. Mazkur tushuncha xotin-qizlar ijtimoiy dinamikasi jarayonining bosqichlaridan biri hisoblangan ijtimoiy mobillikni anglatadi.

II-BOB. IJTIMOIY MOBILLIK JAMIYATDA XOTIN-QIZLAR IJTIMOIY FAOLLIGINI TA’MINLOVCHI KUCH SIFATIDA

2.1. Ijtimoiy mobillik tushunchasi va uning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni

Jamiyat doimo harakatda bo‘ladi. Uning iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy va ijtimoiy hayotida yuz beradigan o‘zgarishlar insonlarning jamiyatdagi mavqei, turmush tarzi, kasbiy faoliyati, dunyoqarashi va ijtimoiy munosabatlariga ham ta’sir ko‘rsatadi. Shu jihatdan qaralganda, ijtimoiy mobillik jamiyat taraqqiyotini ifodalovchi muhim tushunchalardan biridir. Ijtimoiy mobillik deganda shaxs yoki ijtimoiy guruhning jamiyatdagi bir ijtimoiy mavqedan boshqa mavqega o‘tishi, uning ijtimoiy maqomi, kasbi, daromad darajasi, ta’limiy yoki siyosiy mavqeining o‘zgarishi tushuniladi.

Ijtimoiy mobillik jamiyatdagi imkoniyatlar ochiqligini ko‘rsatadigan muhim mezonlardan biri hisoblanadi. Agar inson o‘z bilimi, mehnati, qobiliyati va tashabbusi orqali jamiyatda yuqoriroq mavqega erisha olsa, bunday jamiyatda ijtimoiy rivojlanish uchun qulay shart-sharoit mavjud bo‘ladi. Aksincha, ijtimoiy mavqening faqat kelib chiqish, moddiy imkoniyat, jins yoki boshqa omillar bilan belgilanishi jamiyat taraqqiyotini cheklashi mumkin.

Ijtimoiy mobillik tushunchasi xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni va faolligini o‘rganishda alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki ayolning ta’lim olishi, kasb egallashi, mehnat bozorida ishtirok etishi, rahbarlik lavozimlariga ko‘tarilishi, ilm-fan, tadbirkorlik va jamoat boshqaruvida faol qatnashishi uning ijtimoiy mavqei o‘zgarayotganidan dalolat beradi. Bunday jarayon faqat bir shaxs taqdiridagi

o‘zgarish emas. U jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning yangilanib borishini ham aks ettiradi.

Xotin-qizlar ijtimoiy mobilligining kengayishi ularning iqtisodiy mustaqilligiga, qaror qabul qilish jarayonlaridagi ishtirokiga, jamiyatdagi nufuzining ortishiga hamda o‘z salohiyatini to‘laqonli namoyon etishiga imkon yaratadi. Shu sababli ijtimoiy mobillikni xotin-qizlar ijtimoiy faolligini ta’minlovchi muhim kuchlardan biri sifatida baholash mumkin.

Ijtimoiy mobillik turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Sotsiologiyada, avvalo, vertikal va gorizontal mobillik farqlanadi.

Vertikal mobillik shaxsning ijtimoiy mavqei yuqorilashi yoki pasayishi bilan bog‘liq. Masalan, oddiy mutaxassisning tashkilot rahbari lavozimiga tayinlanishi, o‘qituvchining ilmiy daraja olishi, tadbirkorning biznesini kengaytirishi yoki davlat boshqaruvi tizimida yuqori mas’uliyatli lavozimga ko‘tarilishi yuqoriga yo‘nalgan vertikal mobillik hisoblanadi.

Xotin-qizlar nuqtayi nazaridan vertikal mobillikning ahamiyati juda katta. Ayolning o‘rta maxsus ma’lumotdan oliy ta’limga, oddiy xodimlikdan boshqaruv lavozimiga, mahalliy darajadagi faoliyatdan respublika yoki xalqaro miqyosdagi faoliyatga o‘tishi uning ijtimoiy imkoniyatlari kengayganini ko‘rsatadi.

Gorizontal mobillik esa insonning ijtimoiy mavqei tubdan o‘zgarmagan holda bir faoliyat turi, tashkilot yoki hududdan boshqasiga o‘tishini anglatadi. Masalan, bir ta’lim muassasasida ishlayotgan ayol pedagogning boshqa oliy ta’lim muassasasiga o‘tishi yoki shifokorning bir tibbiyot muassasasidan boshqasiga ishga joylashishi gorizontal mobillik shaklidir.

Hududiy mobillik ham bugungi jamiyatda muhim ahamiyatga ega. Qishloq joylarda yashayotgan qizlarning shahar markazlarida ta’lim olishi, boshqa hududda ishlashi yoki xalqaro ta’lim dasturlarida ishtirok etishi ularning yangi ijtimoiy va madaniy muhitga kirib borishiga yordam beradi.

Kasbiy mobillik insonning yangi kasb yoki mutaxassislikni egallashi bilan bog‘liq. Raqamli iqtisodiyot rivojlanib borayotgan sharoitda xotin-qizlarning axborot texnologiyalari, muhandislik, zamonaviy tibbiyot, biznes boshqaruvi,

moliya, ekologiya, dizayn va boshqa sohalarni o‘zlashtirishi kasbiy mobillikning yangi ko‘rinishlarini yuzaga keltirmoqda.

Ta’limiy mobillik esa, shaxsning ta’lim darajasi va bilim imkoniyatlari oshishi bilan namoyon bo‘ladi. Ta’lim xotin-qizlarning ijtimoiy mobilligini ta’minlovchi eng muhim vositalardan biridir. Bilimli ayol kasb tanlash, mehnat bozoriga kirish, iqtisodiy jihatdan mustaqil bo‘lish va jamoat hayotida faol qatnashish uchun ko‘proq imkoniyatga ega bo‘ladi.

Xotin-qizlar ijtimoiy faolligi ularning jamiyat hayotining turli sohalarida ongli va tashabbuskor ishtirok etishini ifodalaydi. Ijtimoiy faollik faqat mehnat qilish yoki jamoat tadbirlarida qatnashish bilangina cheklanmaydi. U shaxsning jamiyatdagi muammolarga munosabat bildirish, o‘z fikrini erkin ifodalash, yangilik yaratish, tashabbus ko‘rsatish va ijtimoiy mas’uliyatni his etish qobiliyatini ham qamrab oladi.

Ayolning oila doirasidagi faolligi ham muhim, ammo zamonaviy jamiyatda uning ijtimoiy roli bundan ancha kengaydi. Bugungi xotin-qizlar ta’lim, tibbiyot, ilm-fan, madaniyat, tadbirkorlik, davlat boshqaruvi, nodavlat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari, sport va axborot texnologiyalari kabi ko‘plab sohalarda faol ishtirok etmoqda.

Ijtimoiy faol ayol jamiyat hayotida kuzatuvchi emas, balki undagi jarayonlarga ta’sir ko‘rsata oladigan subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. U o‘z manfaatlarini anglaydi, o‘z huquqlarini biladi, jamiyat oldidagi mas’uliyatini his qiladi va mavjud imkoniyatlardan foydalanishga intiladi.

Xotin-qizlar faolligi oila va jamiyat manfaatlari o‘rtasidagi qarama-qarshilik sifatida emas, balki ularning o‘zaro uyg‘unlashuvi sifatida tushunilishi lozim. Kasbiy va ijtimoiy jihatdan faol ayol o‘z bilim va tajribasini oilada ham, jamiyatda ham qo‘llaydi. Uning dunyoqarashi, ijtimoiy tajribasi va iqtisodiy mustaqilligi farzandlar tarbiyasi, oilaviy qarorlar va jamiyatdagi ijtimoiy muhitga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Ijtimoiy mobillik va xotin-qizlar ijtimoiy faolligi o‘zaro chambarchas bog‘liq tushunchalardir. Ijtimoiy mobillik uchun zarur imkoniyatlarning mavjudligi ayollar

faolligini oshirsa, o‘z navbatida xotin-qizlarning tashabbuskorligi ularning yangi ijtimoiy mavqelarga ko‘tarilishiga yordam beradi. Masalan, qiz bola sifatli ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘lsa, kelajakda yuqori malakali mutaxassis bo‘lish imkoniyati ortadi. Kasbiy tajribaga ega bo‘lgan ayol esa rahbarlik yoki tadbirkorlik faoliyatiga kirishi mumkin. Bu jarayon uning iqtisodiy va ijtimoiy mavqeini o‘zgartiradi. Shu tariqa ta’limdan kasbga, kasbdan iqtisodiy mustaqillikka, iqtisodiy mustaqillikdan esa kengroq ijtimoiy faollikka olib boruvchi uzviy jarayon shakllanadi.

Ijtimoiy mobillik insonda o‘z imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchni ham kuchaytiradi. Jamiyatda bilimli va faol xotin-qizlarning muvaffaqiyatga erishayotganini ko‘rish yosh qizlarning kelajak haqidagi tasavvurlarini kengaytiradi. Ular ta’lim olish, kasb egallash, ilmiy izlanish olib borish yoki tadbirkorlik bilan shug‘ullanishni real hayotiy maqsad sifatida qabul qila boshlaydi.

Shu ma’noda ijtimoiy mobillik faqat moddiy mavqening o‘zgarishi emas. U insonning o‘zini anglash darajasi, dunyoqarashi, ijtimoiy mas’uliyati va hayotiy maqsadlariga ham sezilarli ta’sir qiladi.

Ta’lim xotin-qizlarning ijtimoiy mobilligini ta’minlovchi eng kuchli vositalardan biri hisoblanadi. Bilim shaxsga nafaqat kasb, balki mustaqil fikrlash, huquq va imkoniyatlarini anglash hamda ijtimoiy jarayonlarni to‘g‘ri baholash imkoniyatini beradi.

Qizlarning sifatli maktab ta’limidan foydalanishi, kasb-hunar o‘rganishi va oliy ta’limga kirishi ularning kelajakdagi ijtimoiy mavqeini belgilashda hal qiluvchi o‘rin egallaydi. Oliy ma’lumotga ega ayolning mehnat bozorida raqobatbardoshligi yuqori bo‘lib, uning kasbiy faoliyatini mustaqil ravishda rejalashtirish imkoniyati ham kengayadi.

Ta’lim shaxsning ichki mobilligini ham ta’minlaydi. Bilimli inson yangilikni o‘zlashtirishga, kasbini takomillashtirishga va o‘zgaruvchan sharoitga moslashishga moyil bo‘ladi. Shu jihatdan uzluksiz ta’lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish dasturlari xotin-qizlarning zamonaviy mehnat bozoridagi mavqeini mustahkamlaydi.

Bugungi kunda ta’lim faqat an’anaviy auditoriyalar bilan chegaralanib qolmagan. Masofaviy ta’lim, elektron kurslar, xalqaro ta’lim platformalari, kasbiy sertifikatlar va onlayn treninglar xotin-qizlar uchun yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, oilaviy majburiyatlari sababli doimiy ta’lim muassasasiga borish imkoniyati cheklangan ayollar uchun masofaviy ta’lim muhim vositaga aylanmoqda.

Ta’limning yana bir muhim natijasi – ayollarda ijtimoiy va huquqiy ongning shakllanishidir. O‘z huquqini biladigan, jamiyatdagi jarayonlarni tushunadigan va o‘z fikrini asoslay oladigan ayol ijtimoiy hayotda faolroq bo‘ladi.

Mehnat xotin-qizlarning ijtimoiy mobilligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Kasbiy faoliyat ayolga daromad olish bilan bir qatorda o‘z qobiliyatini ro‘yobga chiqarish, jamiyatda muayyan mavqega ega bo‘lish va professional aloqalar doirasini kengaytirish imkonini beradi.

Iqtisodiy mustaqillik ijtimoiy faollikning muhim tayanchi hisoblanadi. Daromad manbaiga ega ayol o‘z hayotiga doir qarorlarni mustaqilroq qabul qilishi mumkin. U ta’limga, sog‘lom turmushga, farzandlar kelajagiga va shaxsiy rivojlanishiga investitsiya kiritish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Mehnat bozoridagi faoliyat ayolning professional identifikatsiyasini shakllantiradi. U o‘zini faqat oiladagi muayyan rol orqali emas, balki shifokor, pedagog, olim, tadbirkor, muhandis, jurnalist, huquqshunos yoki boshqa kasb vakili sifatida ham anglay boshlaydi.

Mehnat bozorida gender asosidagi sun’iy cheklovlarning kamayishi xotin-qizlarning ijtimoiy mobilligini yanada kuchaytiradi. Kasblarni “erkaklar kasbi” yoki “ayollar kasbi” tarzida qat’iy ajratish zamonaviy mehnat munosabatlariga mos kelmaydi. Kasb tanlashda shaxsning qobiliyati, qiziqishi, bilimi va tayyorgarligi asosiy mezon bo‘lishi zarur.

Xotin-qizlarning yuqori texnologik, ilmiy va boshqaruv sohalariga faol kirib borishi ijtimoiy mobillikning sifat jihatdan yangi bosqichini anglatadi. Bu jarayon ularning iqtisodiy imkoniyatlarini oshirish bilan bir qatorda jamiyatdagi professional nufuzini ham mustahkamlaydi.

Tadbirkorlik zamonaviy jamiyatda xotin-qizlar mobilligining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Ayol o‘z biznesini tashkil etish orqali nafaqat mustaqil daromad manbaiga ega bo‘ladi, balki yangi ish o‘rinlari yaratadi, mahalliy iqtisodiyot rivojiga hissa qo‘shadi va boshqaruv tajribasini shakllantiradi.

Xotin-qizlar tadbirkorligining rivojlanishi ayniqsa hududlarda muhim ahamiyatga ega. Oilaviy tadbirkorlik, hunarmandchilik, xizmat ko‘rsatish, qishloq xo‘jaligi, ta’lim, tibbiy xizmat, raqamli xizmatlar va elektron savdo kabi yo‘nalishlarda ayollar uchun katta imkoniyatlar mavjud.

Zamonaviy tadbirkorlik moliyaviy savodxonlikni ham talab qiladi. Kredit, investitsiya, biznes-reja, marketing, elektron tijorat va soliqqa oid bilimlarga ega ayol o‘z biznesini barqaror rivojlantira oladi.

Tadbirkor ayolning ijtimoiy faolligi ko‘pincha biznes doirasidan chiqib ketadi. U boshqa ayollarni ish bilan ta’minlashi, kasbga o‘rgatishi, jamoat loyihalarini qo‘llab-quvvatlashi va hududdagi ijtimoiy muammolarni hal qilishda ishtirok etishi mumkin. Shuning uchun tadbirkorlikni faqat iqtisodiy faoliyat sifatida emas, balki xotin-qizlarning ijtimoiy salohiyatini oshiruvchi vosita sifatida ham baholash lozim.

Xotin-qizlarning ijtimoiy mobilligi ularning boshqaruv tizimidagi ishtiroki bilan ham uzviy bog‘liq. Ayollarning davlat boshqaruvi, ta’lim va tibbiyot muassasalari, biznes tuzilmalari hamda jamoat tashkilotlaridagi rahbarlik lavozimlariga ko‘tarilishi vertikal ijtimoiy mobillikning yaqqol ko‘rinishidir.

Rahbarlikda xotin-qizlarning ishtiroki qaror qabul qilish jarayonida jamiyatning turli qatlamlari manfaatlari to‘liqroq inobatga olinishiga xizmat qilishi mumkin. Chunki turli hayotiy tajribaga ega insonlarning boshqaruv tizimidagi ishtiroki qarorlarning ko‘p tomonlama shakllanishiga sharoit yaratadi.

Rahbar ayolning muvaffaqiyati boshqa xotin-qizlar uchun ham motivatsion ahamiyatga ega. Bunday ijtimoiy tajriba jamiyatdagi stereotiplarni kamaytirishga yordam beradi. Yosh qizlar o‘z kelajagini rahbarlik, ilmiy yoki siyosiy faoliyat bilan bog‘lashga ko‘proq intila boshlaydi.

Biroq rahbarlikka ko‘tarilishning o‘zi yetarli emas. Buning uchun xotin-qizlarda kasbiy malaka, strategik fikrlash, jamoani boshqarish, muzokara olib borish,

mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish va qarorlarning oqibatini baholash ko‘nikmalari shakllangan bo‘lishi zarur.

Ilm-fan xotin-qizlar ijtimoiy mobilligining eng yuqori shakllaridan birini ifodalaydi. Ilmiy daraja olish, tadqiqot olib borish, innovatsion ishlanmalar yaratish va ilmiy jamoalarni boshqarish ayolning professional hamda ijtimoiy mavqeini sezilarli ravishda oshiradi.

Zamonaviy ilm-fan yangi g‘oyalar va xilma-xil yondashuvlarni talab qiladi. Xotin-qizlarning fundamental va amaliy fanlarda faol ishtiroki ilmiy muhitning intellektual imkoniyatlarini kengaytiradi.

Tibbiyot, biologiya, pedagogika, psixologiya, iqtisodiyot, muhandislik va axborot texnologiyalarida faoliyat yuritayotgan ayollarning ko‘payishi yosh avlod uchun ham muhim namuna yaratadi. Bu, ayniqsa, qizlarning tabiiy va texnik fanlarga qiziqishini kuchaytiradi.

Ilmiy mobillikning yana bir muhim jihati xalqaro akademik hamkorlik bilan bog‘liq. Stajirovkalar, ilmiy konferensiyalar, xalqaro grantlar va qo‘shma tadqiqotlar ayollarning professional aloqalarini kengaytiradi. Natijada ularning jamiyatdagi nufuzi ham ortadi.

Raqamli texnologiyalar xotin-qizlarning ijtimoiy mobilligiga yangi mazmun olib kirdi. Internet, masofaviy ish, elektron tijorat va raqamli ta’lim platformalari ayollarning avval cheklangan bo‘lishi mumkin bo‘lgan imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Masalan, chekka hududda yashaydigan ayol internet orqali xorijiy til, dasturlash, marketing yoki dizayn o‘rganishi mumkin. U masofadan turib xizmat ko‘rsatishi, mahsulot sotishi yoki xalqaro mehnat bozoriga chiqishi mumkin.

Raqamli iqtisodiyotda jismoniy joylashuvning ahamiyati nisbatan kamaymoqda. Bu holat xotin-qizlarning hududiy va kasbiy mobilligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Uy sharoitida turib ham muayyan professional faoliyatni olib borish imkoniyatining paydo bo‘lishi ko‘plab ayollarga mehnat va oilaviy vazifalarni uyg‘unlashtirish imkonini bermoqda.

Shu bilan birga, raqamli savodxonlik masalasi muhim bo‘lib qolmoqda. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyati mavjud bo‘lmasa,

raqamlashtirish ijtimoiy tafovutlarni ham kuchaytirishi mumkin. Shuning uchun xotin-qizlar, ayniqsa qishloq hududlaridagi ayollar uchun raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirish muhim vazifadir.

Oila xotin-qizlar ijtimoiy mobilligiga kuchli ta’sir ko‘rsatadigan muhit hisoblanadi. Oila tomonidan ta’lim olish, kasb tanlash va professional rivojlanishga berilgan ko‘mak ayolning kelajak imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirishi mumkin. Qiz bolaning ta’limiga investitsiya qilish nafaqat uning shaxsiy kelajagiga, balki kelajakdagi oilasi va butun jamiyat taraqqiyotiga ta’sir qiladi. Bilimli ona farzand tarbiyasida ta’lim va sog‘lom turmush qadriyatlariga ko‘proq e’tibor berishi mumkin. Shu tariqa bir avloddagi ijtimoiy mobillik keyingi avlod uchun ham yangi imkoniyatlarni yuzaga keltiradi.

Oilada vazifalarning oqilona taqsimlanishi ham ayolning ijtimoiy faolligi uchun muhimdir. Barcha maishiy va tarbiyaviy vazifalar faqat ayol zimmasiga yuklatilsa, uning ta’lim olish, kasbiy rivojlanish va jamoat ishlarida qatnashish imkoniyati cheklanishi mumkin. Demak, xotin-qizlarning ijtimoiy mobilligini qo‘llab-quvvatlash oilaviy munosabatlar madaniyatining rivojlanishini ham talab qiladi. Oila ayolning faolligiga to‘sqinlik qiladigan emas, balki uning salohiyatini qo‘llab-quvvatlaydigan ijtimoiy muhitga aylanishi lozim.

Xotin-qizlarning ijtimoiy mobilligiga to‘sqinlik qiluvchi omillardan biri jamiyatda saqlanib qolgan stereotiplardir. Ayrim hollarda ayolning kasbiy yoki rahbarlik faoliyati uning an’anaviy roli bilan qarama-qarshi qo‘yilishi mumkin. Bunday qarashlar ayolning o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishiga psixologik va ijtimoiy to‘siq yaratadi.

Stereotiplarning eng xavfli jihati shundaki, ular ba’zan shaxsning o‘zi tomonidan ham tabiiy haqiqat sifatida qabul qilinadi. Masalan, qiz bolaning muayyan kasbni “o‘ziga mos emas” deb hisoblashida uning qobiliyatidan ko‘ra ijtimoiy tasavvurlar ko‘proq rol o‘ynashi mumkin.

Stereotiplarni kamaytirish uchun ta’lim, ommaviy axborot vositalari, oila tarbiyasi va madaniy muhit muhim ahamiyatga ega. Jamiyatda turli sohalarda

muvaffaqiyatga erishgan ayollarning faoliyati haqida xolis va mazmunli axborot berish yoshlarning kasbiy tasavvurlarini kengaytiradi.

Bunda ayollarning muvaffaqiyatini erkaklar bilan qarama-qarshi qo‘yish emas, balki barcha fuqarolarning teng imkoniyat va mas’uliyat tamoyiliga asoslangan rivojlanishi muhim hisoblanadi.

Xotin-qizlarning ijtimoiy mobilligi huquqiy sharoit bilan ham chambarchas bog‘liq. Inson ta’lim, mehnat, tadbirkorlik, mulkka egalik qilish va jamiyat boshqaruvida qatnashish huquqlaridan amalda foydalana olsagina uning ijtimoiy mobilligi ro‘yobga chiqadi.

Huquqiy kafolatlarning mavjudligi xotin-qizlarning jamiyatdagi ishtiroki uchun asos yaratadi. Biroq qonuniy imkoniyat bilan real imkoniyat o‘rtasida farq bo‘lishi mumkin. Shu bois huquqiy madaniyatni oshirish ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Ayol o‘z mehnat huquqlarini, ta’lim imkoniyatlarini, tadbirkorlik faoliyatini olib borish tartibini va huquqiy himoya mexanizmlarini bilishi lozim. Huquqiy savodxonlik shaxsning mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini kuchaytiradi.

Jamiyatda xotin-qizlarning huquqlariga hurmat bilan munosabat shakllanishi ijtimoiy mobillikni tezlashtiradi. Chunki huquq va imkoniyat o‘rtasidagi uyg‘unlikgina real ijtimoiy faollikni yuzaga keltiradi.

Xotin-qizlarning ijtimoiy mobilligi hududiy sharoitlarga ham bog‘liq. Shahar hududlarida oliy ta’lim muassasalari, ish o‘rinlari, axborot texnologiyalari va xizmatlar ko‘proq to‘plangan bo‘lishi mumkin. Bu esa ayollar uchun kasbiy tanlov imkoniyatlarini kengaytiradi.

Qishloq hududlarida esa imkoniyatlarning hududiy cheklanganligi, transport masalasi yoki malaka oshirish markazlarining uzoqligi ayollarning ijtimoiy mobilligiga ta’sir qilishi mumkin. Biroq zamonaviy kommunikatsiya va raqamli texnologiyalar bu farqni qisqartirish imkonini bermoqda. Onlayn ta’lim, masofaviy bandlik, elektron savdo va mobil xizmatlarning rivojlanishi qishloq ayollari uchun yangi yo‘nalishlarni ochmoqda.

Mahalliy xususiyatlarni hisobga olgan holda kasbiy tayyorlash dasturlari tashkil etilishi ham samarali natija beradi. Muayyan hudud iqtisodiyotiga mos bo‘lgan hunarmandchilik, agrotexnologiyalar, turizm, xizmat ko‘rsatish, qayta ishlash va raqamli xizmat yo‘nalishlari xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirish imkonini beradi.

Insonning ijtimoiy mobilligi faqat bilim yoki moddiy resurslarga bog‘liq emas. Ijtimoiy aloqalar, professional tarmoqlar va o‘zaro hamkorlik ham katta ahamiyatga ega. Sotsiologiyada bu tushuncha ko‘pincha ijtimoiy kapital sifatida ifodalanadi.

Xotin-qizlarning professional uyushmalar, ilmiy jamiyatlar, tadbirkorlar tarmoqlari, nodavlat tashkilotlar va jamoatchilik guruhlaridagi ishtiroki ularning yangi imkoniyatlardan xabardor bo‘lishiga yordam beradi.

Mentorlik tizimi ham bu jarayonda samarali vosita hisoblanadi. Tajribali mutaxassisning yosh ayolga kasbiy maslahat berishi, yo‘nalish ko‘rsatishi va professional aloqalar shakllantirishga ko‘maklashishi uning kasbiy mobilligini tezlashtirishi mumkin.

Ijtimoiy kapital shaxsning qiyin vaziyatlarni yengib o‘tish qobiliyatiga ham ta’sir qiladi. Ish yoki ta’lim bilan bog‘liq muammo yuzaga kelganda mustahkam professional va ijtimoiy aloqalarga ega inson muqobil yo‘l topishga ko‘proq imkoniyatga ega bo‘ladi.

Ijtimoiy mobillikni faqat tashqi sharoit bilan tushuntirib bo‘lmaydi. Shaxsning ichki motivatsiyasi, hayotiy maqsadi, o‘z kuchiga ishonishi va tashabbuskorligi ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. Xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish uchun ularda o‘z qobiliyatini anglash va rivojlantirish istagini shakllantirish muhimdir. Inson oldiga aniq maqsad qo‘ya olsa, o‘z imkoniyatlarini baholasa va muntazam bilim olishga intilsa, ijtimoiy mobillik uchun zarur ichki tayanch shakllanadi.

O‘ziga ishonch ijtimoiy muvaffaqiyatning muhim psixologik omillaridan biridir. Ba’zi ayollar yetarli bilim va salohiyatga ega bo‘lsa ham, o‘z imkoniyatini past baholashi mumkin. Shu sababli kasbiy yo‘naltirish, psixologik maslahat va mentorlik faoliyati katta ahamiyatga ega.

Tashabbuskorlik esa, mavjud imkoniyatni kutish emas, balki uni izlash va yaratishga intilishdir. Yangi bilim olish, yangi loyiha boshlash, tanlovlarda qatnashish yoki kasbiy malakani oshirish kabi harakatlar ijtimoiy mobillikning individual mexanizmlarini shakllantiradi.

Ijtimoiy mobillikni avlodlararo nuqtayi nazardan ham ko‘rib chiqish mumkin. Avlodlararo mobillik farzandlarning ota-onasiga nisbatan yuqoriroq yoki boshqa ijtimoiy mavqega ega bo‘lishini anglatadi. Masalan, oliy ma’lumot olmagan oilada ulg‘aygan qizning universitetni tamomlashi, ilmiy darajaga ega bo‘lishi yoki rahbarlik lavozimiga erishishi avlodlararo ijtimoiy mobillikning yaqqol ko‘rinishidir.

Bunday o‘zgarish nafaqat bir insonning hayotini, balki butun oilaning ijtimoiy mavqeini o‘zgartirishi mumkin. Bilimli va iqtisodiy jihatdan faol ayol o‘z farzandlarining ta’limiga ko‘proq e’tibor beradi. Natijada ijtimoiy mobillikning ijobiy zanjiri yuzaga keladi.

Shu sababli qizlarning ta’limini qo‘llab-quvvatlash uzoq muddatli ijtimoiy rivojlanish nuqtayi nazaridan nihoyatda muhimdir. Bugun bir qizning ta’limga ega bo‘lishi ertaga butun oilaning, keyinchalik esa keyingi avlodning imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin.

Xotin-qizlarning ijtimoiy mobilligi doimo bir xil sharoitda kechmaydi. Turli iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va psixologik omillar bu jarayonni sekinlashtirishi mumkin.

Birinchi omil – ta’lim imkoniyatlarining cheklanishi. Yetarli bilim va kasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lmaslik mehnat bozoridagi raqobatbardoshlikni kamaytiradi.
Ikkinchi omil – bandlik imkoniyatlarining kamligi. Ayniqsa, ayrim hududlarda yuqori malakali ish o‘rinlarining yetarli emasligi xotin-qizlarning professional rivojlanishiga ta’sir qiladi.

Uchinchi omil – oilaviy va mehnat vazifalarini uyg‘unlashtirishdagi qiyinchiliklardir. Farzand tarbiyasi va uy xo‘jaligi vazifalarining nomutanosib taqsimlanishi ayolning kasbiy rivojlanishiga ajrata oladigan vaqtini kamaytiradi.
To‘rtinchi omil – stereotiplar va o‘ziga nisbatan ishonchsizlik. Ba’zan jamiyatdagi qarashlar shaxsning o‘z tanlovini cheklashiga olib keladi.

Beshinchi omil – axborot tanqisligi. Imtiyoz, grant, ta’lim dasturi yoki bo‘sh ish o‘rni mavjud bo‘lsa ham, bu haqdagi ma’lumotning yetib bormasligi imkoniyatdan foydalanishga to‘sqinlik qilishi mumkin.

Shuning uchun ijtimoiy mobillikni rivojlantirish faqat bitta yo‘nalishdagi choralar bilan emas, balki ta’lim, bandlik, oilaviy qo‘llab-quvvatlash, axborot va ijtimoiy xizmatlarni o‘zaro uyg‘unlashtirish asosida amalga oshirilishi kerak.

Xotin-qizlarning yuqori ijtimoiy faolligi jamiyatning umumiy barqarorligiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Chunki aholining katta qismini tashkil etuvchi xotin-qizlarning salohiyatidan to‘liq foydalanilmasligi iqtisodiy va intellektual resurslarning bir qismini chetda qoldirishni anglatadi.

Ayollarning iqtisodiy faol bo‘lishi oilalar daromadi va turmush farovonligiga ijobiy ta’sir qilishi mumkin. Ularning ta’lim va tibbiyot sohalaridagi faolligi inson kapitalining rivojlanishiga yordam beradi. Tadbirkor ayollar yangi ish o‘rinlari yaratadi. Ilm-fan va boshqaruv sohasidagi xotin-qizlar esa yangi g‘oya va yondashuvlarni ilgari suradi.

Ijtimoiy mobillikning mavjudligi jamiyatda adolat tuyg‘usini ham mustahkamlaydi. Inson kelib chiqishi yoki jinsidan qat’i nazar, o‘z bilim va mehnati orqali rivojlanish imkoniyatiga ega ekanini his qilsa, jamiyatga nisbatan ishonchi oshadi.

Ijtimoiy mobil jamiyat o‘zgaruvchan sharoitga tezroq moslashadi. Chunki unda insonlarning imkoniyatlari qat’iy ijtimoiy chegaralar bilan bog‘lab qo‘yilmaydi. Har kim o‘z salohiyatiga mos yo‘lni tanlash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Xotin-qizlarning ijtimoiy mobilligini kengaytirish kompleks yondashuvni talab etadi. Birinchi navbatda, qizlarning sifatli ta’lim olishi uchun teng va real imkoniyatlar yaratilishi zarur.

Ikkinchidan, kasbga yo‘naltirish tizimi kuchaytirilishi lozim. Qizlarga zamonaviy mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasblar haqida to‘liq axborot berish muhimdir.

Uchinchidan, xotin-qizlarning kasbiy malakasini muntazam oshirib borish imkoniyatlarini kengaytirish talab qilinadi. Qisqa muddatli kurslar, qayta tayyorlash dasturlari, xorijiy tillar va raqamli ko‘nikmalar bu borada alohida ahamiyatga ega.

To‘rtinchidan, ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini rivojlantirish kerak. Moliyaviy savodxonlik, biznes maslahatlari va marketing ko‘nikmalari tadbirkor ayollarning muvaffaqiyatiga xizmat qiladi.

Beshinchidan, mentorlik va professional tarmoq tizimlarini shakllantirish foydalidir. Tajribali ayollarning yosh mutaxassislarga ko‘mak ko‘rsatishi ijtimoiy mobillik jarayonini tezlashtiradi.

Oltinchidan, ish va oilaviy hayotni uyg‘unlashtirish imkoniyatlarini kengaytirish lozim. Moslashuvchan mehnat tartibi, masofaviy faoliyat va ijtimoiy xizmatlarning rivojlanishi bu jarayonga yordam beradi.

Yettinchidan, jamiyatda xotin-qizlarning kasbiy va ijtimoiy imkoniyatlariga nisbatan ijobiy madaniy munosabatni rivojlantirish zarur. Bunda oilalar, ta’lim muassasalari va ommaviy kommunikatsiya vositalarining mas’uliyati yuqori.

Bugungi jamiyatda xotin-qizlarning ijtimoiy qiyofasi sezilarli ravishda o‘zgarmoqda. Zamonaviy ayol bir vaqtning o‘zida oila a’zosi, mutaxassis, tadbirkor, olim, rahbar va jamoat faoli bo‘lishi mumkin.

Mazkur rollarning ko‘payishi ayolning ijtimoiy mavqeini murakkablashtiradi, shu bilan birga yangi imkoniyatlar yaratadi. Shaxsning turli faoliyat yo‘nalishlarida o‘zini namoyon qilishi uning ijtimoiy tajribasini boyitadi.

Biroq zamonaviy ayol obrazini faqat yuqori lavozim yoki iqtisodiy muvaffaqiyat bilan bog‘lash to‘g‘ri emas. Ijtimoiy mobillikning mazmuni har bir insonning o‘z qobiliyati va maqsadlariga mos hayot yo‘lini erkin tanlash imkoniyatiga ega bo‘lishidadir.

Kimdir ilmiy faoliyatni tanlashi, boshqasi tibbiyot yoki pedagogikada o‘z o‘rnini topishi, yana kimdir tadbirkorlik bilan shug‘ullanishi mumkin. Muhim jihat shundaki, tanlov majburiy stereotiplar emas, balki shaxsning qobiliyati va ongli qaroriga asoslanishi kerak.

Ijtimoiy mobillik jamiyatda xotin-qizlar ijtimoiy faolligini ta’minlovchi muhim kuchlardan biridir. U ayollarning ta’lim olishi, kasb egallashi, iqtisodiy mustaqillikka erishishi, ilm-fan va tadbirkorlikda faoliyat yuritishi, rahbarlik va qaror qabul qilish jarayonlarida ishtirok etishi uchun imkoniyatlar yaratadi.

Xotin-qizlar mobilligi shaxsiy muvaffaqiyat bilan cheklanib qolmaydi. Uning natijalari oila farovonligi, farzandlar tarbiyasi, mehnat bozori rivoji, inson kapitali va jamiyatning umumiy ijtimoiy barqarorligiga ta’sir ko‘rsatadi.

Ta’lim, iqtisodiy imkoniyatlar, huquqiy savodxonlik, raqamli ko‘nikmalar va ijtimoiy kapital xotin-qizlar mobilligini shakllantiruvchi asosiy omillardir. Shu bilan birga, stereotiplar, axborot tanqisligi, kasbiy imkoniyatlarning cheklanganligi va oilaviy yuklamaning nomutanosib taqsimlanishi bu jarayonni sekinlashtirishi mumkin. Shuning uchun xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirishda ularga tayyor imkoniyat yaratib berishning o‘zi yetarli emas. Ayollarning ushbu imkoniyatlardan foydalanishi uchun bilim, kasbiy kompetensiya, huquqiy ong, iqtisodiy savodxonlik va o‘z kuchiga ishonch ham shakllantirilishi kerak.

Ijtimoiy mobillik rivojlangan jamiyatda ayol o‘z kelajagini kelib chiqishi yoki oldindan belgilangan ijtimoiy qoliplar asosida emas, balki bilimi, salohiyati, mehnati va ongli tanlovi orqali qurish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ana shunday muhitda xotin-qizlarning ijtimoiy faolligi jamiyat taraqqiyotining muhim resursiga aylanadi.

2.2. Zamonaviy jamiyatlarda xotin-qizlar ijtimoiy faolligini ta’minlovchi gorizontal va vertikal ijtimoiy mobillik kanallarining tasnifi

Zamonaviy jamiyatlarning rivojlanish xususiyatlarini ijtimoiy mobillik jarayonlarisiz tasavvur etish qiyin. Jamiyatdagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ta’limiy va texnologik o‘zgarishlar insonlarning ijtimoiy makondagi o‘rniga bevosita ta’sir ko‘rsatib, ularning bir ijtimoiy holatdan boshqasiga o‘tishi uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Ayniqsa, xotin-qizlarning ijtimoiy faolligi masalasini tahlil qilishda ijtimoiy mobillik tushunchasi alohida metodologik ahamiyat kasb etadi. Chunki xotin-qizlarning ta’lim tizimiga kirishi, yangi kasb egallashi, hududiy harakatlanishi, mehnat bozoridagi o‘rnini o‘zgartirishi, tadbirkorlik bilan shug‘ullanishi, davlat va

jamoat boshqaruvida yuqori mavqelarga erishishi ularning ijtimoiy mobilligi bilan uzviy bog‘liqdir.

Ijtimoiy mobillik shaxs, guruh yoki ijtimoiy qatlamning jamiyat ijtimoiy tuzilmasidagi bir pozitsiyadan boshqa pozitsiyaga ko‘chishini anglatadi. Bunday o‘zgarish ijtimoiy maqom, kasb, daromad, ta’lim darajasi, yashash hududi, siyosiy mavqe, boshqaruv vakolati yoki boshqa ijtimoiy belgilar bilan ifodalanishi mumkin. Shu sababli mobillikni oddiy makondagi harakat deb emas, balki shaxsning ijtimoiy imkoniyatlari va resurslari qayta shakllanadigan murakkab jarayon sifatida tushunish maqsadga muvofiq.

Ijtimoiy mobillik nazariyasida uning ikki asosiy turi — gorizontal va vertikal mobillik alohida ajratiladi. Gorizontal mobillik shaxsning ijtimoiy ierarxiyadagi umumiy darajasi keskin o‘zgarmagan holda bir pozitsiyadan boshqa o‘xshash pozitsiyaga o‘tishini bildiradi. Vertikal mobillik esa ijtimoiy mavqening yuqoriga yoki pastga qarab o‘zgarishi bilan tavsiflanadi.

Xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini o‘rganishda mazkur ikki tur bir-biridan ajratilgan hodisa emas. Aksincha, ular ko‘pincha ketma-ket va o‘zaro bog‘liq jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, ayolning boshqa hududga ko‘chib, yangi ish joyiga kirishi dastlab gorizontal mobillik shakli bo‘lishi mumkin. Biroq yangi muhitda malakasini oshirib, rahbarlik lavozimiga ko‘tarilishi vertikal mobillikka aylanadi. Shu tariqa gorizontal mobillik ko‘p hollarda vertikal o‘sishga tayyorlovchi bosqich vazifasini bajaradi.

Zamonaviy jamiyat sharoitida xotin-qizlar ijtimoiy mobilligini faqat lavozimning ko‘tarilishi bilan o‘lchash yetarli emas. Ta’lim olish imkoniyatining kengayishi, yangi kommunikativ muhitga kirish, professional tarmoqlarda ishtirok etish, raqamli kompetensiyalarning shakllanishi, mustaqil tadbirkorlik faoliyatiga kirish kabi jarayonlar ham ijtimoiy mobillikning muhim ko‘rinishlaridir.

Shu nuqtayi nazardan, ijtimoiy mobillik xotin-qizlarning jamiyatdagi mavjud imkoniyatlardan foydalanishi, yangi ijtimoiy makonlarni egallashi va qaror qabul qilish jarayonlarida faol subyektga aylanishini ta’minlovchi mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Ijtimoiy mobillik o‘z-o‘zidan sodir bo‘ladigan tasodifiy jarayon emas. Shaxsning ijtimoiy mavqeini o‘zgartirish imkonini beruvchi muayyan institutlar, tizimlar va faoliyat sohalari mavjud. Ularni shartli ravishda ijtimoiy mobillik kanallari deb atash mumkin.

Mobillik kanali — shaxsning bir ijtimoiy pozitsiyadan boshqasiga o‘tishini ta’minlaydigan institutsional yoki ijtimoiy mexanizmdir. Bunday kanallar qatoriga ta’lim, mehnat bozori, davlat xizmati, tadbirkorlik, siyosiy institutlar, fuqarolik jamiyati tashkilotlari, ilm-fan, madaniyat, ommaviy kommunikatsiyalar, hududiy migratsiya va raqamli makon kiradi.

Xotin-qizlarning ijtimoiy faolligiga ta’sir ko‘rsatuvchi mobillik kanallarini tasniflash bir necha mezon asosida amalga oshirilishi mumkin:

1. ijtimoiy harakatning yo‘nalishiga ko‘ra — gorizontal va vertikal;
2. faoliyat sohasiga ko‘ra — ta’limiy, kasbiy, iqtisodiy, siyosiy, hududiy, ilmiy, madaniy va raqamli;
3. institutsional shakliga ko‘ra — rasmiy va norasmiy;
4. davomiyligiga ko‘ra — qisqa muddatli va uzoq muddatli;
5. ko‘lamiga ko‘ra — mahalliy, hududiy, milliy va xalqaro;
6. avlodiy xususiyatiga ko‘ra — avlod ichidagi va avlodlararo mobillik.

Mazkur mezonlarning barchasi xotin-qizlar faolligini har tomonlama baholash imkonini beradi. Chunki bir ayolning ijtimoiy mavqei bir vaqtning o‘zida bir necha kanal orqali o‘zgarishi mumkin.

Gorizontal ijtimoiy mobillik shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy darajasi keskin o‘zgarmagan holda boshqa faoliyat, hudud, tashkilot, guruh yoki ijtimoiy muhitga o‘tishini anglatadi.

Xotin-qizlar faoliyatida gorizontal mobillikning o‘rni ko‘pincha yetarlicha baholanmaydi. Aslida esa gorizontal harakat yangi bilim, tajriba, aloqalar va ijtimoiy kapital to‘planishining asosiy vositalaridan biridir. Masalan, umumta’lim maktabida faoliyat yuritayotgan o‘qituvchining boshqa ta’lim muassasasiga ishga o‘tishi lavozim nuqtayi nazaridan sezilarli o‘zgarish bo‘lmasligi mumkin. Biroq yangi muhit unga professional tajriba, boshqa pedagogik texnologiyalar va yangi ijtimoiy

aloqalarni taqdim etadi. Keyinchalik mazkur tajriba vertikal o‘sish uchun resurs vazifasini bajaradi. Shuning uchun gorizontal mobillikni “mavqesiz harakat” sifatida baholash noto‘g‘ri. U ko‘pincha kelajakdagi ijtimoiy o‘sish uchun zarur kapitalni shakllantiradi.

Gorizontal mobillikning eng aniq ko‘rinishlaridan biri hududiy yoki makoniy mobillikdir. Bunda xotin-qizlarning bir qishloq, tuman, shahar, viloyat yoki mamlakatdan boshqasiga ta’lim, mehnat, kasbiy rivojlanish yoki boshqa maqsadlarda ko‘chishi nazarda tutiladi.

Hududiy mobillik xotin-qizlarning ijtimoiy faolligiga bir necha yo‘nalishda ta’sir ko‘rsatadi. Birinchidan, yangi hududga ko‘chish ta’lim va mehnat imkoniyatlarini kengaytiradi. Ikkinchidan, shaxs yangi madaniy va professional muhitga kiradi. Uchinchidan, uning ijtimoiy aloqalar doirasi kengayadi.

Qishloq hududida yashayotgan qizning oliy ta’lim olish uchun shaharga kelishi bunga yorqin misol bo‘la oladi. Dastlab bu makoniy-gorizontal mobillik sifatida namoyon bo‘ladi. Biroq oliy ma’lumot, kasbiy malaka va keyingi bandlik tufayli ushbu jarayon ijtimoiy mavqening yuqorilashiga olib kelishi mumkin.

Xalqaro akademik va mehnat mobilligi ham ayni jarayonning davomidir. Xorijda ta’lim olish, ilmiy stajirovkalarda qatnashish yoki xalqaro loyihalarda ishlash xotin-qizlarning professional kompetensiyasi va ijtimoiy kapitalini oshiradi. Kasbiy gorizontal mobillik shaxsning mavqei nisbatan bir xil bo‘lgan holda bir kasbiy faoliyat turidan boshqasiga o‘tishini anglatadi. Masalan, pedagogning ta’lim metodisti sifatida ishlashga o‘tishi, jurnalistning jamoatchilik bilan aloqalar sohasiga kirishi, tibbiyot xodimining tibbiy ta’lim yoki sog‘liqni saqlash menejmenti bilan shug‘ullanishi gorizontal kasbiy mobillikka misol bo‘ladi.

Bunday o‘zgarish zamonaviy mehnat bozorida alohida ahamiyatga ega. Chunki bir marta egallangan kasb butun mehnat faoliyati davomida o‘zgarmas bo‘lib qoladigan model tobora kamayib bormoqda.

Xotin-qizlar uchun kasbiy mobillik oilaviy sharoit, mehnat rejimi, sog‘liqni saqlash, yashash hududi yoki yangi kasbiy manfaatlar bilan ham bog‘liq bo‘lishi

mumkin. Muhimi, kasbiy o‘zgarish shaxsning mehnat bozoridan chiqib ketishiga emas, balki yangi shaklda unda ishtirok etishiga imkon bersin.

Gorizontal mobillikning yana bir muhim kanali — bir tashkilotdan boshqasiga o‘tishdir. Xodimning lavozimi saqlanib qolgan holda boshqa muassasaga ishga kirishi uning professional muhitini sezilarli darajada o‘zgartirishi mumkin.
Xotin-qizlar uchun bunday harakat yangi boshqaruv madaniyati, yangi professional jamoa, yuqoriroq texnologik muhit yoki yaxshiroq kasbiy rivojlanish imkoniyatlariga yo‘l ochadi.

Ayniqsa, ilmiy va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi almashinuv professional salohiyatni rivojlantiradi. Bir universitetdan boshqasiga, davlat tashkilotidan nodavlat sektoriga yoki mahalliy kompaniyadan xalqaro tashkilotga o‘tish gorizontal ko‘rinishga ega bo‘lsa ham, uning uzoq muddatli natijalari vertikal o‘sishga olib kelishi mumkin.

Ta’lim tizimining zamonaviylashuvi xotin-qizlarning gorizontal mobilligiga yangi shakllar olib kirdi. Bir mutaxassislik doirasida qo‘shimcha ta’lim olish, parallel malaka egallash, kasbiy sertifikat olish, xorijiy til o‘rganish yoki raqamli ko‘nikmalarni shakllantirish shular jumlasidandir.

Ta’limiy gorizontal mobillik shaxsning formal ijtimoiy mavqeini darhol o‘zgartirmasligi mumkin, ammo uning kompetensiyalari kengayadi. Masalan, filologning raqamli marketing bo‘yicha bilim olishi, pedagogning psixologik maslahat ko‘nikmalarini egallashi yoki shifokorning sog‘liqni saqlash menejmentini o‘rganishi yangi kasbiy yo‘nalishlar uchun imkoniyat yaratadi. Shu sababli zamonaviy jamiyatda ta’limiy mobillik bir martalik oliy ma’lumot olish bilan emas, balki uzluksiz ta’lim tamoyili bilan bog‘lanmoqda.

Xotin-qizlarning ijtimoiy faol bo‘lishida professional va ijtimoiy tarmoqlarga kirishi ham muhim rol o‘ynaydi. Shaxsning yangi professional hamjamiyat, jamoat tashkiloti, ilmiy uyushma yoki tadbirkorlar tarmog‘iga qo‘shilishi kommunikativ mobillik sifatida baholanishi mumkin.

Bunda formal lavozim o‘zgarmasligi mumkin, ammo shaxsning ijtimoiy kapitali kengayadi. U yangi axborot manbalari, professional aloqalar, tajriba almashish va hamkorlik imkoniyatlariga ega bo‘ladi.

Xotin-qizlar uchun bunday tarmoqlar mentorlik, tajriba almashish, ish topish, biznes aloqalari o‘rnatish va professional o‘sishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Raqamli makon ijtimoiy mobillikning yangi kanallaridan biriga aylandi. Internet va axborot texnologiyalari hududiy chegaralarning ahamiyatini kamaytirib, insonning turli professional va ijtimoiy muhitlarga masofadan kirishiga imkon yaratmoqda.

Xotin-qizlar uchun raqamli mobillik masofaviy ta’lim, frilans, elektron tijorat, masofadan ishlash, professional ijtimoiy tarmoqlar va onlayn tadbirkorlik shakllarida namoyon bo‘ladi. Masalan, qishloq hududida yashayotgan ayol masofaviy ravishda grafik dizayn, tarjima yoki dasturlash xizmatlarini ko‘rsatishi mumkin. U jismonan yashash joyini o‘zgartirmagan bo‘lsa ham, iqtisodiy va professional faoliyatining makoni tubdan kengayadi. Shu jihatdan raqamli mobillik gorizontal va vertikal harakat o‘rtasidagi chegaralarni nisbatan yumshatmoqda.

Shaxsning yangi ijtimoiy, madaniy yoki professional guruhga qo‘shilishi ham gorizontal mobillik ko‘rinishidir. Xotin-qizlarning sport, san’at, madaniyat, ko‘ngillilik faoliyati, jamoatchilik tashabbuslari va turli ijtimoiy harakatlarda qatnashishi ularning ijtimoiy doirasini kengaytiradi.

Bunday mobillik ayniqsa shaxsning o‘ziga bo‘lgan ishonchi, kommunikativ ko‘nikmalari va fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishda ahamiyatlidir. Vertikal mobillik shaxsning jamiyat ijtimoiy ierarxiyasidagi mavqeining yuqoriga yoki pastga qarab o‘zgarishini anglatadi.

Xotin-qizlar ijtimoiy faolligi nuqtayi nazaridan yuqoriga yo‘nalgan vertikal mobillik alohida ahamiyatga ega. U odatda ta’lim darajasining ortishi, kasbiy malakaning oshishi, yuqori lavozimga tayinlanish, daromadning ko‘payishi, siyosiy vakolatga ega bo‘lish yoki ilmiy maqomning oshishi orqali namoyon bo‘ladi.

Vertikal mobillik shaxsning nafaqat moddiy, balki ramziy va ijtimoiy kapitalini ham o‘zgartiradi. Masalan, ilmiy darajaga ega bo‘lish daromadni darhol oshirmasligi mumkin, ammo professional nufuz va ta’sir doirasini kengaytiradi.

Ta’lim vertikal ijtimoiy mobillikning eng barqaror va universal kanallaridan biridir. Ayniqsa, xotin-qizlar uchun ta’lim jamiyatdagi yuqoriroq ijtimoiy mavqega erishishning asosiy vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Maktabdan professional ta’limga, professional ta’limdan oliy ta’limga, bakalavriatdan magistratura yoki doktoranturaga o‘tish vertikal ta’limiy mobillikning shakllaridir.

Ta’lim shaxsga faqat diplom emas, balki yangi kasbiy va ijtimoiy resurslar beradi. Yuqori malaka mehnat bozorida yaxshi pozitsiya, yuqoriroq daromad va boshqaruv vakolatlariga erishish imkoniyatini oshiradi.

Xotin-qizlarning ta’lim orqali yuqoriga ko‘tarilishi avlodlararo mobillik nuqtayi nazaridan ham muhimdir. Ota-onasi oliy ma’lumotga ega bo‘lmagan oiladan chiqqan qizning oliy ma’lumot olishi va yuqori malakali mutaxassisga aylanishi butun oilaning ijtimoiy maqomiga ta’sir ko‘rsatadi.

Mehnat tizimida quyi lavozimdan yuqori lavozimga ko‘tarilish vertikal mobillikning klassik shaklidir. Mutaxassisning bo‘lim boshlig‘i, bo‘lim boshlig‘ining tashkilot rahbari yoki quyi boshqaruv bo‘g‘inidan yuqori boshqaruv pog‘onasiga o‘tishi bunga misol bo‘ladi.

Xotin-qizlarning rahbarlik lavozimlariga ko‘tarilishi jamiyatda ularning qaror qabul qilishdagi ta’sirini kuchaytiradi. Bunda faqat lavozimning nomi emas, balki vakolat, resurslarni boshqarish imkoniyati va qarorlarga ta’sir darajasi ham muhimdir. Shu bois vertikal mobillikni baholashda formal lavozim bilan birga real boshqaruv vakolatlarini ham hisobga olish lozim. Daromad, mulk va iqtisodiy mustaqillikning oshishi iqtisodiy vertikal mobillikning mazmunini tashkil qiladi.

Ayolning yollanma mehnatdan mustaqil tadbirkorlikka o‘tishi, kichik biznesdan o‘rta biznes darajasiga chiqishi yoki yuqori malakali mutaxassis sifatida daromadini oshirishi uning iqtisodiy mavqeini o‘zgartiradi.

Iqtisodiy mobillikning xotin-qizlar faolligiga ta’siri ayniqsa muhimdir. Iqtisodiy mustaqillik shaxsga ta’lim, sog‘liq, kasbiy rivojlanish va farzandlar kelajagiga ko‘proq mablag‘ yo‘naltirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, moliyaviy mustaqillik ayolning oilaviy va ijtimoiy qarorlarni qabul qilishdagi mavqeini ham mustahkamlaydi.

Tadbirkorlik xotin-qizlarning vertikal mobilligi uchun katta imkoniyat yaratadi. U an’anaviy tashkilotlarda mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan lavozimiy cheklovlarni chetlab o‘tish imkonini beradi.

Ayol kichik biznesni yo‘lga qo‘yishdan boshlab, uning hajmini kengaytirishi, yangi xodimlarni ish bilan ta’minlashi va bozorda mustaqil iqtisodiy subyektga aylanishi mumkin.

Tadbirkorlik faqat iqtisodiy mavqeni emas, balki ijtimoiy maqomni ham oshiradi. Muvaffaqiyatli tadbirkor mahalliy hamjamiyatda yangi aloqalar, jamoat ta’siri va rahbarlik resurslariga ega bo‘ladi.

Siyosiy mobillik xotin-qizlarning mahalliy va milliy boshqaruv tizimlaridagi ishtiroki bilan bog‘liq.

Jamoatchilik faolidan mahalliy boshqaruv organidagi vakillikka, oddiy partiya a’zosidan rahbarlik lavozimiga yoki quyi boshqaruv darajasidan yuqoriroq siyosiy vakolatga ko‘tarilish siyosiy vertikal mobillik ko‘rinishlari hisoblanadi.

Siyosiy mobillik xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi. Chunki bunda shaxs nafaqat o‘z hayotiga doir, balki boshqa insonlar hayotiga ta’sir qiladigan qarorlarni shakllantirish jarayonida ishtirok etadi.

Ayollarning siyosiy va ma’muriy boshqaruvda ishtiroki jamiyatdagi turli ijtimoiy guruhlar manfaatlarini qarorlar qabul qilish jarayonida yanada kengroq ifodalash imkonini beradi.

Ilm-fan tizimi ham xotin-qizlar uchun muhim vertikal mobillik kanalidir.

Talabadan tadqiqotchiga, tadqiqotchidan ilmiy daraja sohibiga, o‘qituvchidan professor yoki ilmiy rahbar darajasiga ko‘tarilish ilmiy-akademik mobillikning turli bosqichlarini ifodalaydi.

Ilmiy maqomning ortishi bilan shaxsning professional nufuzi, ekspertlik salohiyati va akademik qarorlarga ta’sir doirasi kengayadi.

Ilm-fan xotin-qizlar uchun ayniqsa muhim, chunki u bilim va intellektual salohiyatga asoslangan ijtimoiy o‘sish imkoniyatini beradi.

Fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat tashkilotlar, ko‘ngillilik harakatlari va mahalliy tashabbuslar ham xotin-qizlarning vertikal mobilligiga xizmat qilishi mumkin. Dastlab ko‘ngilli yoki oddiy ishtirokchi sifatida faoliyat boshlagan ayol keyinchalik loyiha koordinatori, tashkilot rahbari yoki jamoatchilik yetakchisiga aylanishi mumkin. Bunday vertikal o‘sish formal davlat strukturasidan tashqarida sodir bo‘lsa-da, jamiyatdagi ta’sir darajasining oshishi bilan tavsiflanadi.

Jamoat faoliyati ayollarda liderlik, tashkiliy boshqaruv, muzokara va omma oldida nutq so‘zlash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Raqamli iqtisodiyot vertikal mobillikning yangi shakllarini yaratmoqda. Internet orqali kichik xizmat ko‘rsatuvchi sifatida faoliyat boshlagan ayol keyinchalik raqamli biznes egasi, ekspert yoki katta auditoriyaga ega professional brend sohibiga aylanishi mumkin.

Raqamli platformalarning muhim jihati shundaki, ularda hududiy va ayrim institutsional cheklovlar nisbatan kamroq namoyon bo‘ladi. Shaxs o‘z malakasi va faoliyat natijalari orqali katta auditoriya va bozorga chiqishi mumkin. Bu, ayniqsa, geografik yoki oilaviy sabablar tufayli an’anaviy mehnat bozorida to‘liq faol ishtirok eta olmaydigan xotin-qizlar uchun muhim imkoniyat yaratadi.

Amaliy hayotda gorizontal va vertikal mobillik o‘rtasida qat’iy chegara mavjud emas. Ko‘pincha gorizontal harakat keyingi vertikal o‘sishning boshlang‘ich bosqichi hisoblanadi. Masalan, ayol boshqa tashkilotga bir xil lavozimda ishga o‘tadi. Bu gorizontal mobillikdir. Yangi tashkilotda yangi bilim va tajriba to‘plashi natijasida u rahbarlik lavozimiga ko‘tariladi. Bu esa vertikal mobillikka aylanadi.

Xuddi shuningdek, boshqa hududga o‘qishga borish gorizontal makoniy mobillik bo‘lsa, oliy ma’lumot olishi va yuqori malakali kasb egallashi vertikal ijtimoiy o‘sishni yuzaga keltiradi.

Shu sababli xotin-qizlarning mobilligini baholashda faqat yakuniy ijtimoiy mavqega emas, balki unga olib kelgan harakatlar zanjiriga e’tibor qaratish zarur.

Xotin-qizlarning ijtimoiy mobilligi formal va norasmiy kanallar orqali amalga oshadi.

Formal kanallarga:

- ta’lim muassasalari;
- davlat xizmatidagi lavozimlar tizimi;
- korxona va tashkilotlardagi xizmat pillapoyalari;
- rasmiy tadbirkorlik;
- siyosiy institutlar;
- ilmiy daraja va unvonlar tizimi

kiradi.

Norasmiy kanallar esa, professional aloqalar, mentorlik, ijtimoiy tarmoqlar, tanishlar doirasi, oilaviy qo‘llab-quvvatlash va hamjamiyatlar shaklida namoyon bo‘ladi.

Zamonaviy jamiyatlarda ushbu ikki tur bir-biri bilan chambarchas bog‘langan. Formal imkoniyat mavjud bo‘lsa ham, shaxsning kerakli axborot va professional tarmoqlarga ega emasligi undan foydalanishni qiyinlashtirishi mumkin.

Shuning uchun xotin-qizlar mobilligini rivojlantirish uchun nafaqat rasmiy imkoniyatlar yaratish, balki ularning ijtimoiy kapitalini ham kengaytirish zarur.

Ijtimoiy mobillik yakka shaxs yoki katta ijtimoiy guruh darajasida kechishi mumkin. Individual mobillikda muayyan ayol o‘z bilimi, qobiliyati va faoliyati orqali ijtimoiy mavqeini o‘zgartiradi. Guruhiy mobillikda esa butun ijtimoiy guruhning jamiyatdagi pozitsiyasi o‘zgaradi. Masalan, oliy ma’lumotli xotin-qizlar ulushining ko‘payishi, ayollarning ilgari kam qatnashgan kasbiy sohalarga ommaviy kirib borishi yoki ularning tadbirkorlikdagi ishtirokining kengayishi guruhiy mobillikning belgisi bo‘lishi mumkin.

Guruhiy mobillik jamiyatdagi gender munosabatlarining chuqur transformatsiyasini aks ettiradi.

Xotin-qizlar mobilligini vaqt mezoni bo‘yicha avlod ichidagi va avlodlararo shakllarga ajratish mumkin.

Avlod ichidagi mobillik bir shaxsning hayoti davomida ijtimoiy mavqeining o‘zgarishidir. Masalan, yosh mutaxassisning bo‘lim rahbari, so‘ng tashkilot rahbari bo‘lishi.

Avlodlararo mobillikda esa, ayolning ijtimoiy mavqei ota-onasi yoki oldingi avlod holati bilan qiyoslanadi. Qishloq oilasida ulg‘aygan, ota-onasi oliy ma’lumot olmagan qizning universitetni bitirishi va ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanishi avlodlararo yuqoriga yo‘nalgan mobillikning aniq namunasidir.

Xotin-qizlarning avlodlararo mobilligi jamiyat taraqqiyotining muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Chunki bu ta’lim va ijtimoiy imkoniyatlarning kelib chiqishga bog‘liqligi kamayib borayotganini ko‘rsatishi mumkin.

Ijtimoiy mobillik imkoniyati barcha shaxslar uchun avtomatik tarzda teng bo‘lmaydi. Mobillik kanaliga kirish uchun ma’lum resurslar zarur.

Birinchi resurs — inson kapitali. U bilim, malaka, tajriba va kasbiy kompetensiyalarni qamrab oladi.

Ikkinchi resurs — iqtisodiy kapital. Ta’lim olish, yangi biznes boshlash yoki boshqa hududga ko‘chish uchun muayyan moddiy imkoniyatlar talab etilishi mumkin.

Uchinchi resurs — ijtimoiy kapital. Professional aloqalar, mentorlar, hamkasblar va qo‘llab-quvvatlovchi tarmoqlar insonning imkoniyatlardan xabardor bo‘lishiga yordam beradi.

To‘rtinchi resurs — madaniy kapital. Til bilish, muloqot madaniyati, professional etiket va zamonaviy jamiyat me’yorlarini tushunish shaxsning yangi muhitga moslashuvini osonlashtiradi.

Beshinchi resurs — raqamli kapital. Raqamli savodxonlik zamonaviy mehnat va ta’lim bozorida tobora muhim resursga aylanmoqda.

Xotin-qizlar mazkur resurslardan bir yoki bir nechtasiga ega bo‘lmaganda, formal jihatdan mavjud mobillik kanalidan amalda foydalana olmasligi mumkin.

Xotin-qizlar ijtimoiy mobilligi uchun mavjud imkoniyatlar ayrim hollarda institutsional to‘siqlar bilan cheklanishi mumkin.

Bunday to‘siqlarga kasbiy segregatsiya, rahbarlik lavozimlariga ko‘tarilish imkoniyatlarining cheklanganligi, moslashuvchan mehnat shakllarining rivojlanmaganligi, ta’lim va kasbiy rivojlanish resurslarining hududlar bo‘yicha notekis taqsimlanishi kiradi.

Bundan tashqari, shaxsiy va oilaviy hayot bilan professional faoliyatni uyg‘unlashtirish imkoniyatlari ham vertikal o‘sishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Ayol professional rivojlanish uchun tayyor bo‘lsa-yu, lekin doimiy ravishda barcha oilaviy yuklamalarni yakka o‘zi bajarishi talab etilsa, uning vertikal mobilligi sekinlashishi mumkin.

Shu sababli mobillikni faqat individual qobiliyat va mehnat natijasi sifatida tushuntirish yetarli emas. Uning institutsional shart-sharoitlari ham hisobga olinishi kerak.

Ijtimoiy stereotiplar xotin-qizlarning qanday kasbni tanlashi, rahbarlikka intilishi yoki yangi faoliyat sohasiga kirishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Agar muayyan sohalar faqat erkaklarga yoki faqat ayollarga xos degan qarash mustahkam bo‘lsa, qizlar o‘z qobiliyatiga mos bo‘lsa ham ayrim kasblarni tanlashdan voz kechishi mumkin.

Bunday holatda mobillik kanali formal jihatdan ochiq, amalda esa madaniy-psixologik jihatdan cheklangan bo‘ladi. Shuning uchun xotin-qizlarning mobilligi uchun faqat huquqiy tenglik emas, balki imkoniyatlarning ijtimoiy va madaniy jihatdan qabul qilinishi ham muhimdir.

Gorizontal mobillik xotin-qizlarning tajriba va imkoniyatlar doirasini kengaytiradi. Uning asosiy samaralari quyidagilarda ko‘rinadi:

yangi professional muhitga kirish;

ijtimoiy aloqalarning ko‘payishi;

turli tajribalarni o‘zlashtirish;

moslashuvchanlikning ortishi;

yangi faoliyat yo‘nalishlarini sinab ko‘rish;

professional va madaniy kapitalning kengayishi.

Gorizontal mobillik ayolga o‘z hayot trayektoriyasini o‘zgartirish imkonini beradi. Bu jarayon ko‘pincha kelajakdagi vertikal o‘sish uchun zarur platformani shakllantiradi.

Vertikal mobillikning xotin-qizlar ijtimoiy faolligiga ta’siri yanada bevosita namoyon bo‘ladi.

Yuqori lavozim, yuqori malaka, iqtisodiy mustaqillik yoki siyosiy vakolat shaxsning jamiyatdagi ta’sir doirasini kengaytiradi.

Vertikal mobillik natijasida ayol resurslarni boshqarish, qaror qabul qilish va boshqalarning faoliyatini yo‘naltirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bunday jarayonning yana bir muhim jihati — namuna yaratishdir. Turli sohalarda yuqori mavqega erishgan ayollar yosh qizlar uchun kasbiy va ijtimoiy istiqbolning real ekanini ko‘rsatadi. Bu jarayon individual muvaffaqiyatning jamiyat miqyosidagi ijtimoiy ta’sirga aylanishini ta’minlaydi.

XXI asr jamiyatida ijtimoiy mobillik kanallari tubdan o‘zgarib bormoqda. An’anaviy tarzda ta’lim, davlat xizmati va korporativ lavozimlar asosiy vertikal kanallar bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda tadbirkorlik, raqamli iqtisodiyot, kreativ industriya va professional onlayn platformalar ham katta ahamiyat kasb etmoqda.

Endilikda insonning ijtimoiy mavqei faqat bitta tashkilotdagi lavozim pillapoyasi orqali o‘sishi shart emas. Ayol bir vaqtning o‘zida oliy ta’lim muassasasida faoliyat yuritishi, tadqiqot olib borishi, onlayn ta’lim xizmatini ko‘rsatishi va jamoat loyihalarida qatnashishi mumkin.

Bu holat ko‘p kanalli mobillik tushunchasining ahamiyatini oshirmoqda.

Ko‘p kanalli mobillikda shaxsning ijtimoiy mavqei bir vaqtning o‘zida ta’lim, kasbiy faoliyat, iqtisodiy resurs, raqamli faollik va jamoatchilik ishtiroki orqali shakllanadi.

Zamonaviy jamiyatlarda xotin-qizlar ijtimoiy faolligini ta’minlovchi mobillik kanallarini quyidagi integrativ tasnif asosida guruhlash mumkin.

Gorizontal mobillik kanallari:

1. hududiy-makoniy mobillik;

2. kasbiy yo‘nalishlararo mobillik;
3. tashkilotlararo mobillik;
4. ta’limiy-kompetensiyaviy mobillik;
5. kommunikativ va professional tarmoqlar mobilligi;
6. madaniy-guruhlararo mobillik;
7. raqamli va virtual mobillik;
8. sektorlararo mobillik — davlat, nodavlat va xususiy sektorlar o‘rtasidagi harakat.

Vertikal mobillik kanallari:

1. ta’limiy va akademik o‘sish;
2. kasbiy-lavozimiy o‘sish;
3. iqtisodiy va mulkiy mobillik;
4. tadbirkorlik orqali o‘sish;
5. siyosiy va ma’muriy mobillik;
6. ilmiy-akademik maqomning oshishi;
7. fuqarolik jamiyati va jamoatchilik yetakchiligiga ko‘tarilish;
8. raqamli iqtisodiyot va professional brend orqali mavqening oshishi.

Mazkur kanallar bir-biridan mustaqil emas. Ularning kesishgan nuqtalarida xotin-qizlarning eng yuqori darajadagi ijtimoiy faolligi shakllanadi.

Xotin-qizlar ijtimoiy faolligini tushuntirishda “gorizontal tajriba — kapital to‘planishi — vertikal o‘sish” modelidan foydalanish mumkin.

Birinchi bosqichda shaxs turli ijtimoiy muhitlarga kiradi. U hududini, tashkilotini yoki faoliyat yo‘nalishini o‘zgartirishi mumkin.

Ikkinchi bosqichda u bilim, tajriba, professional aloqalar va madaniy kapital to‘playdi.

Uchinchi bosqichda mazkur resurslar yangi ijtimoiy mavqega erishish imkonini beradi. Masalan:

hududiy mobillik → oliy ta’lim → yuqori malakali kasb;

tashkilotlararo mobillik → yangi tajriba → rahbarlik lavozimi;

raqamli ta’lim → yangi kompetensiya → yuqori daromadli faoliyat;

jamoatchilik faoliyati → liderlik tajribasi → siyosiy yoki ma’muriy vakolat.

Shu tariqa gorizontal va vertikal mobillik o‘zaro uzluksiz jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Xotin-qizlar mobilligining kengayishi faqat individual muvaffaqiyat masalasi emas. U jamiyatning inson kapitali va institutsional rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Birinchidan, mehnat bozorida mavjud bilim va salohiyatdan to‘liqroq foydalanish imkonini beradi.

Ikkinchidan, boshqaruv tizimida ijtimoiy tajribaning xilma-xilligini oshiradi.

Uchinchidan, oilalarda ta’lim va professional rivojlanishga bo‘lgan munosabatni o‘zgartiradi.

To‘rtinchidan, qizlar uchun yangi ijtimoiy namunalar shakllanadi.

Beshinchidan, jamiyatda shaxsning kelib chiqishidan ko‘ra uning bilimi va kompetensiyasiga asoslangan ijtimoiy munosabatlar mustahkamlanadi. Shu ma’noda xotin-qizlar mobilligining o‘sishi ochiq va dinamik jamiyatning muhim belgilaridan biridir.

Zamonaviy jamiyatlarda xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini ta’minlash jarayoni ijtimoiy mobillikning gorizontal va vertikal kanallari bilan uzviy bog‘liqdir. Gorizontal mobillik ayollarning yangi hudud, kasb, tashkilot, professional tarmoq va raqamli makonlarga kirishini ta’minlasa, vertikal mobillik ularning ta’limiy, iqtisodiy, professional, siyosiy va ilmiy mavqelarining yuksalishiga olib keladi.

Gorizontal mobillikni faqat bir xil ijtimoiy darajadagi joy almashish deb baholash yetarli emas. U bilim, tajriba va ijtimoiy kapital to‘planadigan muhim bosqichdir. Mazkur resurslar keyinchalik vertikal mobillikning tayanchiga aylanadi. Shu sababli gorizontal va vertikal mobillik xotin-qizlarning ijtimoiy rivojlanish trayektoriyasida o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi jarayonlardir.

Ta’lim, kasbiy faoliyat, tadbirkorlik, davlat boshqaruvi, ilm-fan, fuqarolik jamiyati va raqamli iqtisodiyot zamonaviy sharoitda xotin-qizlarning eng muhim mobillik kanallari sifatida shakllanmoqda. Mazkur kanallarning ochiqligi va ulardan foydalanish imkoniyatining mavjudligi jamiyatdagi ijtimoiy tenglik darajasini ko‘rsatuvchi muhim mezon hisoblanadi.

Biroq mobillik imkoniyatini faqat formal institutlar mavjudligi bilan baholab bo‘lmaydi. Ayollarning ushbu imkoniyatlardan amalda foydalanishi inson kapitali, iqtisodiy resurs, ijtimoiy aloqalar, raqamli savodxonlik, oilaviy qo‘llab-quvvatlash va jamiyatdagi madaniy qarashlarga ham bog‘liqdir.

Shuning uchun xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan siyosat va ijtimoiy mexanizmlar bir vaqtning o‘zida gorizontal hamda vertikal mobillikni rivojlantirishga yo‘naltirilishi maqsadga muvofiq. Hududiy, kasbiy va ta’limiy harakatlanish imkoniyatlarini kengaytirish gorizontal mobillikni kuchaytirsa, sifatli ta’lim, professional o‘sish, tadbirkorlik va boshqaruvda ishtirok etish imkoniyatlari vertikal mobillik uchun zamin yaratadi.

Natijada xotin-qizlar jamiyatdagi tayyor ijtimoiy rollarni bajaruvchi obyekt sifatida emas, balki o‘z ijtimoiy trayektoriyasini mustaqil ravishda shakllantiruvchi, yangi ijtimoiy makonlarni egallovchi va jamiyat rivojlanishiga faol ta’sir ko‘rsatuvchi subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. Aynan shu jihat ijtimoiy mobillikni zamonaviy jamiyatlarda xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini ta’minlovchi fundamental mexanizmlardan biri sifatida baholash imkonini beradi.

2.3. Ijtimoiy mobillik mexanizmlarini tartibga solish xotin-qizlar ijtimoiy faolligining asosiy omili sifatida

Zamonaviy jamiyatlarda xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish faqat alohida tashabbuslar yoki qisqa muddatli dasturlar bilan cheklanmaydi. Bu jarayon ko‘p omilli, uzluksiz va institutsional asosga ega bo‘lgan ijtimoiy siyosatni talab etadi. Xotin-qizlarning ta’lim olishi, kasb egallashi, mehnat bozorida munosib o‘rin topishi, tadbirkorlik bilan shug‘ullanishi, ilmiy va siyosiy faoliyatga kirishi, boshqaruv tizimida yuqori mavqelarga ko‘tarilishi ularning ijtimoiy mobilligi bilan bevosita bog‘liqdir. Shu sababli ijtimoiy mobillik mexanizmlarini tartibga solish xotin-qizlar ijtimoiy faolligini ta’minlovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Ijtimoiy mobillik mexanizmlarini tartibga solish deganda shaxs yoki ijtimoiy guruhning bir ijtimoiy pozitsiyadan boshqasiga o‘tishiga imkon beruvchi huquqiy,

institutsional, iqtisodiy, ta’limiy, madaniy va axborot vositalarini izchil tashkil etish tushuniladi. Mazkur tartibga solishning asosiy maqsadi jamiyatdagi turli ijtimoiy qatlamlar, xususan, xotin-qizlar uchun mavjud imkoniyatlarni real, ochiq va foydalanish mumkin bo‘lgan shaklga keltirishdan iboratdir.

Ijtimoiy mobillik tabiiy ravishda sodir bo‘ladigan jarayon bo‘lsa-da, uning sur’ati va yo‘nalishi ko‘p jihatdan davlat siyosati, jamiyatdagi institutlar, mehnat bozori, ta’lim tizimi va sotsiomadaniy munosabatlarga bog‘liq. Agar mazkur tizimlar o‘zaro muvofiqlashgan holda faoliyat yuritsa, xotin-qizlarning gorizontal va vertikal mobilligi uchun qulay sharoit yaratiladi. Aksincha, huquqiy imkoniyatlar mavjud bo‘lib, amaliy mexanizmlar yetarli bo‘lmasa, formal tenglik real ijtimoiy faollikka aylanmasligi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, ijtimoiy mobillik mexanizmlarini tartibga solish xotin-qizlarning jamiyatdagi harakat trayektoriyasini bevosita shakllantiradi. Ta’limga kirish, kasbiy tayyorlanish, mehnat bozoriga chiqish, iqtisodiy mustaqillikka erishish, rahbarlikka ko‘tarilish, siyosiy va jamoat hayotida qatnashish o‘zaro bog‘liq bosqichlar sifatida namoyon bo‘ladi.

Ijtimoiy mobillik mexanizmlari, eng avvalo, institutsional sharoitga bog‘liq. Institutlar jamiyatdagi barqaror qoidalar, me’yorlar va imkoniyatlar tizimini shakllantiradi. Ta’lim muassasalari, mehnat bozori, davlat boshqaruvi, tadbirkorlik tizimi, ilmiy tashkilotlar, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va mahalliy hamjamiyatlar xotin-qizlar mobilligining asosiy institutsional maydonlaridir.

Xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini ta’minlash uchun ushbu institutlar o‘rtasida uzviy bog‘liqlik bo‘lishi kerak. Masalan, ta’lim muassasasida bilim va malaka olgan ayolning mehnat bozorida o‘z mutaxassisligiga mos ish topishi, ish joyida kasbiy o‘sishi va keyinchalik rahbarlik yoki tadbirkorlik imkoniyatiga ega bo‘lishi ijtimoiy mobillik zanjirini shakllantiradi.

Agar mazkur zanjirning biror bosqichida tizimli to‘siq mavjud bo‘lsa, mobillik sekinlashadi. Masalan, ta’lim olish imkoniyati mavjud bo‘lsa-yu, lekin mehnat bozorida mos ish o‘rinlari bo‘lmasa, ta’limning vertikal mobillikdagi roli

to‘liq amalga oshmaydi. Xuddi shuningdek, ishga kirish imkoniyati mavjud bo‘lsa-yu, rahbarlik lavozimlariga ko‘tarilish uchun shaffof mezonlar bo‘lmasa, kasbiy mobillik cheklanadi. Shu sababli institutsional tartibga solish xotin-qizlar mobilligini alohida yo‘nalishlar bo‘yicha emas, balki yagona tizim sifatida ko‘rib chiqishni talab etadi.

Xotin-qizlar ijtimoiy mobilligini ta’minlashning eng muhim asoslaridan biri huquqiy mexanizmlardir. Huquqiy tenglik jamiyatdagi boshqa barcha mobillik kanallarining faoliyat yuritishi uchun zarur asos hisoblanadi.

Ta’lim olish, kasb tanlash, mehnat qilish, tadbirkorlik bilan shug‘ullanish, mulkka egalik qilish, davlat va jamoat boshqaruvida ishtirok etish huquqlari real ijtimoiy mobillikning huquqiy poydevorini tashkil etadi.

Biroq huquqiy kafolatlarning mavjudligi o‘z-o‘zidan teng ijtimoiy natijalarni bermaydi. Qonun va uning amaliy ijrosi o‘rtasida muvofiqlik bo‘lishi zarur. Ayniqsa, ishga qabul qilish, mehnatga haq to‘lash, kasbiy o‘sish va rahbarlik lavozimlariga tayinlash jarayonlarida ochiqlik va adolat tamoyillari muhimdir.

Huquqiy tartibga solishning yana bir muhim yo‘nalishi — diskriminatsion yondashuvlarning oldini olishdir. Xotin-qizlar kasb tanlashda, oliy ta’limga kirishda, kredit olishda yoki boshqaruv lavozimiga ko‘tarilishda jins asosida yashirin yoki ochiq cheklovlarga duch kelmasligi kerak.

Huquqiy mexanizmlar, shuningdek, mehnat va oilaviy vazifalarni uyg‘unlashtirish uchun zarur shartlarni ham qo‘llab-quvvatlashi lozim. Chunki xotin-qizlarning ijtimoiy mobilligi ko‘p hollarda faqat kasbiy imkoniyatlar bilan emas, balki oilaviy mas’uliyat bilan ham belgilanadi.

Ta’lim ijtimoiy mobillikning eng kuchli vositalaridan biridir. Shu sababli xotin-qizlar ijtimoiy faolligini ta’minlashda ta’lim tizimini tartibga solish strategik ahamiyatga ega.

Qizlarning boshlang‘ich va umumiy ta’limdan tortib oliy ta’lim va ilmiy faoliyatgacha bo‘lgan uzluksiz ta’lim trayektoriyasini qo‘llab-quvvatlash ularning kelajakdagi ijtimoiy mavqeini belgilab beradi.

Ta’lim siyosati xotin-qizlar uchun ikki vazifani bajaradi. Birinchisi — bilim va kasbiy kompetensiyani shakllantirish. Ikkinchisi — shaxsning o‘z imkoniyatlarini anglashiga va ijtimoiy faol subyekt sifatida shakllanishiga ko‘maklashish.

Zamonaviy jamiyatda ta’limning mazmuni ham o‘zgarib bormoqda. Faqat diplom olish emas, balki mehnat bozorida talab qilinadigan real ko‘nikmalarni egallash muhim bo‘lib qolmoqda. Shu sababli raqamli savodxonlik, chet tillari, kommunikativ ko‘nikmalar, loyiha boshqaruvi va tadbirkorlik asoslari ta’limning muhim tarkibiy qismlariga aylanmoqda.

Xotin-qizlar uchun uzluksiz ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish ayniqsa muhimdir. Chunki oilaviy sabablar yoki vaqtinchalik mehnat faoliyatidan tanaffus qilish holatlaridan keyin kasbiy faoliyatga qaytish uchun qayta tayyorlash va malaka oshirish imkoniyatlari zarur bo‘ladi.

Xotin-qizlar ijtimoiy mobilligining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri ularning barqaror va malakaga mos bandligidir. Shu jihatdan mehnat bozorini tartibga solish xotin-qizlar faolligini ta’minlashda markaziy o‘rin egallaydi.

Mehnat bozori nafaqat ish o‘rinlari soni, balki ularning sifati, mehnat sharoiti, kasbiy o‘sish imkoniyati va ish haqining adolatliligi bilan ham baholanishi kerak.

Xotin-qizlar bandligini ta’minlashda kasbiy segregatsiyani kamaytirish muhim. Ayrim kasb va sohalarni faqat ma’lum jinsga xos deb qarash mehnat bozoridagi sun’iy chegaralarni saqlab qolishi mumkin.

Kasb tanlashda qobiliyat, bilim va qiziqish asosiy mezon bo‘lishi zarur. Bu yondashuv xotin-qizlarning texnologiya, muhandislik, moliya, innovatsion iqtisodiyot va boshqaruv kabi yuqori malaka talab qiladigan sohalarga kirishini kengaytiradi.

Mehnat bozorini tartibga solishda ishga qabul qilish va lavozim bo‘yicha o‘sish mezonlarining shaffofligi alohida ahamiyatga ega.

Xotin-qizlar uchun yarim stavka, masofaviy mehnat, moslashuvchan ish jadvali va loyiha asosidagi bandlik shakllarining rivojlanishi ham ularning mobilligini kuchaytiradi.

Tadbirkorlik xotin-qizlar ijtimoiy mobilligini tezlashtiruvchi muhim iqtisodiy kanallardan biridir. Tadbirkor ayol yollanma mehnat doirasidan chiqib, mustaqil iqtisodiy subyekt sifatida faoliyat yuritadi. Biroq tadbirkorlikka kirish imkoniyati faqat g‘oya yoki tashabbus bilan chegaralanmaydi. Moliyaviy resurs, bilim, bozor haqida axborot va huquqiy ko‘nikmalar zarur.

Shu sababli xotin-qizlar tadbirkorligini tartibga solish va qo‘llab-quvvatlash tizimi bir necha yo‘nalishni qamrab olishi kerak:

kredit va moliyalashtirish imkoniyatlari;

biznes bo‘yicha maslahat va mentorlik;

raqamli marketing va elektron tijorat ko‘nikmalari;

soliq va huquqiy savodxonlik;

bozorga kirish uchun axborot resurslari.

Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashning samaradorligi faqat yangi bizneslar soni bilan emas, balki ularning yashovchanligi, o‘sishi va yangi ish o‘rinlari yaratishi bilan baholanishi kerak.

Xotin-qizlarning iqtisodiy mustaqilligi ijtimoiy faollikning boshqa shakllarini ham kuchaytiradi. Moliyaviy imkoniyatga ega shaxs ta’lim, sog‘liq, kasbiy rivojlanish va jamoatchilik faoliyatiga ko‘proq resurs yo‘naltira oladi.

Xotin-qizlarning boshqaruv tizimidagi ishtiroki vertikal mobillikning eng yaqqol ko‘rinishlaridan biridir. Davlat va jamoat boshqaruvida ayollarning yetarli vakilligi jamiyatdagi ijtimoiy faollik darajasini ham ko‘rsatadi. Mazkur sohada mobillikni tartibga solish uchun kadrlarni tanlash va lavozimga ko‘tarish mezonlari aniq va shaffof bo‘lishi kerak.

Xotin-qizlarni rahbarlikka tayyorlash uchun boshqaruv, muzokara, strategik rejalashtirish, jamoa bilan ishlash va qaror qabul qilish bo‘yicha maxsus dasturlar muhimdir.

Rahbarlik zaxirasini shakllantirishda ayol mutaxassislarning salohiyati muntazam baholab borilishi kerak. Ko‘pincha professional jihatdan yetuk xodim rahbarlikka tayyor bo‘lsa ham, ijtimoiy stereotip yoki norasmiy to‘siqlar tufayli yuqori lavozimga ko‘tarilmasligi mumkin.

Shu sababli boshqaruvdagi mobillikni tartibga solish faqat kvantitativ ko‘rsatkichlarga emas, balki sifatli kadrlar o‘sish mexanizmlariga asoslanishi zarur. Ilm-fan va akademik muhit xotin-qizlarning intellektual va professional mobilligini shakllantiruvchi muhim sohalardan biridir.

Ayollarning ilmiy izlanishlar, doktorantura, ilmiy loyihalar va xalqaro hamkorlikdagi ishtirokini qo‘llab-quvvatlash ularning professional maqomini oshiradi.

Akademik mobillikning samarali bo‘lishi uchun ilmiy grantlar, stajirovkalar, konferensiyalar va tadqiqot infratuzilmasiga teng kirish imkoniyati bo‘lishi kerak. Bundan tashqari, ilmiy faoliyat bilan oilaviy vazifalarni uyg‘unlashtirish masalasi ham muhimdir. Uzoq muddatli ilmiy loyihalar, xorijiy stajirovkalar va akademik martaba ko‘pincha vaqt va yuqori darajadagi mobil bo‘lishni talab qiladi. Shu sababli ilmiy mobillikni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari shaxsning hayotiy sharoitlarini ham hisobga olishi lozim.

Xotin-qizlarning ijtimoiy imkoniyatlari yashash hududiga qarab sezilarli farq qilishi mumkin. Shahar va qishloq o‘rtasidagi ta’lim, ish, transport va axborot imkoniyatlaridagi tafovut mobillikka bevosita ta’sir qiladi.

Hududiy mobillikni tartibga solish deganda faqat ko‘chishni rag‘batlantirish emas, balki turli hududlarda imkoniyatlar tengligini ta’minlash tushuniladi.

Chekka hududlarda professional ta’lim markazlarini tashkil etish, masofaviy ta’limni kengaytirish, internet infratuzilmasini rivojlantirish va xizmat ko‘rsatish tizimini yaxshilash xotin-qizlarning hududiy cheklovlarini kamaytiradi. Ayrim holatlarda yashash joyini o‘zgartirmasdan ham ijtimoiy mobillikka erishish mumkin. Masofaviy ish, onlayn ta’lim va elektron tijorat bunday imkoniyatlarni sezilarli ravishda kengaytirmoqda.

Raqamlashtirish xotin-qizlarning ijtimoiy faolligiga katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Raqamli platformalar orqali ta’lim olish, ish topish, xizmat ko‘rsatish, biznes yuritish va jamoatchilik faoliyatida ishtirok etish mumkin.

Shu bilan birga, raqamli tengsizlik yangi turdagi ijtimoiy tafovutlarni yuzaga keltirishi mumkin. Internetga kirish imkoniyati, texnik vosita, raqamli ko‘nikma va til bilimi bo‘lmasa, mavjud onlayn resurslardan foydalanish qiyinlashadi.

Shu sababli raqamli mobillikni tartibga solishning asosiy yo‘nalishlari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

raqamli savodxonlikni oshirish;

internet infratuzilmasini kengaytirish;

onlayn ta’lim resurslaridan foydalanishni yengillashtirish;

xotin-qizlarning elektron tadbirkorlikdagi ishtirokini qo‘llab-quvvatlash;

masofaviy mehnat imkoniyatlarini huquqiy jihatdan tartibga solish.

Raqamli mexanizmlar xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini hudud va vaqt bilan bog‘liq cheklovlardan qisman xalos etishi mumkin.

Xotin-qizlar mobilligini faqat davlat yoki mehnat bozori darajasida tartibga solish yetarli emas. Oila instituti ham bu jarayonda muhim rol o‘ynaydi.

Ayolning ta’lim olish, ishga chiqish, kasbiy rivojlanish yoki boshqa hududda faoliyat olib borish qarori ko‘pincha oilaviy muhitga bog‘liq.

Oilada o‘zaro hurmat va vazifalarning adolatli taqsimlanishi ayolning ijtimoiy faolligini qo‘llab-quvvatlaydi.

Agar barcha maishiy va tarbiyaviy mas’uliyat faqat ayol zimmasiga yuklansa, uning kasbiy rivojlanish uchun vaqti va imkoniyati kamayadi. Shu sababli oila va professional hayotni uyg‘unlashtirishga qaratilgan ijtimoiy siyosat xotin-qizlar mobilligining muhim tarkibiy qismidir.

Bolalarni parvarish qilish xizmatlari, maktabgacha ta’lim tizimi, moslashuvchan mehnat rejimlari va oilaviy mas’uliyatni umumiy qadriyat sifatida shakllantirish ana shunday mexanizmlar sirasiga kiradi.

Ijtimoiy mobillikni tartibga solishda sotsiomadaniy muhitning ta’siri katta. Formal imkoniyatlar mavjud bo‘lsa ham, jamiyatdagi an’anaviy stereotiplar ayollarning o‘z imkoniyatlaridan foydalanishiga to‘sqinlik qilishi mumkin.

Masalan, ayrim sohalarning “erkaklarga xos” deb qaralishi qizlarning kasb tanlovini cheklaydi. Xuddi shuningdek, rahbarlik faoliyatini ayollarga mos emas deb baholash ularning vertikal mobilligiga ta’sir qiladi.

Stereotiplarni kamaytirish uzoq muddatli jarayondir. Bu jarayonda ta’lim, ommaviy axborot vositalari, oilaviy tarbiya va jamoatchilik fikri muhim o‘rin tutadi. Turli sohalarda muvaffaqiyatga erishgan xotin-qizlarning faoliyatini xolis yoritish yosh qizlar uchun yangi ijtimoiy namunalar yaratadi.

Bunday namuna faqat “muvaffaqiyat hikoyasi” sifatida emas, balki ta’lim, mehnat, mas’uliyat va kompetensiyaning natijasi sifatida ko‘rsatilishi maqsadga muvofiq. Xotin-qizlar ko‘pincha mavjud imkoniyatlar haqida yetarli axborotga ega bo‘lmagani uchun ulardan foydalana olmaydi.

Grant, stipendiya, ish o‘rni, kredit dasturi, malaka oshirish kursi yoki jamoat loyihasi mavjud bo‘lsa ham, axborotning kerakli auditoriyaga yetib bormasligi ijtimoiy mobillikni cheklaydi. Shuning uchun axborot siyosati mobillikni tartibga solishning alohida yo‘nalishi bo‘lishi kerak.

Axborot sodda, tushunarli va foydalanishga qulay shaklda yetkazilishi zarur. Ayniqsa, chekka hududlarda yashovchi xotin-qizlar uchun yagona axborot platformalari, maslahat markazlari va mahalliy kommunikatsiya kanallari muhimdir.

Axborotning mavjudligi shaxsning qaror qabul qilish imkoniyatini kengaytiradi. Imkoniyat haqida bilmagan inson undan foydalanishi mumkin emas. Ijtimoiy mobillik faqat formal institutlarga bog‘liq emas. Shaxsning professional aloqalari va ijtimoiy tarmoqlari ham katta ahamiyatga ega.

Xotin-qizlarning professional uyushmalar, tadbirkorlar tarmoqlari, ilmiy hamjamiyatlar va jamoat tashkilotlarida ishtirokini qo‘llab-quvvatlash ularning ijtimoiy kapitalini kengaytiradi.

Mentorlik mexanizmi ayniqsa samaralidir. Tajribali mutaxassisning yosh ayolga yo‘l-yo‘riq berishi, kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini ko‘rsatishi va professional tarmoqlarga kirishda ko‘maklashishi vertikal mobillikni tezlashtiradi. Mentorlik faqat individual maslahat emas, balki tajriba va ijtimoiy kapitalni avlodlar o‘rtasida uzatish mexanizmi sifatida ham ahamiyatlidir.

Xotin-qizlarning ijtimoiy mobilligi iqtisodiy resurslarga kirish imkoniyati bilan chambarchas bog‘liq.

Ta’lim olish, biznes boshlash, boshqa hududga ko‘chish, malaka oshirish yoki yangi kasb o‘rganish ko‘pincha moddiy xarajat talab qiladi. Shu sababli iqtisodiy tartibga solish mexanizmlari xotin-qizlarning ijtimoiy harakat imkoniyatlarini kengaytirishi zarur. Grantlar, stipendiyalar, imtiyozli kreditlar, kasbiy tayyorgarlik dasturlari va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari bu borada muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Biroq moddiy yordamning o‘zi yetarli emas. U bilim va mas’uliyat bilan uyg‘unlashtirilishi zarur. Masalan, kredit bilan birga moliyaviy savodxonlik va biznes boshqaruvi bo‘yicha maslahat berilishi dastur samaradorligini oshiradi.

Ijtimoiy himoya tizimi xotin-qizlar mobilligini qo‘llab-quvvatlovchi mexanizm sifatida ham ko‘rilishi lozim. Ba’zan ijtimoiy himoya faqat yordam ko‘rsatish vositasi sifatida tushuniladi. Biroq zamonaviy yondashuvda uning maqsadi shaxsni uzoq muddatli qaramlikka emas, balki iqtisodiy va ijtimoiy faollikka olib chiqishdan iborat. Masalan, vaqtincha moddiy yordam bilan birga kasbga o‘qitish, ishga joylashtirish va tadbirkorlikka yo‘naltirish mexanizmlari qo‘llansa, ijtimoiy himoya mobillik vositasiga aylanadi. Shu ma’noda ijtimoiy himoyaning passiv va faol shakllarini farqlash mumkin. Passiv shakl shaxsning ehtiyojini vaqtincha qondirsa, faol shakl uning mustaqil daromad topish va ijtimoiy maqomini oshirish imkoniyatini yaratadi.

Barcha xotin-qizlar bir xil ijtimoiy sharoitda emas. Ularning yoshi, yashash hududi, ta’lim darajasi, oilaviy holati, kasbiy tajribasi va iqtisodiy imkoniyati turlicha. Shuning uchun ijtimoiy mobillik mexanizmlarini yagona universal model asosida tartibga solish har doim ham samarali emas.

Yosh qizlar uchun ta’lim va kasb tanlash masalasi muhim bo‘lsa, o‘rta yoshdagi ayollar uchun qayta tayyorlash va mehnat bozoriga qaytish dolzarb bo‘lishi mumkin. Tadbirkor ayollar uchun moliyalashtirish va bozor imkoniyatlari muhim bo‘lsa, ilmiy faoliyatdagi xotin-qizlar uchun grant va akademik mobillik masalasi

ustuvor bo‘ladi. Demak, ijtimoiy mobillik siyosatining samaradorligi maqsadli guruhlarning ehtiyojlarini aniq o‘rganishga bog‘liq.

Har qanday tartibga solish mexanizmi natijadorlikni baholashni talab qiladi. Xotin-qizlar ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan dasturlarning samaradorligini faqat ajratilgan mablag‘ yoki o‘tkazilgan tadbirlar soni bilan baholash yetarli emas. Asosiy natija shaxsning ijtimoiy mavqeida real o‘zgarish yuz bergan yoki bermaganligi bilan o‘lchanishi kerak.

Bunda quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalanish mumkin:

xotin-qizlarning bandlik darajasi;

yuqori malakali ish o‘rinlaridagi ishtiroki;

rahbarlik lavozimlaridagi ulushi;

tadbirkorlik faoliyatining barqarorligi;

oliy va oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limdagi ishtirok;

ilmiy faoliyatdagi faollik;

raqamli iqtisodiyotdagi bandlik;

davlat va jamoat boshqaruvidagi ishtirok;

daromad va iqtisodiy mustaqillik darajasi.

Monitoring tizimi statistik ma’lumotlar bilan bir qatorda sifat ko‘rsatkichlarini ham hisobga olishi kerak. Masalan, ayolning ishga kirgani emas, balki ishning uning malakasiga qanchalik mosligi va kasbiy o‘sish imkoniyati ham muhimdir.

Xotin-qizlar ijtimoiy mobilligini samarali tartibga solish uchun kompleks model zarur.

Mazkur modelni shartli ravishda quyidagi ketma-ketlikda ifodalash mumkin: **imkoniyat yaratish → axborot bilan ta’minlash → tayyorlash → resurs bilan qo‘llab-quvvatlash → faoliyatga kiritish → kasbiy o‘sish → natijani monitoring qilish.**

